

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**M. G‘. KENJAYEV, N. S.ERNAZAROV**

**BANK HISOBI,  
TAHLIL VA AUDIT**

**1-QISM.**

**Bank hisobi va audit yo'nalishini kasbiy  
faoliyat asoslari**

**(Darslik)**

**TOSHKENT-2022**

**UO‘K:**

**KBK:**

**M.G‘.Kenjayev, N.S.Ernazarov. Bank hisobi, tahlil va audit (1-qism. Bank hisobi va audit yo‘nalishini kasbiy faoliyat asoslari. Darslik). – T.: «Nihol print» OK, 2022. – 208 bet.**

**ISBN 978–9943–**

**5233900 – “Bank hisobi va audit” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan mutaxassisliklarga tayyorlangan. Darslikda asosan bank hisobi, tahlil va audit yo‘nalishiga oid mavzular berilgan bo‘lib, ularning umumiy xususiyatlari bank amaliyotiga doir ma’lumot, materiallar asosida yorilgan.**

**DARSLIK kadrlar tayyorlash bo‘yicha ta’lim standartlari asosida ishlab chiqilgan namunaviy o‘quv dasturi asosida yaratilgan.**

**UO‘K:**

**KBK:**

**Taqrizchilar:**

- I.R. Toymuxammedov** – TDIU, “Bank ishi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.  
*(turdosh OTMdan).*
- I. Raxmonov** – TMI, “Bank ishi” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug‘iga asosan darslikni nashr  
etishga ruxsat berilgan.**

**ISBN 978–9943–**

**© M.G‘.Kenjayev, N.S.Ernazarov, 2022.  
© «Nihol print» OK, 2022.**

## KIRISH

Jahon tajribasi ta’lim jarayonida o‘qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalaridan foydalanish va ularni takomillashtirishni dolzarb masalalar sifatida ko‘rsatmoqda. Shuning uchun respublikamiz ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy usul va interfaol metodlardan o‘qitish jarayonida foydalanishiga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning kafolatlangan bilim olish huquqlariga rioya etilishini ta’minlovchi normativ-huquqiy baza yaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va mazkur masalaga doir qator hujjatlar bu sohadagi ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Respublikamizda ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq tashkil etilgan. Oxirgi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish va hozirgi zamon talablariga moslashtirish yo‘nalishlarida katta e’tibor berilmoqda. Jumladan Toshkent Moliya institutida talabalarni o‘qitishda fanlar bo‘yicha o‘quv – uslubiy majmualarni hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib ishlab chiqilishiga va ularda interfaol metodlardan samarali foydalanish hamda fanlardagi mavzularni talabalar tomonidan mukammal o‘zlashtirilishini ta’minalash maqsadida sifatli taqdimotlardan, tarqatma materiallardan va texnik vositalardan unumli foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etilishiga katta e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev- “bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur”<sup>1</sup> – deb ta’kidladilar. Shunga asoslanib, respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishda puxta va barqaror bank-moliya tizimini yaratishga katta e’tibor qaratish. aholi va tadbirkorlik sub’ektlarining bank tizimiga ishonchini kuchaytirish hamda bozor mexanizmlarini bank amaliyotiga to‘la joriy etish, tijorat banklari oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bank tizimidagi ishonchni ko‘rsatish uchun esa tijorat banklarida o‘tkazilgan auditorlik tekshiruvlari va u bo‘yicha berilgan xulosalarning ham ahamiyati beqiyosdir. Tijorat banklarida hisob yuritish va uni xalqaro standartlar asosida tashkil etish,

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: —O‘zbekiston. , 2018y. 7-b.

banklarda sifatli auditorlik xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish asosiy vazifalardan hisoblanadi

Zamonaviy talabga javob beradigan barkamol avlodni tarbiyalash, o'z kasbini puxta biladigan kadrlar tayyorlashda o'qituvchining roli beqiyos hisoblanadi. U ta'lismi va tarbiya berish jarayonida markaziy o'rin egallagan va doimo shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun xam u har tomonlama ma'lumotli, o'z fanini chuqur bilgan mutaxassis, o'z xalqi va Vataniga sodiq inson, pedagogik iste'dod va mahoratga ega bo'lishi va jamiyatda o'zining mafkuraviy va kasbiy-pedagogik vazifalarini sidqidildan amalga oshirishi bilan ajralib turishi kerak.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni bilan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi.

"Bank hisobi, tahlil va audit" fanini chuqur o'rganish orqali talabalar mamlakatimizning bank siyosatidagi ishtirokini faollashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish, xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar dasiyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish borasida tegishli nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Respublikamiz birinchi Prezidentining "Ta'lismi-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi Farmonida "Ta'lismi to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy Dasturni hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi qayd etilgan.

Respublikamizda Oliy ta'limga davlat ta'limga standartining asosiy qoidalari yildan-yilga takomillashtirilib va xalqaro ta'limga standartlari talablarida shakllantirildi. (bundan keyin OT DTS deb ataladi).

OT DTS ning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni;

- ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va etarli bilim darajasi hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

- o‘quv yuklamasining hajmini;

- ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilashni nazarda tutadi.

Shuningdek, hozirgi kunda ushbu fanni o‘qitish “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini samarali tarzda amalga oshirishga qaratilgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

# **I-BOB. “BANK HISOBI, T AHLIL VA AUDIT” FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI**

**Reja:**

- 1.1 “Bank hisobi, tahlil va audit” fanning maqsadi, predmeti va vazifalari.**
- 1.2. Iqtisodiyotda bank hisobi, tahlil, auditning o‘zaro va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.**
- 1.3. Bank hisobi, tahlil va auditning banklar faoliyatida o‘rni, ahamiyati.**

## **1.1. “Bank hisobi, tahlil va audit” fanining maqsadi, predmeti va vazifalari**

Banklar har kuni bir necha yuz minglab operatsiyalarni amalga oshiradi va turli xil bank xizmatlarini ko‘rsatadi. Bularning barchasi banklarda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va tegishli hisobotlarda tahlil va qayd etiladi hamda auditorlik tekshiruvidan o‘tkaziladi. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzish nafaqat bank mijozlari va aholiga sifatli bank xizmatlarini ko‘rsatish, balki bank aksiyadorlari, kreditorlari, investorlari, mijozlari va davlat moliya muassasalarini zarur axborot bilan ta’minalash hamda bankning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini nazorat qilishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimiz bank tizimi buxgalteriya hisobini yuritish, mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatish va hisobotlarni tayyorlash, ularni tahlili hamda auditini o‘tkazishda juda ko‘plab o‘zgarishlar va yangiliklar amalga oshirildi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi, banklarda buxgalteriya hisobini yuritilishi, bank auditini tashkil etish va amalga oshirish, undagi islohotlar va rivojlanish yo‘nalishlari, shuningdek dunyo bank tizimidagi sodir bo‘layotgan jarayonlar xususida aniq bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali tanlagan yo‘nalishiga bo‘lgan tassavur va qiziqishni oshirishdir.

Fanning vazifalari - talabalar uchun mutaxassislik fanlari mazmuni to‘g‘risida ma’lumot berish hamda ushbu fanlarning maqsadi, vazifalari, predmeti, boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqadorligi, ahamiyati, o‘qitish uslublari va baholash mezonlari xususida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va dunyo bank tizimidagi sodir bo‘layotgan jarayonlar to‘g‘risida chuqr va atroficha bilim berish hisoblanadi.

“Bank hisobi, tahlil va audit” fani bakalavriatning “Bank hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishida ta’lim oladigan talabalar uchun ixtisoslikka kirish fani hisoblanadi. Shu sababli, ushbu fanda “Bank hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishi talabalariga O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi, undagi islohotlar, hisob-kitoblar, bank buxgalteriya hisobini yurilishi va rivojlanish yo‘nalishlari, shuningdek dunyo bank tizimida sodir bo‘layotgan jarayonlar, o‘zgarishlar xususida dastlabki nazariy va amaliy bilimlarni berish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bank hisobi, tahlil va audit” fani umum kasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, uning 1-kursda o‘qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan mutaxassislik fanlarining nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o‘z rivojida aniq yo‘nalishdagi iqtisodiy fanlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

“Bank hisobi, tahlil va audit” fanining predmeti bo‘lib, bank faoliyati bilan bog‘liq munosabatlар va uning turli operatsiyalari hisoblanadi. Ular “Bank hisobi, tahlil va audit” fanining o‘rganish ob’ekti bo‘lib hisoblanadi.

Har qanday fan o‘z ob’ektini ma’lum usullarni qo‘llash yordamida o‘rganadi. Bank faoliyati, undagi sir-sinoatlarni ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilishda “Bank hisobi, tahlil va audit” fani turli xil usul va metodlardan foydalanadi.

- Tizimli yondoshuv.
- Iqtisodiy matematik yondoshuv.
- Kuzatish usuli.
- Tajriba usuli.
- Taqqoslash va boshqalar.

“Bank hisobi, tahlil va audit” fanini o‘qitishda foydalilaniladigan intrefaol ta’lim metodlar:

- Aqliy hujum metodi.
- Muammoli vaziyat metodi.
- Klaster metodi.
- Venn diagrammasi.
- Bumerang metodi.
- Munozara medtodi va boshqalar.

“Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risoda”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini bajarish yuzasidan va oliy ma’lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’limning uzluksizligi va davomiyligini ta’minlash, jahon ta’lim tizimiga qo‘shilish, shuningdek oliy ta’limning o‘quv-metodik va normativ-huquqiy bazasini

takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2001 yil 16 avgustdag'i 343-sonli qarorni qabul qilgan.

Unga asosan:

1.Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartini asosiy qoidalarga asosan, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti va Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga muvofiq tasdiqlash.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga oliy ta'lim muassasalariga ega bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda:

- ta'lim sohalarining davlat ta'lim standartlarini, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari va fanlar dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ular asosida darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish;

- oliy ta'lim tizimi uchun normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan "Oliy ta'lim to'g'risidagi nizom" va "Oliy ta'lim muassasasining vasiylik kengashi to'g'risida"gi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga zaruriyat bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni muvofiqlashtirish nazarda tutilgan.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartida quyidagi atamalar qo'llaniladi:

**oliy ta'lim** — uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

**bakalavriat** — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'limgan tayanch oliy ta'lim;

**magistratura** — bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

**bakalavr, magistr** — oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar;

**oliy ma'lumot darajasi** — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi;

**oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom)** — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy

ta'limning o'quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzlucksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishslash huquqini beradi;

**oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori** — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati;

**oliy ta'limning davlat ta'lim standarti** — muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiyligi tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi;

**malaka talablari** — uzlucksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiyligi bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar;

o'qitishning me'yoriy muddati — ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va fanlar dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

o'quv fanlari bloki — o'quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi;

**o'quv rejasi** — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

**o'quv fani** — ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi;

**o'quv yili** — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2018/2019 o'quv yili;

**o'quv semestri** — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuuni o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi;

**o'quv fani dasturi** — ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat;

**malaka amaliyoti** — o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va o'quv hosil qilish, o'quv rejalari va

fanlar dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi;

**yakuniy davlat attestatsiyasi** — bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash;

**Klassifikator** — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati. Unda oltita bilim sohasi nazarda tutilgan:

1. Gumanitar soha.
2. Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
3. Ishlab chiqarish va texnik soha.
4. Qishloq va suv xo'jaligi.
5. Sog'lijni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
6. Xizmatlar sohasi.

Klassifikatorda ta'lim bosqichlari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ettita raqamli kod bilan belgilanadi.

|   |   |   |                    |                                 |
|---|---|---|--------------------|---------------------------------|
| X | X | X | XX                 | XX                              |
|   |   |   |                    | Mutaxassislik kodи              |
|   |   |   | Yo'nalish kodи     |                                 |
|   |   |   | Ta'lim sohasi kodи |                                 |
|   |   |   | Bilim sohasi kodи  |                                 |
|   |   |   |                    | Ta'lim dasturlari bosqichi kodи |

### **1-rasm. Klassifikatordagi raqamli kodlarni izohi.<sup>2</sup>**

5233900—“Bank hisobi va audit” yo'nalishini kasbiy faoliyat asoslarida “Bank hisobi, tahlil va audit” fanidan o'tiladigan mavzular va uning soatlariga oid ma'lumotlar fan ishchi dasturida keltirilgan.

<sup>2</sup> Vazirlar Mahkamasining 343- sonli qarori. 2001 yil 16 avgust., Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti.

## **1.2. Iqtisodiyotda bank hisobi, tahlil, auditning o‘zaro va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.**

Iqtisodiyotda bank hisobi, tahlil va audit iqtisodiy termin sifatida hamda bank faoliyatiga ta’siri jihatidan muhim ahamiyatga ega. Ularni har birini alohida ko‘rib chiqamiz va o‘zaro bog‘liqligini ko‘satib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi, "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi, "Elektron to‘lovlari to‘g‘risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida"gi, "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida"gi va "Bank siri to‘g‘risida"gi qonunlariga muvofiq banklar uchun majburiy bo‘lgan buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi belgilangan.

Respublikamizda banklarda buxgalteriya hisobi "O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida"gi yo‘riqnomaga muvofiq tashkil etiladi.

Bank hisobi, tahlil va audit fani banklar faoliyatida quyidagilarni ta’minalashni maqsad qilib qo‘ygan:

- hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to‘g‘ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z vaqtida va aniq aks ettirish;

- bank aktivlari, majburiyatlar, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar to‘plash;

- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;

- bank ish kuni tartibiga qat’iy rioxha qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko‘rsatish;

- hisob-kitoblardagi mablag‘lar aylanishini tezlashtirish;

- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish;

- bankdagi pul mablag‘lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat’iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo‘l qo‘ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;

-operatsiyalarning qonuniyligi hamda to‘g‘riligini doimiy ichki nazorat va auditdan o‘tkazish, ularning natijalari bo‘yicha ma’lumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;

-zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablag‘ sarfini qisqartirish.

“O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida” gi yo‘riqnomada berilgan operatsiyalarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish to‘g‘risidagi talablari barcha banklar uchun majburiydir.

Banklar ushbu yo‘riqnomada belgilangan qoidalar doirasida o‘zlarining ish xususiyatlarini hisobga olgan holda filial, bank xizmatlari ofisi va boshqa shoxobchalar faoliyatida buxgalteriya hisobini aniq va to‘liq yuritilishi va ichki nazorat samaradorligini ta‘minlash maqsadida hamda ularning daromad va xarajatlari hisobini to‘g‘ri yuritish, moliyaviy va soliq hisobotlarini o‘z vaqtida tayyorlash va taqdim qilish hamda pul hisob-kitob hujjatlarini tikish va saqlash tartibotlarini belgilovchi ichki hisob siyosatini ishlab chiqishlari lozim.

Bank xodimlari buxgalteriya hisobida aks ettirilgan bank siriga oid ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi qonuni talablariga qat’iy amal qilgan holda sir saqlashlari shart.

Banklar faoliyatida buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma’lumotlar va ko‘rsatkichlarni tahlil etib borish uning barqarorligini, raqobatbardoshlilagini va istiqbolini belgilaydi. Shuningdek, bank faoliyatidagi salbiy holatlarni aniqlaydi.

Tahlil jarayonida bank faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlар uzluksiz ravishda o‘rganiladi. Tahlil natijasida erishilgan yutuqlarning sabablari, faoliyatning samarali va samarasiz qirralari o‘rganiladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatlari yaratiladi. Tahlil jarayoni faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi, va u bankning likvidliligi, daromadlilagini oshirish va mijozlar ishonchini qozonishga asos bo‘ladi. Har qanday tahlildan maqsad kamchiliklarni aniqlash va ularni tugatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Yuqorida buxgalteriya hisobida aks ettirilgan va tahlil natijasida o‘rganilgan ma’lummotlarni haqiqiyligi hamda qohuhiyligini aniqlashda aydit xizmatidan foydalanamiz. Manbalarga ko‘ra buxgalter-auditor kasbi XVII asrning o‘rtalarida Evropaning aksiyadorlik kompaniyalarida aksiyadorlar, kreditorlar va soliq xizmati xodimlari o‘rtasidagi munozarali

masalalarni etish zarurati tufayli shakllana boshlagan. O'sha paytlarda mustaqil faoliyat ko'rsatib, korxonaning ishlab chiqarish moliya faoliyati to'g'risida aniq xulosa beradigan mutaxassislarga ehtiyoj kuchaygan. Natijada, 1862 yili Angliyada, 1867 yili Fransiyada, 1937 yili esa AQSHda majburiy audit to'g'risidagi qonun qabul qilingan. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'zining tashkiliy huquqiy infratuzilmalariga ega bo'lgan audit institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda auditorlik faoliyati yangi faoliyat turlaridan biri bo'lib 90 yillarning boshida – mustaqillikka erishilgandan so'ng va bozor iqtisodiga o'tishi bilan rivojvana boshladi. Iqtisodiyotning nodavlat sektorida korxonalar vujudga kelishi bilan auditorlik faoliyati xizmatiga talab yuzaga keldi, chunki bozor strukturalari o'zlarining faoliyatlariga mustakil baho berilishiga ehtiyoj sezdilar.

O'zbekistondagi auditorlik faoliyati oldida turgan muhim vazifalardan biri xorijlik xamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasini berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalari tashkil etish hisoblanadi.

Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarininig auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish, professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Tijorat banklari faoliyatiga real baho berish uning faoliyat natijasini tashqaridan kuzatish, omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Bank tizimini bir maromda faoliyat ko'rsatishini, kreditorlar, omonatchilar va mijozlar manfaatini himoya qilish shu bilan birga sog'lom bank faoliyatini tashkil qilishda bank auditining o'rni beqiyosdir.

Demak, ko'rib o'tilgan ma'lumotlar bank hisobi, tahlil va audit iqtisodiy munosabatlarda o'zaro bog'liqligini ko'satmoqda.

Bank hisobi va audit yo'nalishini kasbiy faoliyat asoslardan bakalavriyat talabalari "Bank hisobi, tahlil va audit" fani bo'yicha qo'yidagilarni bilishlari zarur:

- hozirgi zamon rivojlangan iqtisodiyotida mutaxassislikning o'rni va ahamiyati;
- iqtisodiy soha kadrlarini tayyorlashda ijtimoiy fanlarning roli;
- bozor iqtisodiyoti qonunlarini mukammal o'rganish;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va ularning malakasini oshirish;
- o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi.

Mazkur fanni o‘rganish uchun bakalavr iqtisodchi Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarida ko‘zda tutilgan quyidagi fanlar bo‘yicha atroficha bilimlarga ega bo‘lishi lozim: “Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari”, “Iqtisodchilar uchun matematika”, “Amaliy chet tili”, “ Iqtisodiyot nazariyasi” “Mikroiqtisodiyot” va boshqalar. Fan “Audit”, “Moliyaviy tahlil”, “Bank ishi” va “Banklarda buxgalteriya hisobi” fanlari bilan uzviy bog‘liq.

### **1.3. Bank hisobi, tahlil va auditning banklar faoliyatida o‘rni, ahamiyati.**

Bank hisobi, tahlil va auditning banklar faoliyatida o‘rni buxgalteriya hisobining yuritishi, buxgalteriya ishining to‘g‘ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta’minlaydi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni bank filiali (bundan keyingi o‘rinlarda bank deb yuritiladi) rahbari amalga oshiradi. Buxgalteriya apparatiga bankning bosh buxgalteri rahbarlik qiladi. U Bank tizimining bosh buxgalterlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida ish olib boradi. Bosh buxgalter bo‘lmagan vaqtida uning vazifalarini bosh buxgalter o‘ribbosari bajaradi.

Banklarda buxgalteriya ishlarini yuritish uchun buxgalteriya apparati tuziladi. Bank buxgalteriya apparatiga shartnoma asosida chetdan jalb qilingan buxgalterlar yoki buxgalteriya firmasi xodimlarining kiritilishi qat’iyan taqiqlanadi.

Bank buxgalteriya apparatining tashkiliy tuzilishi va unda tashkil etiladigan bo‘limlar soni amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmiga va ularning avtomatlashtirilganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ish hajmi kichik banklarda buxgalteriya apparati bankning yaxlit bo‘linmasi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunda banklararo hisobkitoblar, chet el valyutasi bo‘yicha operatsiyalar va bankning ichki hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarning hisobini yuritish maxsus bo‘limlarga topshirilishi mumkin. Ish hajmi katta banklarda buxgalteriya apparati ushbu Yo‘riqnomalarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. SHuningdek, barcha operatsiyalar mas’ul ijrochi buxgalterlar tomonidan dastlabki va nazoratchi buxgalterlar tomonidan joriy

nazoratdan o‘tishini ta’minlash maqsadida ish hajmidan kelib chiqqan holda mas’ul ijrochi va nazoratchilar soni o‘rtasida mutanosiblik saqlanishi lozim.

Buxgalteriya apparati xodimlarining aniq vazifalari bosh buxgalter tomonidan belgilab beriladi va bank rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Mas’ul ijrochi va nazoratchi buxgalterlar zimmasiga muayyan hisobvaraqlarni yuritish yoki alohida operatsiyalarni amalga oshirish ishlari yuklatiladi. Hisobvaraqlar xodimlar o‘rtasida bank ichki tartib qoidalari asosida operatsiyalar hajmi, mijozlar turi va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda taqsimlanadi.

Bank bosh buxgalteri muhrlar, shtamplar va blanklarni ularning yo‘qolishiga yoki boshqa maqsadlarda ishlatilishiga yo‘l qo‘yilmaydigan tarzda saqlanishi hamda foydalanishi ustidan nazoratni ta’minlashi shart. Bank muhrlari va bur chakli shtamplarining hisobi ularni saqlayotgan shaxs familiyasi va lavozimi ko‘rsatilgan maxsus daftarda yuritiladi. Daftar varaqlari raqamlangan, bog‘langan va bank muhri, bank rahbari hamda bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlangan bo‘lishi va bank rahbarining yozma farmoyishi bilan tayinlangan va qimmatliklar bilan operatsiyalar olib borishdan ozod etilgan shaxs tomonidan yuritilishi lozim.

Bank xodimlarining ish joylari shunday joylashtirilgan bo‘lishi kerakki, bunda mijozlar va boshqa begona shaxslarning bankning muhrlari, shtamplari, hujjatlari va blanklarini olishlariga imkon bo‘lmasligi lozim.

Xodim mehnat ta’tiliga chiqqan, kasal bo‘lib qolgan yoki boshqa sabablarga ko‘ra ishda bo‘lмаган hollarda unga biriktirilgan hisobvaraqlar hamda uning vazifalari muhr va shtamplar bilan birgalikda boshqa xodimga topshiriladi va bu haqda maxsus daftarda tegishli yozuvlar qayd etiladi.

Bosh buxgalter zimmasiga umumiy nazoratni tashkil etish hamda har kuni buxgalteriya va kassa ishlarining barcha bo‘g‘inlarida o‘rnatilgan tartibga amal qilinishini kuzatib borish yuklatiladi. Shuningdek, bank bosh buxgalteriga bosh va yordamchi kitoblarda operatsiyalarni qayd etish, tegishli buxgalteriya hisobi hisobotlarini dasturiy ravishda tuzish ishlariga rahbarlik qilish yuklatiladi. Bank bosh buxgalteri ishda bo‘lмаган vaqtda, ushbu vazifalar bank rahbarining buyrug‘iga ko‘ra uning o‘pinbosapiga topshiriladi.

Mijozlarning bank xodimlarining xatti-harakatlari ustidan shikoyatlari hamda boshqa murojaatlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qabul

qilinadi va ko'rib chiqiladi. Murojaat qilish tartibi e'lonlar osib qo'yish yo'li bilan mijozlarga ma'lum qilinishi lozim.

Bank rahbari buxgalteriya ishi holatini umumiy kuzatish bilan bir qatorda balans va boshqa hisobotlarni o'z vaqtida tuzilishini tekshirib borishi, mijozlarga o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatilishini muntazam nazorat qilib turishi shart. Tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofis sifatida tashkil etilgan banklarning buxgalteriya apparati shu tarkibiy tuzilmalarga mos ravishda tashkil etilishi mumkin.

Bank hisobi, tahlil va audit fanining banklar faoliyatida o'rniva ahamiyatini o'zlashtirishda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- bank amaliyot kuni - bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt;

- bank buxgalteriya apparati - pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini bajarish va ularni ichki nazoratdan o'tkazish hamda hisob registrlarida qayd etish va buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi;

- bank ish kuni - qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqt;

- bank operatsiyalari ichki nazorati (bundan keyingi o'rinlarda ichki nazorat deb yuritiladi) - bank rahbaryati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash tizimi;

- Ichki nazorat ma'lum yoki aniq vaqt mobaynida amal qilinishi lozim bo'lган tartib yoki qoida bo'lmasdan, balki u bankning barcha bo'g'inlarida kunlik bank operatsiyalarning boshlanishidan tortib tugagunga qadar doimiy yuritiladigan bank faoliyatining ajralmas qismidir.

Ichki nazorat o'z navbatida dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazoratga bo'linadi;

- bosh kitob - hisobvaraqlar rejasidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlar ro'yxati;

- buxgalteriya hisobi registrlari - ikkiyoqlama yozuv usulida operatsiyalar qayd etiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlар va tasdiqlangan blanklar;

- Bek-ofis - bankning tarkibiy qismi bo'lib, Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tgan va ijro uchun taqdim qilingan operatsiyalarni

joriy nazoratdan o‘tkazish va bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi buxgalterlar guruhi.

Bek-ofisning asosiy vazifasi Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o‘tkazilib, ma’qullangan barcha bank operatsiyalarini qaytadan joriy nazoratdan o‘tkazib, ularni ikkiyoqlama yozuv yordamida buxgalteriya registrlarida qayd etish va tegishli hisobotlar tayyorlashdan iborat.

Bek-ofis mijozlar bilan bevosita muloqotda bo‘lmaydi. U, mijozlar operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha Front-ofis bilan, bankning ichki moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha bank ma’muriyati bilan aloqada bo‘ladi.

- Bek-ofisga Bek-ofis boshlig‘i rahbarlik qiladi va u o‘z navbatida bank rahbariga bo‘ysunadi;

- dastlabki nazorat - Front-ofis yoki mas’ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarini bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo‘yicha amalga oshiriladigan nazorat;

- yordamchi kitob - bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek alohida mablag‘lar turi va qimmatliklar bo‘yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar;

-joriy nazorat - Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas’ul ijrochi buxgalter ma’qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat. Joriy nazorat pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nuxalarining bir-biriga mosligini tekshirishni ham o‘z ichiga oladi;

-mas’ul ijrochi buxgalter - mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o‘tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter;

-bank xizmatlari ofisi - bank filiali binosidan tashqarida joylashgan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi. Bank xizmatlari ofisi turli xil nomlanishi ("Minibank", "Chakana xizmatlar markazi", "Bank xizmatlari markazi" va boshqalar) mumkin;

- nazoratchi buxgalter - mas’ul ijrochi buxgalter tomonidan dastlabki nazoratdan o‘tkazilgan barcha bank operatsiyalarini joriy nazoratdan o‘tkazib amalga oshiruvchi buxgalter;

-Front-ofis - bankning tarkibiy qismi bo‘lib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bank operatsiyalarini amalga oshirishda bank mijozlari

bilan bevosita muloqotda bo‘lgan holda ularga barcha bank xizmatlari ko‘rsatuvchi xodimlar guruhi. Ushbu guruhga Front-ofis boshlig‘i rahbarlik qiladi.

-Front-ofisning asosiy vazifasi mijozlar topshirig‘i hamda bank ichki faoliyati bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan operatsiyalarining qonunchilikka mos ekanligini aniqlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlashdan iborat;

-yakuniy nazorat - amaliyot kun tugagandan so‘ng, keyingi bank ish kundan kechikmagan holda bankda amalga oshirilgan barcha bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilganligini, shu jumladan birlamchi hujjatlar asosida o‘tkazilganligini tekshirish maqsadida amalga oshiriladigan nazorat;

-Banklar faoliyatini izchil, chuqur va ilmiy asoslangan ravishda uzluksiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta‘minlash muhim iqtisodiy masalalardan bir bo‘lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo‘ladi. Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo‘lgan mablag‘lar va ularning manbalari, o‘z mablag‘lari hamda majburiyatlarini tarkibi, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash masalalari, ushbu mablag‘larni samarali yo‘naltirish, bankning likvidliligi, to‘lov qobiliyatini ta‘minlash asoslari kabilar chuqur o‘rganilishi zarur.

Banklarni audit qilishda asosiy vazifalardan biri moliyaviy faoliyatni va boshqaruv sifatini to‘la tahlil qilish hisoblanadi. Shu bilan birga oxirgi yillarda bank kredit portfeli sifatida o‘zgarishlarni aniqlash bank boshkaruvchilarining likvidlilik, ishonchlilik va daromadlilik ko‘rsatkichlarini ta‘minlash qobiliyatini aniqlashga imkon beradi. Bank moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun bank balansi va balansdan tashqari moddalaridagi aktiv va passivlariga bog‘liq likvidlilik, to‘lov qibiliyati va risklar to‘g‘risida ishonchli ma’lumot berishdan iborat.

Ijobiy audit xulosasi bankka bo‘lgan ishonchni oshirib, uning imidjini oshiradi, mijozlar sonini ko‘paytirib, bank samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Yuqorida qilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, “Bank hisobi, tahlil va audit” fanining banklar faoliyatida ahamiyati juda katta va beqiyos hisoblanadi

## **I-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari.**

1. Bank hisobi, tahlil va audit” fanining predmeti.
2. “Bank hisobi, tahlil va audit” fanining vazifalari.
3. Fanini o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlari.
4. Fanini o‘rganishda foydalaniladigan tahlil usullari.
5. Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti.
6. Oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash klassifikatori.
7. 5233900—“Bank hisobi va audit” ta’lim yo‘nalishi.
8. Fanning Iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligi.
9. “Bank hisobi, tahlil va audit” fani bo‘yicha talabalar bilishlari zarur.
10. “Bank hisobi, tahlil va audit” fanining banklar faoliyatida ahamiyati.
11. Yordamchi kitob - bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar .
12. Bank faoliyatini tahlil etish.
13. Banklarni audit qilishda asosiy vazifalar.

## **II-BOB. BANKNING PAYDO BO‘LISHI VA BANK FAOLIYATINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Reja:**

- 2.1. Dastlabki banklar paydo bo‘lishi va ularni operatsiyalari.**
- 2.2. Tijorat banklarining tashkil topishi va rivojlanishi.**
- 2.3. Banklarning turlari.**

### **2.1. Dastlabki banklarning paydo bo‘lishi va ularning operatsiyalari**

Banklarning vujudga kelishi tovar – pul munosabatlarining asosiy elementlari sifatida, pulning qiymat shakli paydo bo‘lishi bilan bir davrga to‘g‘ri kelgan. Iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklarning vujudga kelishi haqida aniq ma’lumotlar mavjud emas. Ayrim iqtisodchi olimlar banklarni feodalizm davrida vujudga kelganligini ta’kidlashsa, ularning ayrimlari esa kapitalistik tuzumning dastlabki davrlarida paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi. Uchinchi guruh olimlar, banklar faoliyatiga xos bo‘lgan operatsiyalar miloddan ilgarigi davrlarda paydo bo‘lganligini qayd etadilar.

Manbalarga ko‘ra, dastlabki bankirlar kichik – kichik do‘konlarda mahalliy pullarni xorijiy pul birliklariga ma’lum darajadagi to‘lov evaziga almashtirib berishgan. Shuningdek, yirik pul egalarining pullari va tijorat veksellarini tegishli haq evaziga saqlash bilan shug‘ullangan. Keyinchalik banklar vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larni tegishli shartlar asosida jalg‘etib, ushbu mablag‘larga ehtiyoji bo‘lgan shaxslarga ma’lum to‘lov evaziga bera boshlagan.

Bankning kelib chiqish tarixini o‘rgangan bir qator iqtisodchi olimlarning xulosasiga ko‘ra dastlabki banklar Italiyaning Venetsiya va Genuya shaharlarida X asrda paydo bo‘lgan. Shuning uchun ham bank so‘zi italyancha “banco” so‘zidan olinib “stol” degan ma’noni anglatadi. Garchi valyuta ayriboshlash operatsiyalari dastlabki banklarning birinchi operatsiyasi bo‘lsada , hozirgi paytda banklarning jamiyatdagi o‘rni ularning kredit operatsiyalari bilan belgilanadi. Qadimgi Gretsiyada pul almashtiruvchi odamlarni “trapezida” (grekcha-stol), Qadimgi rimda “mensarilar”( lotincha-stol) deb atashgan<sup>3</sup>. 1401-yili turli savdo uyushmalari birlashtirilib, mashhur Muqaddas Grigoriy banki Genuyada ochildi. Bu bank shahar xokimligining ximoyasida bo‘lib, shahar meri

---

<sup>3</sup> “Money, Bank credit and Economic cycles”. JESÚS HUERTA DE SOTO. Second edition 2009. 41-42 pages.

xokimlik lavozimiga o‘tirayotganda bu bankni himoya qilishga qasam ichgan. Chunki bu bank Respublikaning kreditori vazifasini bajargan. 1463-yildan to 1505-yilgacha Rim papasigi bankning qarzdorlarini murtab deb e’lon qilish (cherkovdan chetlashtirish bunday takdirga uchraganlar ko‘p xuquqlardan mahrum bo‘lib, qattiq jazolangan) xuquqi berilgan hamda buning natijasida bankning qarzdorlari bo‘lmagan. Faqtgina 1675-yildagina bu bank jirobankka aylantirildi.

XV asrda Fransiyada tarixda birinchi marta Lombardlar paydo bo‘ldi, ular asosan sudxo‘rlik bilan shug‘ullanganlar. 1848 yillardan esa Prussiyada ham Lombardlar o‘z faoliyatlarini boshlaganlar.

XVI asr oxirlarida va XVII asrning boshlarida Gollandiyada kassirlar pul almashtiruvchilarning faoliyatini bajarardilar. Shuning uchun kassirlik hamda pul almashtiruvchi ixtisosliklari qo‘silib ketish xavfi paydo bo‘ldi va kuchaydi. Shu xavfni oldini olish uchun Amsterdam hukumati 1609-yili Amsterdam jamoatchilik bankini tashkil qildi. Bu bank pul almashtirishda o‘rnatilgan rasmiy foiz stavkasi 5 % bo‘lgan hamda bank ma’lum muddat monopol bo‘lib faoliyat yurgiza boshladi. Ammo 1621-yili pul almashtiruvchi kassirlar faoliyati qaytadan tiklandi, natijada pul almashtiruvchi kassirlar va bank o‘rtasida raqobat kuchaydi. 1641-yili harakatdagi pullarni qiymatini o‘rnatilgan qonuniy narxlarga yaqinlashtirish uchun ba’zi monetalar «yaxshi bank pullari» deb nomlandi. Bank kreditor sifatida “yaxshi” pullardan, pul almashtiruvchi sifatida esa «kassa pullari» deb nomlangan pullardan foydalangan. 1651-yili shahar xukumati pul islohotini amalga oshirdi va harakatga mayda pul birliklari «gulden»lar zarb qilina boshlandi va nihoyat 1681-yili bu bank depozit va jirobank ko‘rinishini oldi. Amstredamning tajribasiga tayangan holda xuddi o‘sha sabablar bilan Gamburg shahrida ham Gamburg Veksel Banki tashkil etildi hamda u 1812-yilgacha faoliyat olib bordi.

Bu banklarda pul almashinuvi asosiy operatsiya bo‘lganligi uchun ularda almashinuv birliklari paydo bo‘la boshladi. Ularning mashhurlari Hamburger-Mark Banco, Bankgeld Surantgeld va boshqalar.

Germaniyalik Ya. Fuggerning (1450-1528) savdo uyi turli xildagi pulli va bank operatsiyalarini bajargan. Ammo bu savdo muassasasi 1637-yili Genuyaliklarga sotib yuborilgan. 1648-yili yirik fransuz savdogarlari Germaniyada birinchi xunarmandlik hamda savdogarlik tijorat bankini tashkil qilishdi. Bu bank “Germen Credit” deb nomlangan.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilar “bancherii” deb atagan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasa va o‘z ishiga mas’uliyasizlik qilsa, u o‘tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «Banco

rotto», yani bankrot deb atashgan. Ya’ni bizga ma’lum bo‘lgan «bankrot» so‘zi ham italyancha “banca” so‘zidan olingan.

Banklar paydo bo‘lishining boshlang‘ich bosqich XVI asrda Florensiya va Venetsiyada tashkil qilingan kichik jirobanklar hisob-lanadi. Keyinchalik shunday banklar Amsterdamda (1605 y.), Gamburgda (1618 y.), Milanda, Nyurnbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o‘z mijozlari-savdogarlarga xizmat qilgan, ular o‘rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borgan. Bu banklar o‘z mijozlarini monetalar tarkibi buzilishi tufayli zarar ko‘rishdan himoya qilgan. Ular hisoblarni ma’lum summadagi qimmatbaho metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishgan. O‘zlari-ning bo‘sh pul mablag‘larini jirobanklar davlatga, shaharlarga, chet el savdogarlariga ssudaga berishgan.

Tarixda birinchi yuzaga kelgan bank Angliya banki hisoblanib, u 1694 yilda aksionerlik banki sifatida tashkil bo‘lgan. Bu bank aksioner-emission bank bo‘lib, unga davlat tomonidan banknotlar chiqarishga ruxsat berilgan. Keyinchalik, sanoat rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil qilinib borgan. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanish ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylani-shining tezlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan. Natural xo‘jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo‘l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mehnatni jalb qilishga olib kelgan. Yollanma mehnat uchun haqning pul shaklida to‘lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylani-shini esa bank tomonidan boshqarilishi zarur edi. Shunday qilib, banklar mablag‘larni yig‘ish va taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqara boshladи. Ssuda kapitalistidan farqli o‘laroq bankir tadbirkor sifatida o‘z ish faoliyatini olib borgan.

Agar sanoat sohasidagi puldor o‘z kapitalini sanoatga, savdogar o‘z mablag‘ini savdoga qo‘ysa, bankir o‘z kapitalini bank ishiga qo‘yadi. Ssuda kapitalisti asosan o‘zining bo‘sh kapitalini qarzga bersa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag‘larga tayanadi. Ssudaga mablag‘ beruvchi puldorning daromadi ssuda foizi bo‘lsa, bankir-ning daromadi bank foydasi hisoblanadi. Banklar korxona, tash-kilot, davlat muassasalari, aholi bo‘sh pullarini jalb qilish orqa-li katta hajmdagi kapitalni o‘z qo‘llarida jamlaydilar va daromad keltiruvchi kapital harakatini boshqarib boradilar. Banklarning yiriklashuvi va ular faoliyatining takomillashuvi ularning maxsus korxonalar – kredit muassasalariga aylanishiga olib keladi.

Shunday qilib, bank faoliyati xalq xo‘jaligi mavjud bo‘lgan bo‘sh mablag‘larni jalb qilish va ssuda kapitalini taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Bank o‘z faoliyati davomida ma’lum daromadga ega bo‘ladi. Bu daromad bank jalb qilgan resurslarga yo‘naltirilgan foiz va joylashtirgan resurslar bo‘yicha oladigan foiz o‘rtasidagi farqdan iborat bo‘ladi.

Kredit tizimi deb kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit insti-tutlar yig‘indisiga aytildi. Kredit tizimi orqali huquqiy va jis-moniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh mablag‘lari yig‘iladi va korxona, tashkilotlarga, aholiga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo‘g‘inlardan iborat bo‘lishi mumkin. Mab-lag‘larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo‘g‘inlari o‘z xususiyatlariga ega bo‘ladi. Juhon amaliyotida kredit tizimi o‘zining tashkil qilinish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- Markaziy bank;
- tijorat banklar;
- maxsus-kredit institutlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki pog‘onali kredit bank tizimi ko‘p mamlakatlar iqtisodining asosi hisoblanadi. Bu Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir.

Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investitsiya banklari;
- jamg‘armalar jalb qiluvchi banklar (O‘zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari;
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha banklar;
- tarmoqlar bo‘yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investitsiya kompaniyalari;
- sug‘urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Kredit tizimida asosiy o‘rinni bank institutlari, bank ins-titutlari tarkibida salmoqli o‘rinni tijorat banklari egallaydi. Tijorat banklari kredit tizimining boshqa bo‘g‘inlariga nisbatan ko‘proq bo‘sh resurslarni jalb qiladi va ko‘p miqdorda mijozlarga kreditlar beradi.

Maxsus ixtisoslashgan kredit institutlari (banklar) tijorat banklari faoliyatini to‘ldiradi va ular iqtisodiyotning kam renta-bellik, kam foydali tarmoqlariga (qishloq xo‘jaligi, uy-joy quri-lish, tadbirkorlikni

rivojlantirish va boshqalar) engil sharoitda kreditlar berish yo‘li bilan ularning faoliyatini rag‘batlantirib, rivojlantirib boradi.

## **2.2. Tijorat banklarining tashkil topishi va rivojlanishi**

Dastlabki banklar qachon va qanday paydo bo‘lganligini aniqlash ancha qiyinchilik tug‘diradi. Gap shundaki, hozirgi davr banklar faoliyati xususiyatidan kelib chiqib turlicha bo‘lgan operatsiyalarni bajaruvchi universal moliyaviy tashkilotlarni o‘zida namoyon qiladi.

Banklar faoliyatining eng “qadimgi” operatsiyalari bo‘lib, pullarni saqlab berish bo‘yicha operatsiyalar hisoblanadi. Ma’lumki, eng qadimgi davlatlarda ham omonatlarni qabul qilish operatsiyalari mavjud bo‘lgan. Ilk bor bunday ish bilan ma’lum obro‘ga va ishonchga ega bo‘lgan puldor shaxslar, Evropa mamlakatlarida cherkov muassasalari shug‘ullanganlar. Masalan, mashhur grek ehromlari (masalan, Delfiya, Efes ehromlari) bir paytning o‘zida o‘ziga xos bank muassasalari bo‘lib xizmat qilgan. Yillar o‘tishi bilan o‘sha qadimgi davrlardan boshlab, ayrim hollarda qo‘yilgan pul yoki mulk bo‘yicha foizlar ham hisoblangan. Banklarning kelib chiqishiga bag‘ishlangan mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, banklarning paydo bo‘lishining asosiy yoki boshlang‘ich zamini birinchidan, pul mablag‘larini saqlab berish bo‘lsa, ikkinchidan, pul mablag‘larini almashtirib berishdan iborat ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

Tarixiy taraqqiyot davomida banklar mablag‘larni yig‘ish, saqlab berish, kredit-hisob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini bajarib kelganliklari sabab, banklar kredit muassasa bo‘lib, foyda olish maqsadida bank barcha risklarni o‘ziga qabul qilgan holda operatsiyalarini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 1-moddasiga asosan “Bank -tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan, ya’ni:

-yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;

-to‘lovlarni amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxsdir.

Demak, bank barcha riskni o‘z zimmasiga olib, yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag‘larini jalb qilib, bank resurslarini tashkil qilgan holda, bu mablag‘larni muddatida qaytarib berish, to‘lov va ta’minalash shartlari asosida o‘z nomidan ularni joylashtiradi hamda yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitob va vositachilik operatsiyalarini olib boruvchi kredit muassasa hisoblanadi.

Ba’zi adabiyotlarda «bank-bu korxona», deb ham izoh beriladi. Ma’lumki, bank yaxlit olingan korxona sifatida ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirmaydi. Tijorat banklarining faoliyatini korxona faoliyatiga shu jihatdan o‘xshatish mumkinki, tijorat banklari ham korxonalar singari o‘z faoliyatini o‘z daromadini ko‘paytirishga qaratadi, lekin korxonalar faoliyatidan farqli ravishda banklar shu asosida birinchidan, o‘z ta’sischilari–aksiyadorlarining manfaatlarini, ikkinchidan, o‘z mijozlarining manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

Tijorat banklariga, bizning fikrimizcha, shunchaki “korxona” emas, balki “maxsus korxona” deb qarash zarur. Chunki tijorat banklari ssuda kapitali harakatini amalga oshiradi va shu asosda bank o‘z aksiyadorlariga, paychilariga foyda olishni ta’minlaydi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu banklarda yig‘iladi va bu banklar xuquqiy, jismoniy shaxslarga o‘z xizmatlarini ko‘rsatadilar.

Bank bu shunday korxonaki, unda xom ashyo bo‘lib depozit va qo‘yilmalar hisoblansa, oxirgi tovar – bu berilgan ssudalardir. Depozit va qo‘yilmalar jalb qilingan qarz mablag‘lari, berilgan ssudalar esa – joylashtirilgan mablag‘lar bo‘lib hisoblanadi.

Har xil jismoniy shaxslar va tashkilotlardan pul mablag‘larini jalb qilish uchun, qarz hajmiga qarab ma’lum summani foizlar shaklida to‘lash kerak. Bo‘lmasa mablag‘ qo‘yuvchilar yoki boshqa bankni tanlaydilar, yoki pul saqlashni boshqa shakllariga o‘tadilar: masalan, oltin yoki valyuta sotib olish, boshqa moliyaviy vositachilar xizmatlaridan foydalanish va boshqalar. Pul saqlash shaklini tanlashda mablag‘ qo‘yuvchini ikkita muhim omil - moliyaviy vositachilarning ishonchli ekanligi va daromad olish darajasi (qarzga to‘lanadigan foizlar) ko‘proq qiziqtiradi.

Boshqa tomondan, bank ssuda berganda uning summasiga qarab foiz shaklida to‘lov undiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining bozor munosabatlari sub’ektlari bilan aloqasi yanada kengayadi va chuqurlashadi. Bank bu holda barcha mablag‘lari harakatini boshqarib boradi.

Bu ikkita foiz stavkalari o‘rtasida farq - bank daromadining asosiy manbasi bo‘lib, iqtisodiy adabiyotlarda u “marja” nomi bilan yuritiladi.

Shunday qilib, marja - bu jalb qilinuvchi va joylashtirila- digan qarz va ssuda foiz stavkalari o‘rtasidagi farqdir.

Banklar mablag‘larni jalb qilish va joylashtirish yo‘li bilan barcha pul mablag‘lari harakatini boshqarib boradi.

Bankning asosiy faoliyati vositachilik bilan bog‘liq bo‘lib, u pul mablag‘larni qarz beruvchidan qarz oluvchilarga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni bajarishdan iborat. Banklar bilan bir qatorda pul mablag‘lari harakatini boshqa moliyaviy va kredit tashkilotlari, investitsion fondlar, sug‘urta kompaniyalari ham amalga oshiradilar. Biroq, bankning moliyaviy risklarning sub’ekti sifatida yuqorida keltirilgan boshqa sub’ektlar faoliyatidan farq qiladigan ikkita o‘ziga xos xususiyati mavjud:

-birinchidan, banklar faqat ular uchun xos bo‘lgan qarz majburiyatlarini (depozitlar, omonat sertifikatlari va boshqalar) chiqaradilar va bu yo‘l bilan yig‘ilgan mablag‘larni boshqa sub’ektlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar va qarz majburiyatlariga joylashtiradilar. Bankning bu xususiyati moliyaviy broker va dillerlar faoliyatidan farq qiladi, chunki ular moliya bozorida o‘z qarz majburiyatlarini chiqarmasdan faoliyat ko‘rsatadilar.

-ikkinchidan, banklar jismoniy va yuridik shaxslar oldida mijozlarning pul mablag‘larini hisob varaqlariga qo‘yish va jamg‘arma o‘tkazish, depozit sertifikatlarini chiqarish va boshqalar orqali qat’iy belgilangan qarz majburiyatlarini oladilar. Qat’iy belgilangan qarz majburiyatlar bilan faoliyat ko‘rsatish banklar uchun riskli hisoblanadi, chunki banklar o‘z kreditorlari oldida olgan majburiyatlarini to‘liq bajarishlari lozim. Investitsion fondlar esa o‘z aktivlari va passivlarining qiymati o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarni o‘z aksiyadorlari zimmasiga yuklaydilar.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tashkil etish va ularning faoliyatini olib borish “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga asoslanadi. Yuqorida qayd etilgan qonunga asosan O‘zbekiston Respublikasida banklar universal faoliyatni amalga oshiradilar. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, turli xilda kreditlar berish, qimmatli qog‘ozlar va xorijiy valyuta oldi-sotdisi bilan shug‘ullanish, bo‘s sh turgan pul mablag‘larni jalg etish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, kafolat va garantiyalar berish va hokazolar tijorat banking asosiy faoliyat turlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy banklar va har qanday mulkchilik shakliga asoslangan banklar faoliyat ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari va ularning mulkchilik shakli turli mulkchilikka asoslangandir.

Hozirgi kunda Respublifmizda 29 ta tijorat banklar faoliyat yuritmoqda. Ular to‘g‘risidagi bat afsil ma’lumotlar 2-ilovada keltirilgan.

### **2.3. Banklarning turlari.**

Bozor iqtisodiyotini rivojlanishi turli mulkchilik shakllarining rivojlanishiga, moliyaviy mablag‘larning alohida moliyaviy muassasalar ixtiyorida markazlashuviga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ayrim banklarning milliylashtirilishi yuz berdi. Bu o‘z navbatida banklarning mulkiy, huquqiy, funksiyasi, tabiatи va boshqa qator mezonlari bo‘yicha tavsiflanishiga sabab bo‘ldi. Zamonaviy iqtisodiyotda banklar quyidagi mezonlar bo‘yicha tavsiflanadi. Mulkiy jihatdan – davlat banki, aksiyadorlik banki, kooperativ bank, xususiy va xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma banklariga bo‘linadi. Banklarni mulkchilik nuqtasi nazardan tasniflanganda asosan ularning ustav kapitali tarkibida kimning ulushi 51 foizdan yuqori bo‘lsa, bank shu shaxslarning nomlarini oladi.

Masalan, bank kapitalining asosiy ulushi xususiy yoki kooperativ tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelsa, mazkur banklar xususiy yoki kooperativ bank deya yuritiladi. Davlat banklari kapitalining asosiy ulushi davlatga tegishli bo‘ladi, ko‘pchilik mamlakatlarda mamlakat Markaziy banklari davlat banki hisoblanadi. O‘zbekistonda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat – aksiyadorlik Xalq banki, aksiyadorlik tijorat “Asaka” banklarning kapitali tarkibida asosiy ulush davlatga tegishli bo‘lganligi bois mazkur banklar davlat banklari hisoblanadi. Mamlakatimizda aksiyadorlik tijorat banklari sifatida, aksiyadorlik tijorat “Agrobank”ni, Aloqabank, Turonbank va boshqalarni keltirish mumkin. Mamlakatimizda yopiq turdagи aksiyadorlik tijorat banklari mavjud emas.

Xorijiy kapital ishtirokida qo‘shma banklar mamlakat qonunchiligiga asosan belgilangan miqdordagi ustav kapitali xorijiy ishtirokchilar tomonidan shakllantirilsa mazkur banklar shu maqomga ega bo‘ladi. Mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi banklarni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Huquqiy jihatdan – banklar ochiq va yopiq turdagи jamiyatlar sifatida tasniflanadi. Banklarning kapitalini asosiy ulushi yuridik shaxslar hissasiga to‘g‘ri keladi, ushbu banklar ochiq aksiyadorlik yoki yopiq aksiyadorlik banklari bo‘lishi mumkin. Ochiq yoki yopiq aksiyadorlik banklari deyilishiga sabab ularning aksiyalarini sotish va sotib olish jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Qatnashchilari o‘zlariga tegishli aksiyalarini o‘zga aksiyadorlarning roziligesiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo‘lgan aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi.

Aksiyalari faqat o‘z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Mamlakatimizda mulkiy jihatdan tashkil topishidan qa’tiy nazar, faoliyat yuritayotgan barcha banklar ochiq aksiyadorlik banklari hisoblanadi.

Banklar bajaradigan funksiyasi (operatsiyalari) jihatidan –emission, tijorat, investitsion, ipotekali va jamg‘arma banklar sifatida tasniflanadi. Emission banklar mamlakat iqtisodiyotiga pullarni emissiya qilish, shuningdek, kredit muassasalari faoliyatini tartibga solish va pul – kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug‘ullanadi. Bunday vazifani hozirgi paytda mamlakat Markaziy banklari bajaradi. Markaziy banklar bevosita mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatmaydi va tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishi ta’qilanganadi.

Tijorat banklari mamlakat bank tizimi va kredit muassasalari tarkibidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan moliyaviy muassasalar hisoblanadi. Ushbu banklar banklar bajarishi mumkin bo‘lgan barcha operatsiyalarni bajaradi.

Investitsion banklarning asosiy faoliyati passiv operatsiyalari natijasida shakllantirgan moliyaviy mablag‘larini asosiy ulushini qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan iborat bo‘ladi. Mamlakatda investitsion banklar faoliyat yuritishi uchun qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlangan va etarli darajada investitsion muhit yaratilgan bo‘lishi lozim.

Ipoteka banklari jismoniy va yuridik shaxslarga garov asosida uzoq muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullanadi. Ipoteka atamasi ko‘chmas mulklarni garovga qo‘yish natijasida vujudga keladigan moliyaviy munosabat bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri garovga qo‘yilgan ko‘chmas mulk kredit (qarz) oluvchining tasarrufida qolishidir. Odadta ipoteka banklari faoliyatining asosiy yo‘nalishini ipoteka krediti berishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Biroq, amaliyotda ushbu qoida doimo ham o‘zining isbotini topmaydi, chunki hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan ipoteka banklari kredit portfeli tarkibida nafaqat ipoteka krediti, balki boshqa maqsadlarga yo‘naltirilgan kreditlarning hajmi salmoqli ulushni tashkil etadi.

Jamg‘arma banklarining asosiy mijozlari jismoniy shaxslar bo‘lib, ushbu banklarning asosiy faoliyati aholidan muddatli omonatlarni jalb qilishga qaratilgan bo‘ladi. Jamg‘arma sifatida shakllantirilgan mablag‘larni yirik tijorat banklariga, savdo va qurilish tashkilotlariga investitsiya va kreditlar ko‘rinishida joylashtiradi.

Banklar bajaradigan operatsiyalarining tabiatini jihatidan –universal va ixtisoslashgan banklarga bo‘linadi. Universal banklar banklar bajaradigan barcha operatsiyalarni bajaradi. Bunga misol sifatida tijorat banklarini keltirish mumkin. Ixtisoslashgan banklar esa iqtisodiyotning ma’lum tarmog‘iga xizmat ko‘rsatish va shu tarmoqni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida qator ixtisoslashgan banklar (O‘zmevasabzavot, Zaminbank, Engilsanaot, G‘allabank, Paxtabank) tashkil etildi. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va bozor munosabatlarining chuqurlashuvi natijasida ushbu banklar universal banklarga aylantirilib, bir – biriga qo‘sib yuborildi yoki universal tijorat banklariga aylantirildi.

Shuningdek, ixtisoslashgan banklar, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni bajarish, investitsion faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin. Biroq mamlakatimizda, alohida tarmoqqa xizmat ko‘rsatadigan yoki operatsiyalarni bajaradigan ixtisoslashgan banklar mavjud emas.

Shu bilan birga banklarning faoliyati xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlari, filiallarining soni, xizmat ko‘rsatish doirasi, kapitalining hajmi nuqtai nazaridan ham tasnifланади.

Xizmat ko‘rsatadigan tarmoqlari bo‘yicha – banklarning faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ayrim banklar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xizmat ko‘rsatadi. Jumladan, avtomobilsozlik, neft sanoati, qurilish va boshqa sohalar. Masalan, mamlakatimiz Sanoatqurilishbanki ko‘plab tarmoqlarga xizmat ko‘rsatadi, biroq asosiy faoliyati og‘ir sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan. Shuningdek, Agrobankning asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi korxonalariga, Asakabank mashinasozlik sohasiga va hokazo.

Filiallarining soni bo‘yicha – ayrim banklarda filiallar umuman mavjud emas, ayrimlarida esa mamlakatning barcha hududlarida filiallari mavjud. Mamlakatimizda bunday banklar sirasiga Agrobank, Xalqbank, Mikrokreditbanklarni kiritish mumkin. Ushbu banklarning mamlakatimiz tumanlarining deyarli barchasida o‘z filiallari faoliyat yuritadi. Banklarning filiallari yuridik shaxs sifatida barcha huquq va majburiyatlarga ega bo‘lmaydi, ular tegishli nizom asosida bosh bank tomonidan berilgan chegaralangan huquq va majburiyatlar doirasida faoliyat yuritadi.

Xizmat ko‘rsatish doirasi bo‘yicha – banklar ma’lum hududga, hududlararo, xalqaro darajada mijozlarga xizmat ko‘rsatishi e’tiborga olinadi. Buning uchun banklar Markaziy bankning tegishli litsenziyalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Masalan, mamlakatimizda Markaziy bankning

tegishli talablarni bajargan tijorat banklariga milliy valyutada va xorijiy valyutalarda faoliyat yuritishi uchun alohida – alohida litsenziyalar beradi.

Kapitalining hajmi bo‘yicha – banklar kichik, o‘rta va yirik tijorat banklarga guruhanadi. Masalan, mamlakatimiz barcha banklari ustav kapitalining 40 foizdan ortig‘i TIF Milliy banki hisasiga to‘g‘ri keladi, yoki mamlakatimizda beshta yirik bankning (TIF Milliy banki, Sanoatqurilishbank, Agrobank, Asakabank, Ipotekabank) kapitali jami banklar kapitalining 85 – 90 foizini tashkil etadi.

Yakuniy so‘z sifatida ta’kidlash mumkinki, banklarning turlarini ko‘p qirraligi, ularning bajaradigan operatsiyalarining sonini ortib borishi jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bularning barchasi tegishli qonun, qoida, tartib va mexanizmlar asosida tartibga solib boriladi.

## **II-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Dastlabki banklarning kelib chiqishi.
2. Bankning kelib chiqish tarixini o‘rgangan iqtisodchi olimlar.
3. Banklarning dastlabki operatsiyalari.
4. Kredit tizimi.
5. Bank tizimi.
6. Nobank kredit tashkilotlari.
7. Banklarning turlari.
8. Tijorat banklarini tashkiliy asoslari.
9. Tijorat banklarning vazifalari.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni.

### **III-BOB. BANK TIZIMI VA UNING POG'ONALARI**

**Reja:**

- 3.1. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning shakllanishi.**
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va banklar faoliyatining huquqiy asoslari.**
- 3.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki maqsadi, vazifalari va funksiyalari.**

#### **3.1. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning shakllanishi.**

Bank tizimi bozor iqtisodiyotining muhim va ajralmas qismidir. Tovar pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyatlар ochib beradi.

Shuning uchun ham, respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablari-ga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug‘ildi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining bosh maqsadi jahon tala-biga mos keluvchi, rivojlangan milliy kredit tizimiga ega bo‘lish, xo‘jaliklar va aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilish va uni samarali taqsimlash asosida aholining talablarini qondirish uchun zamin yaratish va yashash sharoitini yaxshilashga erishishdan iborat. Bu maqsadga erishishni taminlash uchun davlatimiz tomonidan mamlakatimiz bank sektorining rivojlanishini ta’minlovchi zaruriy makroiqtisodiy sharoitlarni hamda bank tizimi barqarorligini ta’minalash, shuningdek, bank nazorati tizimini va banklar faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish, banklarning depozit, kredit, va investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish va banklar o‘rtasida raqobat bo‘lishini ta’minalashga asos yaratishdan, nobank tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, moliya-kredit sektorining huquqiy bazasini yaxshilash, ularning moddiy-texnik jihatdan samarali taminlanganligiga erishish kabi choralarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bank tizimini qayta tashkil qilishni amalga oshirish quyidagi tamoyillarga acoqlangan holda olib borilishi mumkin:

- xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish;
- Bank tizimidagi islohotlar umumiqtisodiy islohotlarning o‘tkazilishi bilan mos kelishi;
- bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo‘li bilan jahon bank tizimiga yaqinlashtirish;
- pul-kredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehtiyoj-lari va iqtisodiyotning xususiyatini hisobga olish;

– banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun qo‘yish va boshqalar.

Bizning zaminimizda mavjud bo‘lgan banklarning rivojlanishini ikki yirik davrga bo‘lib qarash mumkin. Birinchi davr bu –O‘zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo‘lgan davrdagi bank tizimi va ikkinchi davr O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Biz ta’kidlaganimizdek, O‘zbekistonda bank tizimi ikki pog‘ona-li bo‘lib, banklar tizimining birinchi pog‘onasi – bu O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ikkinchi pog‘onasi – tijorat banklari hisoblanadi.

Butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingan bozor iqtisodiyoti bizning respublikamizga mustaqillik bilan kirib keldi. Shuning uchun respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug‘ildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar bo‘lgan bank tizimining rivojlanishini tahlil qilib qaraydigan bo‘lsak, uning rivojlanishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

– birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930-32 yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr ichida oldingi mavjud bo‘lgan banklar zaminida Sobiq Sovet Ittifoqining kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda 30-yillarda iqtisodning rivojlanishiga mos keluvchi banklar: tarmoq banklari, o‘lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko‘rsatgan;

– ikkinchi bosqich 1932 yildan 1959 yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda banklar faoliyatida o‘zgarishlar yuz berdi va banklar veksel orqali kreditlashdan (o‘scha davrlarda bu kreditlash amaliyotda «egri» kreditlash deb nom olgan) to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonalarni kreditlashga o‘tkazilgan. Bu davrda xo‘jaliklar o‘rtasidagi vazifalar taqsimlangan va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha banklar tashkil qilingan hamda bu banklar faqat shu sohalarni uzoq muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug‘ullangan. Davlat banki esa asosan qisqa muddatli kreditlash jarayonlarini olib borgan;

– uchinchi bosqich 1959 yildan 1988 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qili-nib, mamlakatdagi barcha kredit munosabatlarini olib borish maqsadida uchta bank tashkil qilindi. Bular: Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki bo‘lgan. Davlat banki iqtisodiyotning barcha sohalariga faqat qishloq xo‘jaligining ba’zi ehtiyojlari uchun uzoq muddatli kreditlar berilgan) qisqa muddatli kreditlar berish bilan shug‘ullangan. Qurilish banki kapital

qo‘yilmalar bilan bogg‘liq bo‘lgan xarajatlarni, qurilishni moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar berish bilan bog‘liq operatsiyalarni bajargan. Tashqi savdo banki Moskvada joylashgan bo‘lib, mamlakatning eksport-import bilan bog‘liq faoliyatini boshqarib borgan;

– to‘rtinchi bosqich bank tizimini qayta tashkil qilish davri bo‘lib, u 1988 yildan 1990 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Bu davrda bank tizimida katta o‘zgarishlap ro‘y berdi va Davlat banki bilan bir qatorda maxsus tarmoq banklari tashkil qilindi.

Bu banklar jumlasiga, Sanoat Qurilish banki, Agrosanoat banki, Uyjoy qurilish va ijtimoiy ta’midot banki, jamg‘arma bank va tashqi iqtisodiy faoliyat banki kabilar kiradi. Bu banklar faoliyatining xususiyatli tomoni shunda ediki, ular o‘zi xizmat ko‘rsatadigan sohaga uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish huquqiga ega edilar.

Shu davrdan boshlab Davlat bankidan kreditlash funksiyasi olib tashlandi va u emission bank sifatida faoliyat ko‘rsatadigan bo‘ldi. 90-yillarda bank tizimini qayta tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakatda yuz berayotgan asosiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda banklar zimmasiga korxonalar va tashkilotlarga kompleks xizmat ko‘rsatishni ta’minalash va korxonalar bilan banklar o‘rtasidagi munosabatlarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish, quyi bank muassasalari-ning huquq va majburiyatlarini oshirishdan iborat edi.

Mustaqillikka erishgunga qadar O‘zbekiston hududidagi bank muassasalari SSSR bank tizimi tarkibiy qismiga kirar edi. Shu bilan birga bu banklar sobiq «Ittifoq» bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko‘rsata olmasdilar. Sobiq SSSR bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida emis-siya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish va xo‘jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi markaz hisob-lanardi. Davlat bankining ham emissiya funksiyalarini ham hisob-kitoblar va 90-yillargacha kreditlar bo‘yicha mijozlarga xizmat ko‘rsatish funksiyalarini bajarishga mononollashuvi uni davlat boshqaruv va nazorat organiga aylangan edi.

Ma’muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda normal xarakterga ega. Davlat banki kredit resurslari bo‘yicha cheklanmagan monopol mavqega ega edi. Kredit resurslari harakatini ham boshqarish ham nazorat qilish Davlat bankining monopol ta’siri ostida edi. Rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga xos barcha xususiyatlarining inkor etilishi, sobiq “Ittifoq” bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keladi.

Markazlashtirilgan bank tizimi boshqaruv asosida faoliyat ko'rsatayotgan respublika banklar tor doirada pul resurslari haraka-tini boshqarar, lekin resurslarni taqsimlash, emission jarayonlarni amalga oshirish va nazorat qilish sobiq "Ittifoq" Davlat banki qo'lida edi.

Iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan usulidan voz kechish va bozor iqtisodiyoti tomon dastlabki qadamlar qo'yilishi bilanoq markazlashtirilgan bank tizimini qator kamchiliklari ro'yobga chiqdi. Bu esa bank tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etardi. Albatta, bu bozor iqtisodiyotiga ilk qadamlar qayta qurish sharofati bilan bozorga xos ba'zi bir belgilarni totalitar iqtisodiyotga tatbiq etilishi bilan tushuniladi. Bu jarayonda bank tizimining tashkiliy strukturasini o'zgartirish, banklarning rolini oshirish, iqtisodiy tizimni rivojlanishiga ularning ta'sirini kuchaytirish, kreditni harakatdagi iqtisodiy dastakka aylantirish ko'zda tutilgandi.

Bank tizimi rivojlanishining ikkinchi davri asosan O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu davrni quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilishimiz mumkin.

Mustaqil O'zbekiston bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichi. Bu 1991-1994 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda 1992 yilning sentyabrgacha O'zbekiston davlat banki sobiq SSSR Davlat bankining respublika bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatdi va u kredit resurslarni davlat korxonalari miqyosida taqsimlash, emission operatsiyalarini olib borish bilan shug'ullandi. Qolgan tarmoq bank-lar ham davlat mulkiga asoslangan edi.

O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimini tashkil qilishga 1988 yildan boshlab kirishilgan bo'lsa-da, bu maqsadning to'liq amalga oshirilishiga sharoit 1994 yildan boshlab yuzaga keldi. Bu davrga kelib Markaziy bankning tashkiliy tarkibiy asosi, faoliyat olib borish uslubi o'zgardi, tijorat banklarning soni va ular bajara-digan operatsiyalar salmog'i oshib bordi.

Bank tizimini tashkil qilishning birinchi bosqichida markazlashgan rejulashtirishda Markaziy bankning mavqeい hali ham yuqori edi, sohalarning deyarli hamma qismi davlat tasarrufida edi.

O'zbekiston Respublikasida ikki bosqichli bank tizimining tashkil etilishi tamal toshi 1991 yil 15 fevraldagи "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonun hisoblanadi. Bu qonunga binoan davlat boshqaruv organlari respublika Markaziy banki faoliyatiga aralashmasliklari kerak, u faqat Respublika Oliy Majlisiga hisobot berish o'rini ekanligi belgilab

berildi. Bu qonunni amalga tatbiq etish asosan Respublikamiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kirit-ganidan so‘ng boshlandi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘lini tanlanganligi bois, birinchi bosqichdagi pul-kredit siyosati sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- Markaziy bank boshchiligidagi keng tarmoqli tijorat va xususiy banklarni ikki bosqichli bank tizimi shaklida vujudga keltirish;
- Respublika hududida yirik chet el banklarining bo‘limlari va vakolatxonalarini ochish uchun qulay sharoit yaratish;
- Barqaror pul muomalasini ta’minalash, kredit va naqd pul emissiyasini, asossiz o‘sishini keskin cheklash;
- O‘zbekiston Respublikasining milliy pulini muomalaga kiritish uchun zarur iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar hamda imkoniyatlarni yaratish va boshqalar.

Qayta tashkil etish jarayonining birinchi bosqichida davlat banklarini yangi strukturasini tashkil etish boshlandi. Qayta tashkil etish modeli quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- ikki bosqichli bank tizimini vujudga keltirish: Markaziy emission bank va bevosita xo‘jaliklarga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan banklarni tashkil qilish;
- ixtisoslashgan banklarni to‘laligicha xo‘jalik hisobiga va o‘z-o‘zini moliyalashga o‘tkazish;
- iqtisodiy tizim doirasida huquqiy va jismoniy shaxslar bilan bo‘ladigan kredit munosabatlari uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalar.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o‘zining kredit tizimidagi markaziy o‘rnini saqlab qolgan holda korxona va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitob-larni olib berish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshiradi, ya’ni bankning emission faoliyati, kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo‘yildi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul-kredit siyosatini olib boruvchi muassasalarga aylanadi.

Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat Qurilish banki, Kommunal Qurilish va ijtimoiy taraqqiyot banki, Agrarsanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg‘arma banki xo‘jaliklar bilan banklar o‘rtasidagi aloqalarni tobora yaqinlashtirishda ixtisoslashtirilgan davlat banklari o‘zlarida ma’lum darajada boshqaruvchilik mavqeini saqlab qoladilar. Bank tizimini

takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarining xususiyatlarini to‘liq ifoda qilolmasdi. SHuning uchun ham, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bank tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi ob’ektiv zaruriyatga aylandi.

O‘zbekistonda bank tizimini tashkil qilishning ikkinchi bosqichi 1994 yildan keyingi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bank tizimining takomillashgan faoliyatini belgilab beruvchi bank qonunlari: 1995 yil 21 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi va 1996 yil 25 aprelda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilingan. Hozirgi kunda ushbu qonunlarga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritildi. Ya’ni: 2019 yil 11 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi va 2019 yil 5 noyabrda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar amal qilmoqda. Bu qonunlarga asosan banklar faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi va ularning ishslash usullarini boshqarish, takomillashtirish choralari ishlab chiqildi.

Tijorat banklarining samarali faoliyatini ta’minalash maqsadida bank nazorati va monitoringini amalga oshirish, tijorat banklari faoliyatini boshqarish usullarini takomillashtirish va xalqaro talablarga moslash, yangi schetlar tizimiga o‘tish, chet el banklarining sho‘balarini ochish, to‘lov tizimini takomillashti-rish, tijorat banklarining qimmatbaho qog‘ozlar bilan operatsiya-larini rivojlanlantirish, pul va valyuta bozorida banklarning aktiv faoliyatini ta’minalash kabi dolzarb masalalar hozirgi kunda mustaqil bank tizimining rivojlanishi tufayli o‘z yechimini topmoqda.

### **3.2. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va banklar faoliyatining huquqiy asoslari.**

Respublikamizda ikki pog‘onali bank tizimini jahon tajribasida qabul qilingan tamoyillarga muvofiq shakllantirish ko‘zda tutilgan. Ixtisoslashish va kredit-investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlash Respublikamizdagi bank muassasalarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ularning faoliyati asosan ustuvor tarmoqlar qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, uy-joy qurilishi, avtomobilsozlik savdo va boshqa sohalarni rivojlanishiga qaratilgan. Hozirgi banklar aksiyador-tijorat banklari sifatida tashkil qilinib, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishslashga moslashgan va ular ixtisos-lashgan banklar bo‘lsa-da, boshqa tarmoqlardagi mijozlarga ham kredit va hisob-kitoblar bo‘yicha xizmat ko‘rsatishlari mumkin. Banklar faoliyatining

universallashuvi ular o'rtasida raqobatning yuzaga kelishiga, bu esa ularning bozor iqtisodiyotiga barqaror kirib borishini ta'minlaydi.

Hozirgi zamonda jahonda umum qabul qilingan tizim bo'lib ikki pog'onali bank tizimi xizmat qiladi va u davlat Markaziy banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Markaziy Bank banklarning banki sifatida bank va moliya muassasalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya institutlari, banklarning faoliyatida moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelganida, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda moliyaviy sarosima paydo bo'lishining oldini olishi kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog'ona - tijorat banklari tizimiga nisbatan bajaradi. Markaziy bank majburiyatiga tijorat banklarining har kunlik faoliyatiga aralashish kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarning me'yoriy boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidliligini ta'minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishi kerak. Bularning barchasi nazorat me'yorlari tizimi yordamida amalga oshirilib tijorat banklari pog'onasiga etkaziladi.

Markaziy bank pul siyosatini o'tkazish yo'li bilan muomaladagi pul massasi ustidan nazoratni amalga oshiradi va inflyasiya, ishsizlikning past darajasini ta'minlash va iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratishi kerak. Bunda Markaziy bank emission bank vazifasini bajaradi, ya'ni muomalaga pul belgilarini chiqarish va ularni muomaladan olish huquqiga ega bo'ladi.

Markaziy bank yana tijorat banklari o'rtasidagi hisob-kitoblarni olib borishga imkoniyat yaratadi.

Bank tizimining ikkinchi pog'onasi - bu xalq xo'jaligi va aholiga xizmat ko'rsatishda bosh bo'g'in bo'lgan mustaqil tijorat banklarning tarmog'idir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida turli hisob-kitob va kredit operatsiyalarini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish hamda boshqa turli bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiradilar.

Markaziy bank mazkur tizimning bosh banki bo'lib, pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi va milliy pulning barqarorligini ta'minlovchi muassasa hisoblanadi.

Markaziy bank maqomi va maqsadlari "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risida" gi O'onunning 3-moddasida belgilangan: "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs bo'lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston

Respublikasi Markaziy banki - iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa, o‘z xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega.”

O‘onunning 5-moddasida “Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari” deb qayd qilinadi. Narxlarning barqarorligini ta’minlash va milliy pul birligini xorijiy valyuta bozorlarida ayirboshlash kursining barqaror bo‘lishiga erishishni ko‘zda tutuvchi bu maqsad davlatning iqtisodiy siyosatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o‘rni juda muhim ekanligini belgilaydi.

Mustaqil bank tizimini vujudga keltirishning ikkinchi bosqichining xususiyatlaridan biri shundaki, 1995 yildan boshlab O‘zbekistonda maxsus nobank kredit tashkilotlari tashkil qilina boshlandi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtirish, korxona va tash-kilotlar faoliyatini rivojlatirish maqsadida maxsus moliya-kredit institutlari – “Madad” sug‘urta kompaniyasi, “O‘zbekinvest” milliy sug‘urta kompaniyasi, xususiy lashtirish investitsion fondlari va boshqalar tashkil qilinishi respublika bank-moliya tizimining rivojlanishini tezlashtirmoqda.

Hozirda respublikadagi keng tarmoqli banklar zamonaviy talab-larga javob beradigan shaklda xo‘jaliklar, tashkilotlar va aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Tarixiy taraqqiyot davomida banklar mablag‘larni yig‘ish, saqlab berish, kredit-hisob va boshqa turli xil vositachilik operatsiyalarini bajarib kelganliklari sabab, banklar kredit muassasa bo‘lib, foyda olish maqsadida bank barcha risklarni o‘ziga qabul qilgan holda operatsiyalarini amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrda qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunining 3-moddasiga asosan “Bank-tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs hisoblanadi”.

Mamlakatimizda bank tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, unda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, kapitallashuv va likvidlikni oshirish borasida olnb borilayotgan islohotlar samarasi natijasida bir qator ijobjiy natijalarga ernshnldi. Ayniqsa, ko‘plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti va moliya bozorlarini tahlikali holatga keltirgan jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida respublikamiz bank-moliya tizimida kuzatilgan barqaror iqtisodiy natijalar, shu jumladan, tijorat banklar tizimini kapitallashuvi va likvidligining saqlab qolinishiga amalga oshirilgan islohotlarning amaliy natijasi sifatida qarash mumkin. Ma’lumki, jadal islohotlarni amalga oshirish sharoitida respublika moliya-bank tizimining muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan tijorat banklarni samarali va barqaror faoliyat yuritishi mamlakat

iqtisodiyotini yanada taraqqiy etishiga va uning pul-kredit siyosatini samarali tashkil etish hamda rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 iyundagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va kapitallashuvi darajasini oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3066 qarorida iqtisodiyotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi tijorat banklari boshqaruva tizimini davr talablariga mos ravishda olib borish va tijorat banklar faoliyati barqarorligini jahon standartlari talablariga to‘liq javob berishini talab etmoqda.

Jahonda tijorat banklari barqarorligini samarali boshqarish mexanizmini takomillashtirishga oid muammolarni ilmiy asosda hal etish yuzasidan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda, jumladan, banklarning kapitallashuv va likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmini takomillashtirish, har toifadagi risk darajasini pasaytirish masalalariga e’tiborni kuchaytirilmoqda. Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minalash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazoratining zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish kabi tadbirlar tijorat banklari amaliyotida samarali boshqaruva tizimini qo’llashning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar sifatida asosan tijorat banklar faoliyatining barqarorligini ta’minalash va rivojlantirishga e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasini yaqin besh yilda barqaror taraqqiy etishida Harakatlar strategiyasi bank tizimi uchun yangi rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o‘tkazilayotgan islohotlar tufayli sohada sezilarli darajadagi o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

### **3.3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki maqsadi, vazifalari va funksiyalari.**

Markaziy bankning vazifalari va funksiyalari to‘g‘risidagi fikrlar O‘zbekiston Markaziy bankiga ham tegishlidir. Bu paragrafda biz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining ba’zi bir xususiyatli tomonlari to‘g‘irisida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston Rsspublikasida Markaziy bankning asosiy maqsadi pul-kredit tizimi va milliy valyuta barqarorligini ta’minlash asosida iqtisodiy o‘sishga erishishdan iborat.

Pul-kredit siyosatini samarali amalga oshirish uchun Markaziy bank pul-kredit siyosatini rivojlantirishning bir yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi. Bu yo‘nalishlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangandan keyin harakat dasturi sifatida qabul qilinadi. Markaziy bankning vazifalari xilma-xil bo‘lib, bu qonunda aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huquqiy shaxs sifatida, davlat mulkiga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa sifatida o‘z xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplashi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘z miqyosi va faoliyat darajasiga ko‘ra respublikamizdagi eng yirik bank hisoblanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2019 yil 11 noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonun asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu qonunning 5-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy maqsadlari milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashdir. Valyuta barqarorligi pul massasi, narx-navo va milliy valyuta kursining barqaror bo‘lish tushunchasini o‘z ichiga oladi. Albatta, pul massasi, valyuta kursi, narx-navoga ta’sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjud. Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qator muhim vazifalarpi hal etadi. Ularning asosiyllari quyidagilardir:

- monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakl-lantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil qilish va ta’minlash;
- banklar faoliyatini tartibga solish va banklar faoliyati ustidan nazorat qilish;
- O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zahirasini saqlash va ularni boshqarish;

– Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish.

Markaziy bankka ayrim bank korxona va tashkilotlarning kapitalida qatnashishi, ularga moliyaviy yordam ko‘rsatishi, tijorat turi-dagi faoliyatlarni olib borishi man qilinadi. Markaziy bankni boshqarishning yuqori tashkiloti boshqaruv bo‘lib, u monetar siyosatni hamda o‘z zimmasiga yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirishda boshqa davlat tashkilotlarining bevosita va bilvosita arala-shuvidan holi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi asosiy funksiyalarini bajaradi.

1. Iqtisodiyotni pul-kredit dastaklari yordamida boshqarish.
2. Hisob-kitob va pul o‘tkazish operatsiyalarini bajarishni yo‘lga qo‘yish.
3. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.
4. Boshqa kredit muassasalarining kassa zaxiralarini saqlash.
5. Rasmiy oltin-valyuta zahiralarini saqlash.
6. Hukumat uchun hisob-kitob va kredit operatsiyalarini bajarish.
7. Tijorat banklariga kredit berish.
8. Pul emissiyasi.

Markaziy bank o‘z sarf xarajatlarini daromadlari hisobidan qoplovchi iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir. Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklardan ibo-rat bo‘lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosati iqtisodiyot vaziyatni tahlil qilish va oldindan aytishni, pul miq-dorini yillik o‘stirish sur’atlarining maqsadli ko‘rsatkichlarini, kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirish yo‘nalishlarini o‘z ichiga olib muhim makroiqtisodiy jarayonlar: pulning qadrsiz-lanishi, milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi hamda mehnat resurslarining bandligi, to‘lov balansini barqarorlashtrishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki o‘zaro hisob-kitoblarning O‘zbekiston tijorat banki tomonidan belgilangan va hamma bank hamda mijozlar uchun majburiy bo‘lgan qoidalar asosida olib borilishini nazorat qiladi. Chunki belgilangan qoidalarning bir taxlitda qo‘llanilishi butun respublika hududida hisob-kitoblar-ning uzluksizligini ta’minlaydi.

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi Qonunning 60-moddasiga muvofiq, banklarni nazorat qilishdan asosiy maqsad bank tizimining barqarorligini ta’minalash, omonat-chi va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat. O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy banki bank faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojini xar tomonlama hi-sobga olib va kuzatib boradi, kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy me’yorlarni (65-modda), shuningdek, kreditlash hajmi, limitlarini belgilaydi. Kapitalning etarliligi, aktivlarining sifati, foydaligi va likvidliligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Shu bilan birga, Markaziy bank yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida operatsiyalar o‘tkazishga litsenziyalar beradi va milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash shartini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro hisob-kitoblarda zaxiradagi aktiv va kafolatli sug‘urta fondi vazifasini bajarish bilan birga dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarini amalga oshirish yo‘li bilan mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari qiymatini ham yaratadi. Boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo‘lish va valyuta opera-siyalari o‘tkazish huquqi borligiga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta zaxiralarini saqlovchi asosiy depozitariy bo‘lib qolishi lozim.

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi qonunning 51-moddasiga muvofiq Markaziy bank hukumat bankiri sifatida hukumat muassasalari va tashkilotlarining hisob varaqlarini yuritadi, ana shu hisob varaqlarda mablag‘larni jamg‘aradi va ulardan to‘lovlarni amalga oshiradi; davlat qimmatbaho qog‘ozlari bilan operatsiyalar o‘tkazib turadi; davlatga bevosita qisqa muddatli va uzoq muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini xarid qilish tarzida kredit beradi; hukumat idoralarining topshirig‘iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning xazina vakili sifatida hukumat hisobvaraqlarini yuritadi, Hukumatning moliya operatsiyalariga ko‘maklashadi byudjet daromad va xarajatlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtiradi, ular bo‘yicha hisobvaraqlar yuritadi va davlatning boshqa qarz majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshiradi.

Banklar banki sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisob-kitob-to‘lov operatsiyalarini o‘tkazish, banklararo to‘lovlarning hisob-kitob-kliring xizmatini uyushtirish tartibini belgilaydi, tijorat banklariga kreditlar, tegishlicha ko‘rsatmalar beradi.

Tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o‘z hisob varaqalaridan o‘zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar. Bundan tashqari, ularning o‘z mablag‘lari kamlik qilsa, Markaziy bankdan kredit olishlari, naqd pul bo‘yicha ham Markaziy bankka murojaat qilishlari mumkin. Shuningdek, o‘z hisob va kredit operatsiyalari bo‘yicha stavkalarni mustaqil ravishda belgilaydi. Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasida banknotalar va tanga ko‘rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqaradi.

Markaziy bank va u vakolat bergen talabga ko‘ra bir nominal qiymatdagi banknota va tangalarni boshqasiga hech qanday to‘lovsiz yoki vositachilik haqisiz almashtirib beradi. Naqd pul mablag‘larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy zaxira miqdorini belgilab beradi. U pul muomalasini barqarorlashtirish va banklar likvidligini ta’minlashda ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasini belgilash asosida foyz stavkalarini belgilashga ta’sir qiladi. Hozirgi kunda qayta moliyalash stavkasi 14 foizni tashkil etmoqda. (3-ilovaga qarang).

### **III-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini huquqiy asoslari.
2. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllanishi.
3. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining rivollanish bosqichlari.
4. Ikki va uch pog‘onali bank tizimi.
5. “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida” gi q‘onuni.
6. Markaziy bankning maqsadi funksiyalari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning xazina vakili sifatida
8. Tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish.

## **IV-BOB. BANK OPERATSION APPARATINING TASHKIL ETILISHI**

**Reja:**

- 4.1. Banklarda buxgalteriya hisobini mazmuni va operatsion apparatni tashkil etishning ahamiyati.**
- 4.2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejali va ularning tavsifi.**

### **4.1. Banklarda buxgalteriya hisobini mazmuni va operatsion apparatni tashkil etishning ahamiyati.**

Banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, hisob-operatsion ishlarining to‘g‘ri tashkil etilishi va samarali nazoratning joriy etilishi bank vazifalarini to‘liq bajarishini, investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar va mijozlar, shuningdek, bank aksiyadorlari uchun zarur axborotlar olish va qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta’minlaydi.

Banklarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni joylashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni hisob varaqlarda aks ettirish va buxgalteriya hisobotlarini tuzish bank buxgalteriya hisobining predmeti hisoblanadi.

Banklarning aktivlari, majburiyatları, kapitali, zahirasi, daromad va xarajatlari, foyda va zararlari hamda ularning harakati bilan bog‘liq operatsiyalari bank buxgalteriya hisobining ob’ekti hisoblanadi.

O‘zbekiston banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va tegishli me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunning 5–moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yuklatilgan. Markaziy bank “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki” to‘g‘risidagi qonunga muvofiq samarali to‘lov tizimini tashkil etish va banklarda buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarini aniqlash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarda buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish, banklar orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalarning haqqoniyligini ta’minalash maqsadida respublika Markaziy banki va uning hududiy bosh boshqarmalarida tegishli tarkibiy tuzilmalarga ega. Shuningdek, respublika tijorat banklari tarkibiy tuzilmalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, nazoratini amalga oshirish

va amaliyotga joriy qilish bo‘yicha mas’ul boshqarma va bo‘limlar faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston bank tizimida buxgalteriya hisobini tashkil etish va amalga oshirish to‘liq avtomatlashtirilgan elektron to‘lov tizimiga o‘tkazilgan, mazkur vazifalarni amalga oshirish Markaziy bank va uning hududiy Bosh boshqarmalari tarkibida tashkil etilgan Axborotlashtirish bosh markazi va uning hududiy bo‘linmalari zimmasiga yuklatilgan.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kabi, banklar buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi undan foydalanuvchilarni o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minalashdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bank buxgalteriya hisobi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

–hukumatni iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida pul oqimlari ustidan monitoring o‘tkazish va ijtimoiy–iqtisodiy ahamiyatiga ega bo‘lgan qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minalash;

–xalqaro moliya tashkilotlari, investorlar va xorijiy hamkorlarni banklarning faoliyati va moliyaviy holati bo‘yicha ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;

–Markaziy bankning mamlakat pul tizimi, pul o‘tkazmalari ustidan nazorat qilish, monetar siyosatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minalash;

–tijorat banklari boshqaruvi kengashi va aksiyadorlari, investorlari va mijozlar uchun qarorlar qabul qilish va zarur axborotlarni olish imkoniyatini yaratish va boshqa maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Markaziy bank va tijorat banklari buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratiladi:

- hisob–kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to‘g‘ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z vaqtida va aniq aks ettirish;

- bank aktivlari, majburiyatlar, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar to‘plash;

- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;

- bank ish kuni tartibiga qat’iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko‘rsatish;

- hisob–kitoblardagi mablag‘lar aylanishini tezlashtirish;

- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish;

- bankdagi pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;

- operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'rilingini doimiy ichki nazorat va auditdan o'tkazish, ularning natijalari bo'yicha ma'lumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;

- pul-to'lov hujjatlari asosida amalga oshiriladigan to'lovlar va pul o'tkazmalarning iqtisodiy xafsizligi hamda qonuniyligini ta'minlash;

- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablag' sarfini qisqartirish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Banklarning moliyaviy mablag'larini vujudga kelish manbalari va ularning joylashtirilishi buxgalteriya balansida aks ettiriladi. Bankning balansi aktiv va passiv qismdan tashkil topgan ikki tomonning o'zaro tengligidir. Bank balansining passivida moliyaviy mablag'larning vujudga kelish manbalari, uning aktivida esa moliyaviy resurslarning tegishli maqsadlarga joylashtirilishi aks etadi.

Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni bank filiali (bundan keyingi o'rirlarda bank deb yuritiladi) rahbari amalga oshiradi. Buxgalteriya apparatiga bankning bosh buxgalteri rahbarlik qiladi. U Bank tizimining bosh buxgalterlari to'g'risidagi namunaviy nizom asosida ish olib boradi. Bosh buxgalter bo'limgan vaqtida uning vazifalarini bosh buxgalter o'rinnbosari bajaradi. Banklarda buxgalteriya ishlarini yuritish uchun buxgalteriya apparati tuziladi. Bank buxgalteriya apparatiga shartnoma asosida chetdan jalb qilingan buxgalterlar yoki buxgalteriya firmasi xodimlarining kiritilishi qat'ian taqiqlanadi.

Bank buxgalteriya apparatining tashkiliy tuzilishi va unda tashkil etiladigan bo'limlar soni amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmiga va ularning avtomatlashtirilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ish hajmi kichik banklarda buxgalteriya apparati bankning yaxlit bo'linmasi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunda banklararo hisobkitoblar, chet el valyutasi bo'yicha operatsiyalar va bankning ichki

hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarning hisobini yuritish maxsus bo‘limlarga topshirilishi mumkin.

Ish hajmi katta banklarda buxgalteriya apparati ushbu Yo‘riqnomalarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. SHuningdek, barcha operatsiyalar mas’ul ijrochi buxgalterlar tomonidan dastlabki va nazoratchi buxgalterlar tomonidan joriy nazoratdan o‘tishini ta’minlash maqsadida ish hajmidan kelib chiqqan holda mas’ul ijrochi va nazoratchilar soni o‘rtasida mutanosiblik saqlanishi lozim.

Buxgalteriya apparati xodimlarining aniq vazifalari bosh buxgalter tomonidan belgilab beriladi va bank rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Mas’ul ijrochi va nazoratchi buxgalterlar zimmasiga muayyan hisobvaraqlarni yuritish yoki alohida operatsiyalarni amalga oshirish ishlari yuklatiladi. Hisobvaraqlar xodimlar o‘rtasida bank ichki tartib qoidalari asosida operatsiyalar hajmi, mijozlar turi va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda taqsimlanadi.

Bank bosh buxgalteri muhrlar, shtamplar va blanklarni ularning yo‘qolishiga yoki boshqa maqsadlarda ishlatalishiga yo‘l qo‘yilmaydigan tarzda saqlanishi hamda foydalanishi ustidan nazoratni ta’minlashi shart. Bank muhrlari va bur chakli shtamplarining hisobi ularni saqlayotgan shaxs familiyasi va lavozimi ko‘rsatilgan maxsus daftarda yuritiladi. Daftar varaqlari raqamlangan, bog‘langan va bank muhri, bank rahbari hamda bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlangan bo‘lishi va bank rahbarining yozma farmoyishi bilan tayinlangan va qimmatliklar bilan operatsiyalar olib borishdan ozod etilgan shaxs tomonidan yuritilishi lozim.

Bank xodimlarining ish joylari shunday joylashtirilgan bo‘lishi kerakki, bunda mijozlar va boshqa begona shaxslarning bankning muhrlari, shtamplari, hujjatlari va blanklarini olishlariga imkon bo‘lmasligi lozim.

Xodim mehnat ta’tiliga chiqqan, kasal bo‘lib qolgan yoki boshqa sabablarga ko‘ra ishda bo‘lmagan hollarda unga biriktirilgan hisobvaraqlar hamda uning vazifalari muhr va shtamplar bilan birgalikda boshqa xodimga topshiriladi va bu haqda maxsus daftarda tegishli yozuvlar qayd etiladi.

Bosh buxgalter zimmasiga umumiy nazoratni tashkil etish hamda har kuni buxgalteriya va kassa ishlarining barcha bo‘g‘inlarida o‘rnatilgan tartibga amal qilinishini kuzatib borish yuklatiladi. SHuningdek, bank bosh buxgalteriga bosh va yordamchi kitoblarda operatsiyalarni qayd etish, tegishli buxgalteriya hisobi hisobotlarini dasturiy ravishda tuzish ishlariga

rahbarlik qilish yuklatiladi. Bank bosh buxgalteri ishda bo‘limgan vaqtda, ushbu vazifalar bank rahbarining buyrug‘iga ko‘ra uning o‘pinbosapiga topshiriladi.

Mijozlarning bank xodimlarining xatti-harakatlari ustidan shikoyatlari hamda boshqa murojaatlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilinadi va ko‘rib chiqiladi. Murojaat qilish tartibi e’lonlar osib qo‘yish yo‘li bilan mijozlarga ma’lum qilinishi lozim.

Bank rahbari buxgalteriya ishi holatini umumiyl kuzatish bilan bir qatorda balans va boshqa hisobotlarni o‘z vaqtida tuzilishini tekshirib borishi, mijozlarga o‘z vaqtida va sifatli xizmat ko‘rsatilishini muntazam nazorat qilib turishi shart.

Tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofis sifatida tashkil etilgan banklarning buxgalteriya apparati shu tarkibiy tuzilmalarga mos ravishda tashkil etilishi mumkin. Buxgalteriya apparatini Front-ofis va Bek-ofisga ajratish zaruriyati yuzasidan sharhlar 7-ilovada keltirilgan.

Front-ofis va Bek-ofis xodimlarining aniq vazifalari mos ravishda Front-ofis va Bek-ofis boshliqlari tomonidan belgilab beriladi va bank rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Bank xizmatlari ofislarda buxgalteriya hisobi mavjud ish hajmidan kelib chiqqan holda tashkil etilishi lozim.

Bank xizmatlari ofislarda dastlabki nazoratni o‘tkazish uchun mas’ul ijrochi buxgalter shtati bilan ta’milangan bo‘lishi lozim. Joriy nazorat bank xizmatlari ofisi buxgalteriyasi boshlig‘i tomonidan (bundan buyon matnda etakchi buxgalter deb yuritiladi) amalga oshiriladi.

Bank xizmatlari ofislardan o‘tkaziladigan to‘lovlar joriy nazoratdan o‘tkazilganidan so‘ng amalga oshiriladi. Bunda to‘lovlar joriy nazoratdan o‘tkazilganligi bank filialining Bek-ofisi boshlig‘i yoki Bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi.

Bank xizmatlari ofislari ularda amalga oshirilgan operatsiya va o‘tkazilgan to‘lovlarining nazoratini ta’minalash maqsadida, operatsiyalarga va (yoki) to‘lovarga asos bo‘lgan hujjatlar, shu jumladan pul-hisob-kitob hujjatlarining elektron nusxasini bankka (filialga) taqdim etishi mumkin.

Bank xizmatlari ofislarda bank ish kuni davomida amalga oshirilgan operatsiyalarga asos bo‘lgan pul hisob-kitob hujjatlari belgilangan tartibda yakuniy nazoratdan o‘tkazilishi lozim.

Bank xizmatlari ofislarda kunlik buxgalteriya hujjatlari yig‘majildi belgilangan tartibda shakllantirilishi va saqlanishi yoki shakllantirilgan kunlik buxgalteriya hujjatlari yig‘majildi saqlash uchun davriy ravishda, lekin bir oyda kamida bir marotaba bank xizmatlari ofisini tashkil etgan

bankka (filialga) etkazilishi lozim. Mazkur holat bankning ichki qoidalarida (hujjalarda) aniq ko'rsatilishi lozim. Ushbu qoidalarga qat'iy rioya qilish imkoniyati mavjud bo'lgan banklar (filial) bank xizmatlari ofislari ochishi mumkin.

Bank rahbari va bosh buxgalteri o'zlariga qarashli bo'lgan minibanklarda buxgalteriya ishlarini to'g'ri tashkil qilish va bank operatsiyalarini aniq va o'z vaqtida bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatishlari lozim.

Buxgalteriya xodimlarining ish kuni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda bank tomonidan amaliyot kuni davomida ijroga qabul qilingan pul hisob-kitob hujjalari dastlabki va joriy nazoratdan o'tkazilib, ular o'z vaqtida ijro etilishi, ya'ni hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida aks ettirilib, kunlik balans hisoboti tuzilishi hamda keyingi bank ish kunitdan kechiktirmasdan bajarilgan barcha operatsiyalar yakuniy nazoratdan o'tkazilishi shart, bundan bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar mustasno.

Har bir bank quyida keltirilgan talablarga rioya qilgan holda, amaliyot kuni davomida mijozlarga xizmat ko'rsatish va hujjalar aylanish tartibini mustaqil belgilaydi:

-banklar yangi ish kunitni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning Hisob-kitob markazi (bundan keyingi o'rnlarda HKM deb yuritiladi)da ochilgan tashqi ("21302-Rezident bankning vakillik hisobvarag'i") vakillik hisobvarag'ining kun boshiga aylanma va qoldiq summalarini, o'zlarining ichki ("10301-Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i") vakillik hisobvarag'ining aylanma va qoldiq summalarini bilan mosligini tekshirish bilan boshlashadi. Ichki va tashqi vakillik hisobvarag'i aylanma va qoldiq summalarini mosligini tasdiqlash uchun HKM ga elektron fayl yuboradi;

-HKM tijorat banklari yuborgan elektron faylni qabul qilib oladi va bankning tashqi va ichki vakillik hisobvaraqlar qoldiq summalarini dasturiy ravishda taqqoslaydi hamda ularni mosligini tasdiqlab banklarga qaytaradi. Vakillik hisobvaraqlar qoldiq summalarini mos kelmasa, mavjud farq bartaraf etilmaguncha bank amaliyot kuni ochilmaydi hamda banklararo to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etilmaydi;

-HKM dan tasdiq (W-fayl) olgandan so'ng, banklarga banklararo to'lovlarni amalga oshirish uchun ruxsat beriladi;

-filiallari mavjud bank filiallariga "To'lov markazi"da ochilgan tashqi ("22204-Bosh bank-filiallarga to'lanadigan mablag'lar") va filiallarda

ochilgan ("16103-Bosh bank/filiallardan filiallararo va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar") ichki vakillik hisobvaraqlar qoldiq summasini mosligini tasdiqlash Bosh bank tomonidan amalga oshiriladi. Filiallar ichki vakillik hisobvarag'i (16103) va "To'lov markazi"da ochilgan tashqi (22204) vakillik hisobvarag'i o'rtasida farq mavjud bo'lsa, ushbu filialga uni bartaraf etmaguncha filiallararo va banklararo to'lovlarni amalga oshirish va yangi kunga o'tib ishlashga ruxsat etilmaydi;

- filiallararo va ichki to'lovlarni o'tkazish uchun bank o'z mijozlaridan to'lov hujjatlarini qabul qilish vaqtini o'zi mustaqil ravishda belgilaydi. Filiallararo to'lovlarga bir bank filialari o'rtasidagi to'lovlari, ichki to'lovlarga kassa amallari, to'lanishi va olinishi lozim bo'lgan foizlar hisobini hisoblash hamda xodimlarga ish haqi hisoblash va shunga o'xshash amallar kiradi;

- banklararo to'lovlari bo'yicha banklar mijozlaridan bank amaliyot kuni davomida (qog'oz shakldagi to'lov hujjatlari uchun soat 16-00 gacha) qabul qilingan to'lov hujjatlari bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini banklararo to'lovlari vaqtini tugagunga qadar HKMga etkazib berishlari kerak, aks holda banklararo to'lovlari amalga oshirilmaydi. Bank aybi bilan amalga oshmay qolgan hujjat bo'yicha bank javobgar hisoblanadi, bundan bankka taalluqli bo'lмаган ташқи omillar mustasno;

- HKM banklarga banklararo to'lovlari tugaganligi to'g'risida ma'lumotni (END fayl) jo'natadi, shundan so'ng shu amaliyot kuni uchun banklar o'rtasida banklararo to'lovlari to'xtatiladi. Banklar bank ish kuni yakunlangandan so'ng, lekin keyingi bank ish kuni soat 10-00 dan kechiktirmagan holda Markaziy bankka elektron balans (0106BS) hisobotini jo'natadilar.

Banklarda ish kuni bank operatsiyalari buxgalteriya hisobotida to'liq aks ettirilib, kunlik balans hisoboti tahlil qilinib, bank filiali rahbari hamda bosh buxgalteri tomonidan imzolangandan so'ng yakunlanadi.

#### **4.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejalarini va ularning tavsifi.**

Bank balansi aktiv va passiv qismlardan iborat bo'lib, uning iqtisodiy mohiyati tenglik degan ma'noni anglatadi. Bank balansi dastlabki buxgalteriya ma'lumotlari asosida ish kunining oxirida tuziladi. Balansa yordamchi (analitik hisob) kitobning ma'lumotlari asosida jamlangan bosh (sintetik hisob) kitob qoldiq summalarining yig'indisi aks ettiriladi.

Bankning yordamchi kitobida ish kuni davomida bajarilgan barcha aktiv va passiv, daromad va xarajatlar bo‘yicha operatsiyalar qayd etiladi. Yordamchi kitobning dastlabki ma’lumotlari asosida bank balansi tuziladi. Balans yordamida bank resurslarining shakllanishi va joylashishi, kredit, hisob—kitob, kassa va boshqa operatsiyalar holati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Bank buxgalteriya hisobvaraqlari rejasiga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilib 2004 yil 17 iyuldagagi 15/3—son Qarori bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2004 yil 13 avgustda 773-17—son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Mazkur hisobvaraqlar rejasiga O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida yagona buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning metodologik asosini belgilab beradi.(1-Ilovada keltirilgan).

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida", "Bank va banklar faoliyati to‘g‘risida"gi qonunlari talablariga muvofiq hamda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi. Tijorat banklari tomonidan buxgalteriya hisobi ular O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan vaqtidan boshlab qayta tashkil etilgunga yoki tugatilgunga qadar uzluksiz ravishda yuritiladi.

Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda Markaziy bankning me’yoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qat’iy rioya qilishlari lozim. Mazkur hisobvaraqlar rejasiga bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini aks ettirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hisobvaraqlar rejasiga bank operatsiyalarining hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo‘llanadigan Bosh kitob hisobvaraqlarini ro‘yxatidan iboratdir. Xatolarni to‘g‘rilash va hisob siyosatidagi o‘zgarishlar bo‘yicha tuzatishlar kiritishda, hisobvaraqlarning ta’riflarida ko‘zda tutilmagan bo‘lsa ham hisobvaraqlarning debit va kreditlari bo‘yicha tuzatish o‘tkazmalarini berishga ruxsat beriladi.

Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasiga buxgalteriya hisobining ko‘p valyutali tizimiga asoslangan bo‘lib, chet el valyutasidagi

operatsiyalarning hisobi yuritilishi mumkin bo‘lgan barcha hisobvaraqlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalar hisobini aks ettirish imkonini beradi. Har bir valyuta turi bo‘yicha sintetik hisobni yuritish uchun alohida Bosh kitob, analitik hisobni yuritish uchun esa Yordamchi kitoblar ochiladi. Har bir valyuta bo‘yicha YOrdamchi kitoblardagi summalar yig‘indisi Bosh kitoblarning tegishli balans hisobvaraqlaridagi summalar yig‘indisiga mos kelishi kerak. Bank tomonidan amalga oshiriladigan har bir operatsiya tegishli valyuta turi bo‘yicha Bosh va Yordamchi kitoblarda ro‘yxatga olinishi kerak. Hisobot sanasida Bosh kitoblarning xorijiy valyutalar bo‘yicha jami summalar milliy valyutaga o‘tkaziladi va hisobot davri davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo‘yicha bankning jamlanma balansi tuziladi.

Hisobvaraqlarni kodlashtirish quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqilgan:

- hisobvaraqlarning Bosh va Yordachi kitoblarda joylanishini engillashtirish;
- hisobvaraqlarni bir tizimda tasniflash va guruhlashga yordam berish;
- hisob jarayonlarini avtomatlashtirishni engillashtirish;
- operatsiyalar yozuvini tezlashtirish.

Balans hisobvaraqlarining Bosh kitobda kodlashtirilish tizimi quyidagi sxema bo‘yicha beshta belgidan iboratligi qabul qilingan:

|          |           |           |
|----------|-----------|-----------|
| <b>C</b> | <b>MM</b> | <b>SS</b> |
|----------|-----------|-----------|

|          |  |
|----------|--|
| <b>C</b> | <b>Hisobvaraq turkumi (kategoriysi):</b> |
| <b>1</b> | <b>Aktiv</b>                             |
| <b>2</b> | <b>Majburiyatlar</b>                     |
| <b>3</b> | <b>Kapital</b>                           |
| <b>4</b> | <b>Daromadlar</b>                        |
| <b>5</b> | <b>Xarajatlar</b>                        |
| <b>9</b> | <b>Ko‘zda tutilmagan holatlar</b>        |

|           |   |
|-----------|---|
| <b>MM</b> | <b>Hisobvaraq turkumiga tegishli asosiy hisobvaraqlar (birinchi tartib)</b> |
|-----------|---|


|           |   |
|-----------|---|
| <b>SS</b> | <b>Hisobvaraq turkumiga tegishli asosiy hisobvaraqlar (birinchi tartib)</b> |
|-----------|---|

Raqamli kodlashtirishga quyidagi zarur shartlar joylashtirilgan:

- jamlanma hisobvaraqlar uchun MM va/yoki SS nol raqamlariga ega (masalan, 10000 - "Aktivlar", 10100 - "Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari" va boshqalar);

- "Aktivlar" bo'limidagi "...zararlarni qoplash zaxirasi" sarlavhali subhisobvaraqlar uchun SS o'rniда 99 raqam qabul qilingan.

Yordamchi kitobda shaxsiy hisobvaraqlar quyidagi sxema bo'yicha kodlashtiriladi:



Bundan tashqari, operatsiyalarni boshqarish maqsadida YOrdamchi kitoblarga Markaziy bank, tijorat banklari boshqarmalari hamda tijorat banklari menejmenti (boshqarishi) uchun zarur bo'lgan batafsil axborotlar bilan ta'minlovchi qo'shimcha ma'lumotlar kiritiladi.

Hisobvaraqlar rejasida har bir hisobvaraqning aktiv yoki passiv bo'lishi aniq belgilab qo'yilgan, aktiv-passiv qoldiqlarga ega bo'ladigan ayrim hissbvaraqlar bundan mustasno. Aktiv hisobvaraqlarga "Aktivlar", "Xarajatlar" va "Ko'zda tutilmagan holatlar" bo'limlaridagi balans hisobvaraqlari, passiv hisobvaraqlarga "Majburiyatlar", "Kapital" va "Daromadlar" bo'limlaridagi balans hisobvaraqlari taalluqlidir.(1-Ilovaga qarang).

Aktivlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida "Aktivlar" bo'limiga kontr-aktiv hisobvaraqlari, majburiyatlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida esa "Majburiyatlar" bo'limiga kontr-passiv hisobvaraqlar kiritilgan.

"Ko‘zda tutilmagan holatlar" bo‘limiga operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv uslubi bo‘yicha aks ettirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning to‘g‘riligini qo‘srimcha nazorat qilish imkonini beruvchi kontr-aktiv hisobvaraqlar kiritilgan.

Ba’zi hisobvaraqlardan tashqari "Aktivlar" likvidlilik, "Majburiyatlar" esa muddatlilik tamoyillariga asosan tasniflangan.

Mazkur hisobvaraqlar rejasida har bir ikkinchi tartibli balans hisobvarag‘i uchun hisobvaraqlar ta’rifi berilgan bo‘lib, unda hisobvaraqlarning debeti va krediti bo‘yicha qanday operatsiyalarni aks ettirish hamda analitik hisobini yuritish ko‘rsatilgan. Batafsil analitik hisob yuritish uchun banklarda shaxsiy hisobvaraqlardan tashqari qo‘srimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

"Daromadlar" va "Xarajatlar" bo‘limi uchun analitik hisob ko‘rsatilmagan bo‘lib, ushbu bo‘limlardagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o‘zlari belgilaydilar. (20210 000 8003 93443 001 6-ilovaga qarang).

Buxgalteriya hisobvaraqlar rejasida bosh buxgalter kitobiga kiruvchi barcha hisobvaraqlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lib, ular buxgalteriya hisobini amalga oshirishda, tahlilda, guruhlarga ajratishda va bank operatsiyalari bo‘yicha hisobotlarni tuzishda qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobvaraqlar rejasida ayni paytda banklar tomonidan amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarning turlari mujassamlashgan bo‘lib, ular hisobvaraqlar orqali bank balansida o‘z aksini topadi.

Hisobvaraqlar rejasida ko‘p valyutali buxgalteriya hisobiga asoslangan bo‘lib, barcha hisobvaraqlar belgilangan tartibda chet el valyutalarini turlari bo‘yicha hisobga olish va balans tuzish imkoniyatini beradi. Valyutalarning har bir turi bo‘yicha alohida sintetik hisobni yuritish uchun Bosh kitob ochiladi, analitik hisob Yordamchi kitobda yuritiladi.

Yordamchi kitobda hisobga olingan summalarining yig‘indisi Bosh kitob summasiga albatta mos kelishi lozim. Bank tomonidan amalga oshirilayotgan valyutalarning turi bo‘yicha har bir operatsiya Yordamchi va Bosh kitobda mos ravishda qayd etilishi lozim bo‘ladi. Bosh kitob summasining yig‘indisi asosida tuzilgan chet el valyutalaridagi balanslar kunning oxirida Markaziy bank tomonidan o‘rnatalgan kurs bo‘yicha milliy valyutada umumlashtirilgan (konsolidirovanni) balansga o‘tkaziladi.

Aktiv hisob-varaqlarda mablag‘larning ko‘payishi debetda, kamayishi esa kreditda aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlarda qoldiq summalar debetda vujudga keladi, kontr aktiv hisobvaraqlar bundan mustasno. Aktiv hisobvaraqlarda hisobga olingan summalar bank tomonidan mablag‘larni ma’lum maqsadlarga joylashtirganligini anglatadi.

Passiv hisob-varaqlarda mablag‘larning ko‘payishi kreditda, kamayishi esa debetda aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlarda qoldiq summalar kreditda vujudga keladi, kontr passiv hisobvaraqlar bundan mustasno. Passiv hisobvaraqlarda hisobga olingan summalar bankning o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘alarning manbalarini anglatadi.

Shu bilan birga, hisobvaraqlar rejasining 9 bo‘limida ko‘zda tutilmagan holatlar mavjud bo‘lib, ushbu hisobvaraqlar bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilsada, kunlik balansga bevosita ta’sir etmaydi. Ammo ular bo‘yicha amalga oshirilgan buxgalteriya yozuvlarining haqqoniyligini tekshirib borish maqsadida ushbu hisobvaraqlar bo‘yicha kunning oxirida balans tuziladi.

“Ko‘zda tutilmagan holatlar” bo‘limiga operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv uslubi bo‘yicha aks ettirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning to‘g‘riligini qo‘srimcha nazorat qilish imkonini beruvchi kontr–aktiv hisobvaraqlar kiritilgan.

Bank depozitorlari milliy axborotlar bazasida ro‘yxatga olingan mijozlar va ularga ochilgan hisobvaraqlar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, unda mijozlarga ochilgan hisobvaraqlar soni 7 263 621 tani va mijozlarsoni 1 880 634tani tasgkil etganligini ko‘ramiz. (4-ilovaga qarang).

#### **IV-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Banklarda buxgalteriya hisobini Tashkil etish agoglari.
2. Bank buxgalteriya hisobining ob’ekti.
3. Banklar buxgalteriya hisobining assosiy maqsadi.
4. Ikki yoqlama yozuv uslubi.
5. Bank balansi.
6. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi qonuni.
7. Hisobvaraqlar rejasi.
8. Hisobvaraqlarni kodlashtirish maqsadlari.
9. Bosh kitob materiallari.
10. Yordamchi kitob materiallari.
11. Balans hisobvaraqlar.
12. Balansdan tashqari hisobvaraqlar

## **V-BOB. BANK BUXGALTERIYA XODIMLARINING HUQUQI VA MAJBURIYATLARI**

**Reja:**

**5.1. Bank buxgalteriya xodimlarini malaka talablari.**

**5.2. Bosh buxgalterning huquqlari va javobgarligi.**

### **5.1. Bank buxgalteriya xodimlarini malaka talablari.**

Banklarda hisob—operatsion apparati ularning bajaradigan operatsiyalari va ularga yuklatilgan ishlarning hajmidan kelib chiqib tashkil etiladi. Bankning hisob—operatsion apparati pul—to‘lov hujjatlarini qabul qilish, nazoratdan o‘tkazish, rasmiylashtirish va bankning buxgalteriya hisobini aks ettirish bilan band bo‘lgan bankning mas’ul xodimlaridan tashkil topadi.

Banklarning xizmat ko‘rsatish darajasi va ish hajmiga qarab hisob—operatsion apparati quyidagi mutaxassis xodimlardan shakllantiriladi:

- bosh buxgalter;
- mas’ul ijrochilar (bevosita mijozlar bilan ishlaydi);
- nazoratchi buxgalterlar;
- operatsiyalarni amalga oshiruvchi xodimlar;
- operatorlar.

Mas’ul ijrochi va nazoratchi buxgalterlar zimmasiga muayyan hisobvaraqlarni yuritish yoki alohida operatsiyalarni amalga oshirish ishlari yuklatiladi. Bankning bosh buxgalteri mas’ul ijrochilarga vazifalarni taqsimlaganda mijozlar va ular tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olishi lozim. Xususan, hisobvaraqlar buxgalteriya xodimlari o‘rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, bunda bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektning barcha depozit va ssuda hisobvaraqlari bitta buxgalteriya xodimi tomonidan yuritilishi kerak, chet el valyutasida ochilgan hisobvaraqlar bundan mustasno. Hisobvaraqlarni buxgalteriya xodimlari o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash kitobi dasturiy ravishda yuritiladi hamda maxsus daftarda qayd etib boriladi.

Banklarda hisob—operatsion appparati tarkibini tashkil etish, ularning bank qonunchiligi doirasida faoliyat yuritishi bilan bog‘liq mas’uliyat bank boshqaruvchisi zimmasiga yuklatiladi.

Banklarda bosh buxgalter lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod shaxslarga nisbatan malaka talablari Tijorat banklari va ularning filiallari rahbarlari, bosh buxgalterlari, boshqaruv a’zolari, mikrokredit tashkilotlari

hamda kredit byuolarining ijro organlari rahbarlariga nisbatan malaka talablariga (ro'yxat raqami 2989, 2018 yil 30 mart) muvofiq belgilanadi.

Bosh buxgalter o'z ish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga va buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek ushbu Nizomga asoslanib ish yuritadi.

Bosh buxgalter quydagi larni bilishi shart:

- a) buxgalteriya hisobi qonunchiligini;
- b) fuqarolik huquqi, bank, moliya, soliq va xo'jalik qonunchiligining buxgalteriya hisobini yuritishga tegishli qismini;
- v) bank tuzilishi, strategiyasi va uning rivojlanish istiqbollarini;
- g) bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga, buxgalteriya hisobini tashkil etishga va moliyaviy hisobotlarni tuzishga tegishli normativ-huquqiy va uslubiy hujjatlarni;
- d) soliq, statistika, boshqaruv va moliyaviy hisoblarni;
- e) operatsiyalarni rasmiylashtirish va hisob uchastkalarida hujjatlar aylanishini tashkillashtirish tartibi, pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari, shuningdek boshqa tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, kirim qilish, saqlash va sarflash (chiqim qilish) tartibini;
- yo) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish va hisobdan chiqarish tartibini, shuningdek, debitor va kreditor qarzdorlikni hisobdan chiqarish, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblash, mulkni baholash va qayta baholash tartibini;
- j) debitor va kreditorlar bilan hisob-kitob qilish qoidalarini;
- z) yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish shartlarini;
- i) mulk va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi, auditorlik tekshiruvini o'tkazish tartibini;
- y) buxgalteriya, soliq, statistika hisobotlarini tuzish tartibi va muddatlarini;
- k) bank moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlilini, bank ichki zaxiralarini aniqlashni;
- l) tekshiruvlarni o'tkazish va hujjatli taftish qilish tartibini;
- m) buxgalteriya hisobi bo'yicha kompyuter dasturlari, buxgalteriya hisobi va moliyani boshqarish sohasida zamонавиy ma'lumotlar va axborot tizimini;

- n) buxgalteriya hujjatlarini saqlash va axborotlarni himoya qilish tartibini;
- o) mehnat qonunchiligi, mehnatni muhofaza qilish tartibi va me'yorlarini;
- p) ishlab chiqarish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini;
- r) buxgalteriya hisobini tashkil qilishning ilg'or milliy va xorij tajribalarini.

Bosh buxgalter zimmasiga pul mablag'lari va moddiy qimmatliklar uchun bevosita moddiy javobgarlik bilan bog'liq vazifalar, shuningdek bank rahbari vaqtincha ishda bo'limgan vaqtida uning vazifalarini bajarib turish yuklatilishi mumkin emas. Bosh buxgalterga bevosita cheklar va boshqa hujjatlar asosida bank uchun mablag' va tovar-moddiy qimmatliklarni qabul qilish taqiqlanadi.

Bosh buxgalter vaqtincha ishda bo'limgan vaqtida (xizmat safari, ta'til, kasallik va shu kabilar) bosh buxgalterning huquq va majburiyatları uning o'rindbosariga, o'rindbosar ham ishda bo'limgan taqdirda, bank rahbarining alohida buyrug'i asosida boshqa mansabdor shaxsga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasiga muvofiq, bank xizmatchisi bank Boshqaruvining roziligidagi ko'ra boshqa joyda o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin.

## **5.2. Bosh buxgalterning vazifalari, huquqlari va javobgarligi**

O'zbekiston Respublikasida Bank bosh buxgalterining vazifalari, huquqlari va javobgarligi "Bank tizimining bosh buxgalterlari to'g'risida"gi namunaviy nizom asosiga tartibga solinadi va belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi banklari (filiallari)ning bosh buxgalterlariga taalluqli bo'lib, bosh buxgalterlarning vazifalari, huquqlari va mas'uliyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, banklarda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish uchun bank rahbari javobgar hisoblanadi hamda u buxgalteriya hisobi to'g'ri yuritilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Bosh buxgalterning xo'jalik operatsiyalarini hujjatlar asosida rasmiylashtirish va ularni buxgalteriya hisobi xizmatiga taqdim etish bo'yicha talablari bankning barcha xodimlari uchun majburiydir. Bank rahbari bankning barcha bo'linmalari, xizmatlari va hisobni yuritishga

aloqador xodimlari tomonidan mazkur talablarga rioya etilishini ta'minlashi shart.

Bosh buxgalter bankda buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etilishini hamda Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan Hisob siyosatini amalga oshirilishini ta’minlaydi. Zarur hollarda Hisob siyosatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar kiritadi.

Bankning bosh buxgalteri bank rahbarining buyrug‘i bilan tayinlanadi va ozod qilinadi. Filiallari mavjud banklarda filial bosh buxgalteri lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish bank boshqaruvi raisi yoki uning o‘rnbosari tomonidan, Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori (boshqarma boshlig‘i) bilan kelishilgan holda tayinlanadi. Shuningdek, u bevosita bank rahbariga, buxgalteriya hisobini tashkil etish, hisobotlar tuzish, nazorat qilish tartibi va metodikasi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha esa, bevosita Bosh bank Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori (boshqarma boshlig‘i)ga bo‘ysunadi.

Bank bosh buxgalteri boshchilik qiladigan buxgalteriya hisobi bo‘limi mustaqil tarkibiy bo‘linma bo‘lib hisoblanadi va boshqa biron-bir bo‘linma tarkibiga kirmasligi lozim. Buxgalteriyaning barcha xodimlari, shu jumladan bosh buxgalter o‘rnbosari va bankdan tashqarida joylashgan kassir va nazoratchilar bosh buxgalterga bo‘ysunadilar.

### **Bosh buxgalterlarning vazifalari**

Bosh buxgalter buxgalteriya hisobini bank hisob siyosatida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar asosida tashkil etib, quyidagilarni ta’minlashi shart:

- buxgalteriya hisobi ishlarini zamonaviy texnik vositalari va axborot texnologiyasidan foydalangan holda oqilona tashkil etilishi, buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida bank operatsiyalarini to‘g‘ri va haqqoniy aks ettirilishi hamda foydalanuvchilar uchun ishonchli moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim qilish;

- bankka kelib tushgan pul hisob-kitob hujjatlarini ularga ishlov beriladigan barcha uchastkalardan o‘tishining aniq muddatlariga rioya etilib, bankning barcha tegishli hisobvaraqlarida aks ettirilib, kunlik balans tuzilishi va uni tegishli joyga topshirilishini tashkil etish;

- mijozlarga hisobvaraqlar ochish, ular bilan bog‘liq hujjatlarni qabul qilish, mijoz hisobvaraqlarini yuritish, Bank Depozitorlari Milliy Axborotlar Bazasi (bundan keyingi o‘rinlarda BDMAB deb yuritiladi)ga

so‘rovnomalari shakllantirish, jo‘natish va undan ma’lumotlar qabul qilish, hisobvaraqlarni yopishga doir amallarni nazorat qilish;

- mijozlardan kelib tushadigan pul hisob-kitob hujjatlarining shakli va mazmuni bo‘yicha to‘g‘ri rasmiylashtirilishi va ular bo‘yicha operatsiyalarni o‘z vaqtida o‘tkazilishi;

- ichki bank operatsiyalarining qonuniy tarzda bajarilishini va ular ustidan kunlik monitoring o‘rnatish, hamda mablag‘ va qimmatliklar but saqlanishi;

- birlamchi hujjatlar hamda buxgalteriya yozuvlari asosida haqiqiy holatni aks ettiruvchi buxgalteriya hisobotlarini tuzish, bu hisobotlarni belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga, shuningdek, tegishli organlarga taqdim etish;

- elektron to‘lov hujjatlarining to‘g‘ri shakllantirilishini ularning asl nusxasi bilan solishtirish orqali tekshirish, agar bu ish bosh buxgalter o‘rinbosari yoki buxgalteriyaning boshqa xodimiga yuklatilmagan bo‘lsa;

- bank amaliyat kunini to‘liq yakunlash va ish kuni oxiriga qadar kunlik balans tuzish;

- operatsiyalarni amalgalashish uchun asos bo‘lgan buxgalteriya (kirim-chiqim) hujjatlarining asl va elektron nusxalarini o‘z vaqtida (ish kuni oxirigacha yoki keyingi bank ish kuni ertalab soat 10.00 dan kechiktirmasdan) Yo‘riqnomaning V bob, 7-paragrafida belgilangan tartibda taxlanishi hamda rasmiylashtirilishi, shuningdek ularni o‘rnatalgan tartibda arxivga topshirilishi;

- o‘z tasarrufida bo‘lgan bank filiallari, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining buxgalteriya ko‘rsatkichlari bo‘yicha belgilangan tartibda yillik jamlangan moliyaviy hisobotlar tuzish va boshqa bo‘limmalar bilan hamkorlikda buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari asosida bankning moliyaviy faoliyatini iqtisodiy tahlil qilib borish;

- moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona, tejamkorlik bilan foydalaniishi hamda mulkning but saqlanishi ustidan nazorat olib borilishi;

- buxgalteriya hisobining ilg‘or shakl va usullaridan keng foydalanish;

- kelib tushgan pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar, tovar-moddiy qimmatliklar va asosiy vositalar hisobining to‘g‘ri yuritilishi, shuningdek ular holati va harakati bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobida o‘z vaqtida aks ettirilishi;

- qat’iy hisobda turuvchi blanklarning but saqlanishi va ular hisobining to‘g‘ri yuritilishi;

- bank daromadlari va xarajatlarini hisoblash usulini qo'llagan holda Bosh kitob va hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishi hamda davlat byudjetiga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lov larning to'g'ri yozilishi hamda o'z vaqtida o'tkazilishi;

- mijozlarning depozit va ssuda hisobvaraqlari bo'yicha foizlarning to'g'ri va belgilangan muddatlarda hisoblanishi;

- xo'jalik shartnomalari tuzishda buxgalteriya hisobiga oid qonunchilik hujjatlari talablarining bajarilishi;

- kamomad hamda pul mablag'lari va tovar-moddiy qimmatliklarning talon-toroj qilinishi bo'yicha hujjatlarni taftishdan o'tkazish yuzasidan yuridik xizmat xodimlari tekshiruvlarida qatnashish, tegishli hollarda ushbu materiallar sud va tergov organlariga taqdim etilishini nazorat qilish, yuridik xizmat xodimlari ishtirok etmagan taqdirda, bu vazifalarni bevosita o'zi bajarish;

- buxgalteriya hisobi, hisoboti, nazorat va iqtisodiy tahlil masalalari yuzasidan xodimlarga o'z vaqtida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib borish;

- buxgalteriya hujjatlarining but saqlanishi, ularning o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilishi va arxivga topshirilishi.

Bosh buxgalter tegishli bo'linmalar va xizmatlarning rahbarlari bilan birgalikda quyidagilarni sinchiklab nazorat qilishi shart:

a) tovar-moddiy qimmatliklarning qabul qilinishi va topshirilishini rasmiylashtirishda belgilangan qoidalarga rioya etilishini;

b) ish haqi fondining to'g'ri sarflanishi, mansab maoshlarining to'g'ri belgilanishi, shtatlar, moliya va kassa intizomiga qat'iy rioya etilishini;

v) pul mablag'lari, tovar-moddiy qimmatliklar, asosiy fondlarni yo'qlama qilish, hisob-kitoblar va to'lov majburiyatlarini bajarishning belgilangan qoidalariaga rioya etilishini;

g) belgilangan muddatlarda debitorlik qarzi undirib olinishi va kreditorlik qarzining qaytarilishi, to'lov intizomiga rioya etishni;

d) kamomadlar, debitorlik qarzi va boshqa yo'qotishlarni buxgalteriya hisobining balans hisobotlaridan qonuniy tarzda chiqarilishini.

Bank tarkibida mustaqil moliya xizmati bo'lgan hollarda, bosh buxgalter zimmasiga bankning molivaviy hisob-kitob operatsiyalarning qonuniyligini, o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishini nazorat qilish vazifalari yuklatiladi.

Bosh buxgalter bankning ichki nazorat va ichki audit xodimlari bilan birgalikda kamomadlar yuzaga kelishi, pul mablag'lari va tovar-moddiy qimmatliklarning noqonuniy tarzda sarflanishining oldini oluvchi tadbirlarni tayyorlashda faol qatnashishi shart. Mansabdor shaxslar

tomonidan noqonuniy xatti-harakatlar qilinayotgani (ya’ni oshirib yozish, mablag’lardan noto‘g’ri foydalanish hamda boshqa qoidabuzarlik va mansabni suiiste’mol qilish hollari) ma’lum bo‘lib qolgan hollarda bosh buxgalter chora ko‘rish uchun bu haqda bank rahbariga axborot beradi.

Bosh buxgalter bank rahbari bilan birgalikda bank faoliyatini tashqi audit, Markaziy bank inspektorlari va boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida buxgalteriya bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha barcha choralarini ko‘rishlari shart.

Pul mablag’lari va tovar-moddiy qimmatliklarni qabul qilish hamda berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, shuningdek kredit va hisob-kitob majburiyatnomalari bank rahbari va bosh buxgalter yoki ular shunday vakolat berilgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi. Ushbu vakolatli shaxslarga hujjatlarni imzolash huquqining berilishi to‘g‘risida bank bo‘yicha chiqariladigan buyruq bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Yuqorida aytilgan hujjatlarga bosh buxgalter yoki shunday vakolat berilgan boshqa shaxslar tomonidan imzo chekilmasa, ular haqiqiy emas deb hisoblanadi va mazkur bankning mas’ul shaxslari hamda buxgalteriya xodimlari tomonidan ijroga qabul qilinmaydi.

Bosh buxgaltering pul mablag’lari, tovar-moddiy va boshqa qimmatliklarni qabul qilish, saqlash va sarflash bo‘yicha qonunchilikka zid bo‘lgan operatsiyalar bilan bog‘liq hujjatlarni ijroga qabul qilishi hamda rasmiylashtirishi taqiqlanadi.

Bank rahbaridan shunday xatti-harakat qilish to‘g‘risida farmoyish olingan hollarda, buxgalter uni ijro etmay turib, yozma ravishda bank rahbari e’tiborini u bergen farmoyish noqonuniy ekanligiga qaratadi. Bank rahbaridan yozma farmoyish olingan yoki hujjatga ikkinchi imzo qo‘yilgan hollarda bosh buxgalter uni bajaradi. Bunda bajarilgan operatsiya noqonuniyligi uchun butun javobgarlik bank rahbari zimmasiga tushadi. Bank rahbari o‘zi qabul qilgan qaror to‘g‘risida yozma ravishda darhol yuqori turgan bank rahbariga yozma ravishda xabar berishi shart.

Shunday xabarni olgan yuqori bank rahbari uni zudlik bilan ko‘rib chiqadi hamda tegishli qaror qabul qilib, bu haqda bank Boshqaruvi raisiga xabar beradi.

Bosh buxgalter vakolatli tashkilotlar tomonidan tashkil qilinadigan maxsus kurslarda har yili o‘z malakasini oshirib borishi, o‘zi boshqarayotgan buxgalteriya apparati xodimlarining malakasini oshirib borishni tashkil qilish va har yili albatta bir marta ularni attestatsiyadan o‘tkazishi shart.

Ushbu Nizomda sanab o‘tilgan bosh buxgalter vazifalari ular bajarishlari lozim bo‘lgan barcha vazifalarni qamrab olmagan, shu sababli bank rahbariyati tomonidan amaldagi qonun hujjatlari va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqqan holda bosh buxgalterlarga buxgalteriya hisobini yuritishga oid boshqa vazifalar qo‘sishma ravishda yuklatilishi mumkin.

### **Bosh buxgalterning huquqlari**

Bosh buxgalter o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlar uchun xizmat vazifalarini belgilab beradi. Bunda har bir xodim o‘z majburiyatlarini bilishi hamda ularning bajarilishi uchun javobgar bo‘lishi zarur. Boshqa bo‘linmalar va xizmatlarning buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish hamda uni tashkil etish masalalari bilan shug‘ullanuvchi xodimlari o‘z vazifalari bo‘yicha bosh buxgalterga bo‘ysunadilar.

Bosh buxgalterning bajarilgan operatsiyalarni rasmiylashtirish hamda ma’lumotlarni hisoblash qurilmalari orqali jo‘natish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni buxgalteriyaga taqdim etish borasidagi talablari bankning barcha bo‘linmalari va xizmatlari uchun majburiydir.

Bosh buxgalter o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib bergen ko‘rsatmalarining bajarilmaganligi yoki buzilganligi uchun aybdor shaxslar belgilangan tartibda bank rahbarining farmoyishiga binoan mukofotdan to‘liq yoki qisman mahrum etilishi, zarur hollarda esa qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Moddiy javobgar shaxslarni (kassirlar, ombor mudirlari va boshqalar) lavozimga tayinlash, ozod etish va boshqa lavozimga o‘tkazish masalasi bosh buxgalter bilan kelishib hal qilinadi.

Xodimlarga mansab maoshlari, ish haqi ustamalari hamda mukofotlarni belgilash to‘g‘risidagi buyruqlar va farmoyishlarni dastlab bosh buxgalter ko‘rib chiqadi va ularga imzo chekadi.

Bosh buxgalter quyidagi huquqlarga ega:

a) buxgalteriya hisobi va nazorat ishlari to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rishni bank rahbaridan talab qilish;

b) tarkibiy bo‘linmalarda pul mablag‘lari, tovar-moddiy va boshqa qimmatliklarni qabul qilish, kirim qilish, saqlash hamda sarflash yuzasidan belgilangan tartibda amal qilinishini tekshirib turish;

v) mukofotlar hajmlarini pasaytirish yoki mukofotdan mahrum etish to‘g‘risida takliflar berish.

Bank rahbari bosh buxgalterga ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan o‘z majburiyatlarini bajarishi hamda huquqlaridan foydalanishida atroflicha yordam berishga majbur.

Bosh buxgalter ana shu majburiyatlarni bajargani hamda o‘z huquqlaridan foydalangani uchun unga tazyiq o‘tkazish borasida qilinadigan har qanday urinishlarga qatiyan barham berishi, bunga aybdor bo‘lgan shaxslar esa qat’iy javobgarlikka tortilishi lozim.

### **Bosh buxgalterlarning javobgarligi**

Bosh buxgalter quyidagi hollarda javobgar bo‘ladi:

a) buxgalteriya hisobi noto‘g‘ri yuritilib, oqibatda pala-partish holatga kelgan va buxgalteriya hisoboti buzilganda;

b) pul mablag‘lari, tovar-moddiy va boshqa qimmatliklarni qabul qilish, ularni kirish qilish, saqlash va sarflash yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibga zid operatsiyalar bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirilgan va ijroga qabul qilingan hollarda;

v) talab qilib olinguncha va boshqa hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalar, shuningdek debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar kechikib hamda noto‘g‘ri amalga oshirilganda;

g) kamomadlar, debitorlik qarzlari va boshqa yo‘qotishlarni buxgalteriya balans hisobotlaridan chiqarish tartibi buzilganda;

d) buxgalteriya xodimining aybi bilan noto‘g‘ri buxgalteriya hisoboti tuzilganda;

e) buxgalteriya hisobini tashkil etishga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilganda.

33. Bosh buxgalter quyidagi holatlar uchun bank rahbari bilan teng javobgar hisoblanadi:

a) moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining buzilishi;

b) mansabdor shaxslardan ular etkazgan zarar summasini o‘z vaqtida undirib olmaslik;

v) kunlik, oylik, choraklik va yillik balans hisoboti hamda boshqa buxgalteriya hisobotlarini tegishli organlarga taqdim etish muddatlarining buzilishi;

g) bankning balans hisobotida aks ettirilgan ma’lumotlar hamda elektron to‘lovlar tizimi orqali o‘tkazilgan to‘lov hujjatlarining but saqlanish hamda kunlik arxivlash tartibi uchun.

Bosh buxgalterlarning tartib-intizomi, moddiy va jinoiy javobgarligi amaldagi qonunchilikka muvofiq tarzda belgilanadi. Bunda bosh buxgalter

bo‘ysunish tartibiga muvofiq tegishli yuqori bank tomonidan intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

**V-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Banklarda hisob–operatsion appparati tarkibi.
2. Banklarda bosh buxgalter lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod shaxslarga nisbatan malaka talablari
3. Bosh buxgalter nimalarni bilishi shart.
4. Bosh buxgalterning vazifalari.
5. Bosh buxgalterning huquqlari.
6. Bosh buxgalterning javobgarligi.
7. Operatsiyalarni amalga oshiruvchi xodimlar.
8. Hisobvaraqlarni buxgalteriya xodimlari o‘rtasida taqsimlash.

## **VI-BOB. TIJORAT BANKLAR FAOLIYATINI TAHLIL QILISH ASOSLARI**

**Reja:**

- 6.1. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va uning uziga xos xususiyatlari.**
- 6.2. Bank majburiyatharining tarkibiy jihatdan tahlili.**
- 6.3. Bank aktivlari tarkibining tahlili.**

### **6.1. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va uning uziga xos xususiyatlari**

Har qanday jarayonning keyingi taqdiri uni har tomonlama chiqur tahlil etilishiga asoslanadi. Ayniqsa iqtisodiy jarayonlarning takomillashuvi va rivojlanishini iqtisodiy tahlilsiz tasavvur etish mumkin emas.

Bozor iqtisodiyoti davrida banklar Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek iqtisodiyotning qon tomirlari hisoblanar ekan, ular faoliyatini tartibga solish, muvofiqlashtirish muhim masalalardan bir bo'lib qolaveradi. Chunki, banklar iqtisodiyotda kredit munosabatlari va hisob-kitoblarda vositachi vazifasini bajarar ekan, barcha iqtisodiy sub'ektlarning barqaror faoliyat yuritishi bank tizimining barqarorligi bilan chambarchas ravishda bog'liq bo'lib qoladi. Banklar ish yurituvchilar faoliyatining uzlusizligini ta'minlash maqsadida ularni doimiy ravishda kredit mablag'lari bilan ta'minlab turadilar. Bundan tashqari barcha iqtisodiy sub'ektlar o'rtasidagi hisob-kitoblar banklar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi va samaradorligini bank faoliyatjisiz, uning barqaror rivojisiz amalga oshirish mumkin emas.

Banklar barqaror va samarali faoliyat yuritmasa uning mijozlari o'z faoliyatini uzlusizligini ta'minlashning iloji bo'lmay qoladi. Mijozlar faoliyati ko'p jihatdan banklarning likvidliligi, to'lov qobiliyati va samarali faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Yuqorida bildirilgan fiklarning barchasi banklar faoliyati bilan butun iqtisodiy jarayonlarning uzlusiz ravishda bog'liqligini bildiradi.

Shunday ekan, banklar faoliyatini izchil, chiqur va ilmiy asoslangan ravishda uzlusiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash muhim iqtisodiy masalalardan bir bo'lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo‘ladi. Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo‘lgan mablag‘lar va ularning manbalari, o‘z mablag‘lari hamda majburiyatlarini tarkibi, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash masalalari, ushbu mablag‘larni samarali yo‘naltirish, bankning likvidliligi, to‘lov qobiliyatini ta’minlash asoslari kabilar chuqur o‘rganilmog‘i zarur.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, Bank faoliyati tahlili fanining predmeti, bank faoliyatini o‘zida aks ettiruvchi iqtisodiy jarayonlarni uzsluksiz ravishda o‘rganishdan iboratdir.

Bank faoliyati tahlili fani banklarda muomaladagi bo‘s sh mablag‘larni o‘ziga jalb etish, o‘z mablag‘larini to‘plash va boshqarish, jamlangan passivlarning aktiv operatsiyalarga joylashtirish, aktivlarni boshqarish daromad va xarajatlarni shakllantirish hamda mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rganadi.

Har qanday tahlil kabi, banklar faoliyati tahlili jarayonida birinchidan haqiqiy holat o‘rganiladi, ikkinchidan haqiqiy holat normativ ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi uchinchidan olingan natijalarga ta’sir etuvchi omillar va ular ta’sirining bank faoliyatiga ta’siri tahlil qilinib faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan bank boshqaruviiga takliflar tayyorlanadi. Shunday ekan, Bank Boshqaruvi tomonidan bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun qabul qilinadigan qarorlari albatta bank faoliyati tahlil natijalariga asoslanadi. Qabul qilingan qarorlarning samarasи faoliyat tahlili natijalarining nechog‘lik to‘g‘riligiga proporsional ravishda bog‘liqdir.

Bank faoliyati tahlilining asoslari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- birinchidan, bank balansi ma’lumotlari;
- ikkinchidan bank daromad va xarajatlari (moliyaviy natijalar) balansi;
- uchinchidan bank buxgalteriyasi analistik va sintetik hisob raqamlari ma’lumotlari.

Bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlardan bir bo‘lib, banklarda kunlik balans hisobotlari tuziladi. Har bir ish kuni oxirida, bankning har bir filiali tomonidan balans tuziladi va u Respublika Boshqaruvi tomonidan umumlashtiriladi. Bu holat bank faoliyatini tezkor ravishda tahlil qilib borish imkoniyatini yaratadi.

Bankning daromadlari va xarajatlari balans ma'lumotlariga asosan uning daromadlari manbalari, miqdori, xarajatlarining turlari va hajmi hamda faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi.

Bank faoliyatini operativ (tezkor) tahlil qilishda analitik va sintetik hisob raqamlar oboroti va qoldig'idan foydalanadi. Shunday ekan, 1,2,3 ilovalarda keltirilgan ma'lumotlar bank faoliyatini tahlil qilishning asosini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyat yurituvchi korxona faoliyati tahlilidan asosiy maqsad faoliyat samaradorligi oshirishdan iboratdir.

Bank faoliyati tahlilin amalga oshirishdan ham bosh maqsad bo'lib, bank faoliyati samaradorligini oshirishga erishishdan iboratdir.

Bank faoliyati natijasida olinadigan sof foydaning miqdori oshishini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlarning ishonchini qozonish va bank aktsionerlariga to'lanadigan dividentlar miqdorini oshirib borish uchun bank faoliyati domiy va uzluksiz ravishda tahlil qilib borilishi lozim.

Bosh maqsadga erishish uchun bank faoliyatining barcha jihatlari uzluksiz ravishda tahlil etilishi, uning natijalari to'g'ri va aniq talqin qilingan holda Bank Boshqaruviga xulosa chiqarish va qaror qabul qilish uchun muntazam ravishda taqdim etib borilmog'i lozim. Bank strategiyasini belgilash, Bank Boshqaruvi, Kuzatuv kengashi va Aktsionerlarning umumiyligi yig'ilishi qarorlari ham bank faoliyati tahliliga asoslanadi va ushbu qabul qilingan qarorlar samaradorligini belgilab beradi.

## **6.2. Bank majburiyatlarining tarkibiy jihatdan tahlili.**

Avvalambor shuni yana bir bor eslatib o'tishni lozim topdikki, bank resurslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalari - passiv operatsiyalar deyiladi.

Passiv operatsiyalar bank oborotiga chetdan mablag'lar jalb etish va o'z mablag'larini tashkil etish bilan bog'liq operatsiyalardan iboratdir. Bank resurslari uning majburiyatları va o'zining kapitalidan tashkil topadi. Bank faoliyatining yana bir asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning resurslari asosan chetdan jalb etilgan majburiyatlaridan tashkil topadi.

1-jadval

“A” Bankning chetdan jalb etilgan va o‘z mablag‘lari tarkibi<sup>4</sup>

| № | Ko‘rsatkichla<br>r                    | 01.01.2016y.             |                    | 01.01.2017y.             |                    | O‘zgarishi<br>01.01.2017 y.<br>01.01.2015 y. Dan |                 |
|---|---------------------------------------|--------------------------|--------------------|--------------------------|--------------------|--|-----------------|
|   |                                       | Summ<br>a<br>mln<br>so‘m | Salmo<br>-g‘i<br>% | Summ<br>a<br>mln<br>so‘m | Salmo<br>-g‘i<br>% | Summad<br>a<br>mln<br>so‘m                       | Salmoq<br>-da % |
| 1 | O‘z<br>mablag‘lari                    | 3910                     | 8,8                | 4100                     | 9,1                | 190  | 4,9             |
| 2 | Chetdan jalb<br>etilgan<br>mablag‘lar | 40510                    | 91,2               | 41000                    | 90,9               | 490  | 1,5             |
| 3 | <b>JAMI:</b>                          | <b>44420</b>             | <b>100</b>         | <b>45100</b>             | <b>100,0</b>       | <b>680</b>                                       |                 |

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “A” bank passivining asosiy qismi, 1 yanvar 2016 yil holatiga 40510 mln so‘m ya’ni 91,2 foizi 2017 yil

1 yanvar holatiga 41000 mln so‘m yoki 90,9 foizi chetdan jalb etilgan mablag‘lar qolgan qismi esa (8,9% va 9,1%) o‘z mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan. Tahlil etilayotgan davrda o‘z mablag‘lari 1900 mln so‘m ya’ni 4,9 foizga, chetdan jalb qilingan mablag‘lar esa 490,0 mln. so‘m ya’ni 1,2 foizga o‘sgan.

Bank majburiyatları qoldig‘i bank balansining ikkinchi bo‘limida aks ettiriladi. Bank majburiyatları ularning o‘ziga xos-xususiyatlari, manbalari va muddatlari hisobga olingan holda asosan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- Talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlar;
- Jamg‘arma depozitlar;
- Muddatli depozitlar;
- Boshqa banklarning hisobraqamlari;
- Olingan qisqa muddatli kreditlar;
- Olingan uzoq muddatli kreditlar;
- Mijozlarning boshqa depozitlari.

Ushbu guruhlarga hisobvaraqlar, ularning manbalari nuqtai-nazaridan yana bir necha hisobraqamlardan tashkil topadi.

<sup>4</sup> “A”tijorat banki shartli ravishda olingan.

**2-jadval**

**«A» Bankning chetdan jalb etilgan mablag‘lari tarkibi va dinamikasi**

| №  | Balans hisob varagi | Ko‘rsatkichlar                                 | 01.01.2015y.           |            | 01.01.2016y.          |            | O‘zgarishi<br>01.01.2011<br>y.da<br>01.01.2010 y.<br>ga nisbatan |
|----|---------------------|--|------------------------|------------|-----------------------|------------|--|
|    |                     |  | Qoldig‘i<br>mln. so‘m. | Salmog‘i % | Qoldig‘i<br>mln.so‘m. | Salmog‘i % |  |
| 1. | 20200               | Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar | 6100                   | 15,1       | 6100                  | 14,9       | - -  |
| 2. | 20400               | Jamg‘arma depozitlar                           | 1140                   | 2,8        | 1000                  | 2,4        | -140 -12,3   |
| 3. | 20600               | Muddatli depozitlar                            | 7900                   | 19,5       | 7700                  | 18,8       | 200 -2,5   |
| 4. | 21000               | Boshqa banklarning hisobraqamli                | 4400                   | 10,5       | 4100                  | 10,0       | -300 -6,8  |
| 5. | 21600               | Olingan qisqa muddatli kreditlar               | 3600                   | 8,9        | 3900                  | 9,5        | 300 8,3  |
| 6. | 22000               | Olingan uzoq muddatli kreditlar                | 15100                  | 37,3       | 14600                 | 35,6       | -500 -3,3  |
| 7. | 22600-29800         | Mijozlarning boshqa depozitlari                | 2270                   | 5,5        | 3600                  | 8,8        | 1330 58,6  |
|    |                     | <b>JAMI:</b>                                   | 40510                  | 100,0      | 41000                 | 100,0      | 490 1,2  |

Shuning uchun ham har bir hisobvaraq qoldiqlari alohida tahlil etilishi lozim bo‘lgan taqdirda ularning tarkibi ushbu hisobvaraq tarkibiga kiruvchi hisobraqamlar qoldiqlariga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bank majburiyatlarini tahlil etishda asosiy e’tibor ularning tarkibi, dinamikasi va barqarorlik darajasiga qaratiladi. Yuqorida ma’lumotlarga

qaraganda bankning talab qilib olingunicha saqlanadigan depozitlari miqdori tahlil qilinayotgan davrda o‘zgarishsiz qolgan. Lekin jamg‘arma depozitlari miqdori 140 mln.so‘m ya’ni 12,3 foizga, muddatli depozitlar esa 200 mln so‘m, ya’ni 2,5 foizga kamayib ketgan. Shu bilan birga, boshqa banklarning hisobraqamlaridagi mablag‘lar 300 mln so‘m 6,8 foizga va olingan uzoq muddatli kreditlar ham 500 mln so‘m 3,3 foizga kamayganligi kuzatilgan. Tahlil qilinayotgan davrda mijozlarning boshqa depozitlari miqdori 1330 mln so‘m ya’ni 58,6 foizga o‘sgan. Bankning jamg‘arma va muddatli depozitlarining kamayib ketishi, uning depozit siyosatida kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Jamg‘arma va muddatli depozitlar bank uchun eng barqaror resurslardan hisoblanadi. Ularning barcha depozitlar hajmida salmog‘ining qisqarishi bank depozit bazasining barqarorlik darajasining pasayib borishidan dalolat beradi. Bank tomonidan jamg‘arma va muddatli depozitlarni jalb etish borasida muhim chora va tadbirlar belgilanishni talab etiladi. Boshqa banklar hisobraqamlarida pul mablag‘larining kamayishi, ushbu bankning boshqa banklar bilan korrespondentlik munosabatlarining qisqarib borishini bildiradi.

Olingen uzoq muddatli kreditlar salmog‘ining kamayishi ularning o‘z muddatlarida qaytarilganligini bildiradi. Lekin bank uning likvidligini ta’minalash,

oldiga qo‘ygan rejalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hollarda Markaziy bank va boshqa Banklarning uzoq muddatli kreditlariga doimo ehtiyoj sezadi.

Talab qilib olinadigan depozit mablag‘larining o‘zgarmasligi ko‘p hollarda uning mijozlari tarkibi va ular faoliyatida sezilarli darjada rivojlanish bo‘lmaganligini bildiradi. Bank o‘zining mijozlari tarkibini son va sifat jihatidan yaxshilab borishiga e’tibor qaratmog‘i lozim bo‘ladi.

Tahlil qilinayotgan davrda bankning mijozlar boshqa depozitlari miqdorining 58,6 foizga oshganligi kuzatilgan. Uning sabablarini aniqlash uchun bank balansida 22600 - mijozlarning boshqa depozitlari, 22800 – forward, option, fyuchers, svop operatsiyalarida realizatsiya qilinmagan zararlar, 23200-kliring transaktsiyalari, 23400- hukumat hisobraqamlari daromad va boshqa tushumlari, 23600-bank tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatbaho qog‘ozlar, 29800-boshqa majburiyatlar tarkibi o‘rganilmog‘i lozim bo‘ladi.

Biz tahlil qilayotgan bankda mijozlarning boshqa depozitlari mablag‘alarining o‘sishi asosan 22618 - jismoniy shaxslar plastik kartochkalari bo‘yicha majburiyat, 22600 - korporativ plastik kartochkalar

bo‘yicha majburiyatlar, 23218 - Moliya Vazirligi Fondidan ajratilgan maqsadli mablag‘lar, 23220 - Moliya Vazirligi maxsus Fondidan olingan mablag‘alar, 23222 - Moliya Vazirligining maqsadli mablag‘lari hisobiga tashkil topgan . Bu holat hisobot davrida plastik kartochkalar muammosi yo‘lga qo‘yilganligi va bank mijozlari orasida Moliya Vazirligi qoshida tashkil etilgan qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishi fondi mablag‘laridan foydalanuvchi paxta va g‘alla etishtiruvchi fermer xo‘jaliklarining ko‘payganligini bildiradi.

Bank majburiyatlar tarkibida olingan qisqa muddatli kreditlarning o‘sishi, asosan bankning joriy likvidligi holatini yaxshilashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, bank keyingi yil uchun o‘zining depozit siyosatini ishlab chiqishda mijozlari tarkibini barqarorlashtirishga, jamg‘arma va muddatli depozitlar jozibadorligini oshirishga hamda uzoq muddat foydalanishi mumkin bo‘lgan muomalaga chiqariladigan obligatsiya va depozit sertifikatlarining jozibadorligini oshirishga e’tibor qaratilmog‘i lozim.

### **6.3. Bank aktivlari tarkibining tahlili**

Ma’lumki, bank resurslarini joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar, aktiv operatsiyalar deyiladi, boshqacha qilib aytganda bankning aktiv operatsiyalari bu bank tomonidan foya olish maqsadida o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘larni samarali yo‘nalitishdir.

Ko‘pchilik iqtisodiy adabiyotlarda bankning aktiv operatsiyalari deganda eng avvalo resurlarni daromad olish maqsadida yo‘naltirilgan aktivlar ya’ni qimmatbaho qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar, kreditlar, lizing va faktoring operatsiyalari nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bank aktiv operatsiyalari daromad keltiruvchi aktivlarni ko‘paytirish, ya’ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash bo‘lib, hisoblanadi. Bundan tashqari, bank aktivlariga uning faoliyatini xavfsiz va samarali tashkil etish uchun zurur bo‘lgan kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlari va majburiy zaxira fondidagi mablag‘lar, boshqa banklar bilan vakillik hisobraqamlari qoldiqdari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kambaholi tez eskiruvchi buyumlar kabi aktivlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Bankning aktiv operatsiyalarini to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

-kredit operatsiyalari, buning natijasida bankning kredit portfeli shakllanadi;

- investitsiya operatsiyalari, investitsiya portfelini shakllantirish uchun asos bo‘ladi;

- kassa va hisob-kitob operatsiyalari, bank o‘z mijozlariga ko‘rsatadigan asosiy xizmat turlari;

- boshqa aktiv operatsiyalar, ya’ni barcha bank operatsiyalarini samarali amalga oshirishga tegishli infrastruktura yaratish bilan bog‘liq operatsiyalar.

- Bank aktivlarining tarkibi deyilganda balans yakuniga nisbatan har xil sifatdagi aktivlar salmog‘i tushuniladi.

Bank aktivlari holati, dinamikasi, samaradorligi kabi masalalar doimiy ravishda tahlil etilmog‘i lozim. Shu bilan birga aktivlarning likvidliligi, daromadliligi va risklilik darajasi tahlili faoliyat muvoffaqiyatining garovi hisoblandi. Bank aktivlarining uning passivlari bilan mutanosibligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bank aktivlari uning xodimlari, auditorlar va markaziy bank tomonidan o‘rganilib, tahlil qilib borishning davr talabi bo‘lib, qoladi.

Har qanday bank ham o‘zining aktivlarining tarkibini samarali shakllantirishda ma’lum bir muammolarga uchraydilar. Bank aktivlarining sifati, aktivlarning maqsadga muvofiq tuzilishiga, likvidligi, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasiga, riskli aktivlarning hajmiga, muammoli va sifatsiz aktivlarning salmog‘i va aktivlarning o‘zgaruvchanlik sifatlariga bog‘liq.

Bank aktivlarini tahlil qilganda quyidagilarni aniqlash lozim:

- Bank aktivlarining umumiyligini qoldig‘i hisobot davrida qancha o‘zgarganligini;

- aktivlarning tarkibini – mablag‘lari asosan qaysi aktivlarga sarflanganini;

- Bank aktivlari tarkibining hisobot davrida (tahlil qilinayotgan davrda) qanchalik o‘zgarganligini va ularning o‘zgarish sabablarini;

- Bank aktivlarining likvidligini;

- Bank aktivlarining samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini hamda ularning hisobot va o‘tgan davrdagi tafovutlarini;

- Bank aktivlaridan samarali foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni (ijobiyligi va salbiyligi) hamda foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini.

Bu ko‘rsatkichlarni aniqlab tahlil qilib, bank aktivlaridan foydalanish samadorligini oshirish yo‘llarini belgilash lozim bo‘ladi.

Bank aktivlarining holati uning faoliyati davomida o‘zgarib turadi. Bank aktivlarining holati ijobiyligi yoki salbiyligi tamonga o‘zgarishi mumkin. Bank aktivlarining qanday o‘zgarishi aktivlarni boshqarishga va to‘g‘ri

yo‘naltirishga bog‘liq. Shuning uchun ham bank aktivlarining holatini muntazam ravishda o‘rganib, ularning o‘zgarishini tahlil qilib borish lozim.

Tahlilda birinchi navbatda bank aktivlarining umumiy summasi hisobot davrida qanchalik o‘zgarganligini (ko‘paygan yoki kamayganligini) aniqlash, undan keyin esa o‘zgarish sabablarini aniqlash lozim.

Asosiy e’tibor aktivlarlar tarkibining o‘zgarishiga qaratilmog‘i lozim. Bunda daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlar, likvid yoki nolikvid aktivlar holati to‘liq talqin qilinmog‘i lozim. Bundan tashqari, bank aktivlari tarkibida bank faoliyati uchun umuman keraksiz aktivlar mavjudligi va ularni “ishchan” aktivlarga aylantirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi lozim. Kredit garoviga olingan mol-mulklar, ombordagi keraksiz asbob-uskunalar va vaqtincha foydalanilmayotgan bino-inshoatlar shular jumlasiga kiradi.

**“A” Bankning aktivlari holati va dinamikasi**

| №  | Ko‘rsatkichlari   | 01.01.2016y.              |              | 01.01.2017y.              |              | Farqi            |       | O‘zg arishi % |
|----|---|---------------------------|--------------|---------------------------|--------------|------------------|-------|---------------|
|    |   | qoldi g‘i<br>mln.<br>co‘m | ulush<br>i % | qoldig<br>‘i mln.<br>co‘m | ulush<br>i % | mln.<br>co‘<br>m | %     |               |
| 1. | Kassadagi naqd pullar va boshqa to‘lov hujjatlari (10100) | 1728                      | 3,89         | 1560                      | 3,46         | -168             | -0,43 | -9,7          |
| 2. | Bankning O‘zRMB hisobvaraqlari (10300)                    | 2037                      | 4,59         | 2150                      | 4,77         | 113              | 0,18  | 5,5           |
| 3. | Bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlariga (10500)      | 593                       | 1,33         | 593                       | 1,31         | 0                | -0,02 | 0             |
| 4. | Davlat obligatsiyalari (10700)                            | 55                        | 0,12         | 55                        | 0,12         | 0                | -0,01 | 0             |
| 5. | Qimmatli  | 342                       | 0,77         | 320                       | 0,71         | -22              | -0,06 | -6,2          |

|     |   |                   |            |              |            |            |          |            |
|-----|---|-------------------|------------|--------------|------------|------------|----------|------------|
|     | qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar (10800)  |                   |            |              |            |            |          |            |
| 6.  | Sotib olingan debitorlik qarzları –faktoring (11100)  | 18                | 0,04       | 0            | 0          | -18        | -0,04    | 0          |
| 7.  | Kreditlar (12100; 12500; 12600; 12700; 13100; 14500; 14900; 15000; 15100; 15200; 15300; 15400; 15500. | 2889<br>5         | 65,05      | 28240        | 62,62      | -655       | -2,43    | -2,3       |
| 8.  | Lizing (15600)  | 2021              | 4,55       | 2860         | 6,34       | 839        | 1,79     | 41,5       |
| 9.  | Asosiy vositalar (16500)  | 5059              | 11,39      | 5280         | 11,71      | 221        | 0,32     | 4,4        |
| 10. | Nomoddiy aktivlar (16600)   | 162               | 0,36       | 162          | 0,36       | 0          | -0,01    | 0          |
| 11. | Boshqa aktivlar (19900)   | 3510              | 7,901      | 3880         | 8,603      | 370        | 0,70     | 10,5       |
|     | <b>JAMI:</b>  | <b>4442<br/>0</b> | <b>100</b> | <b>45100</b> | <b>100</b> | <b>680</b> | <b>0</b> | <b>1,5</b> |

Bankning aktivlari holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, eng likvid sanalgan kassadagi naqd pullar yil davomida 1,7 mlr so‘mdan 1,6 mlrd so‘mgacha kamaygan, ya’ni yil davomida kassadagi naqd pul qoldigi 168 mln so‘mga kamaygan. Markaziy bankdagi mablag‘lar esa aksincha o’sish sur’ati bo‘lgan,

natijada yil davomida 2,03 mlrd so‘mdan 2,15 mlrd so‘m (yoki 105.55%)ga oshgan, bu bankning likvidligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bankning boshqa banklardagi pul mablag‘lari o‘zgarishsiz qolgan ammo uning aktivlardagi tutgan ulushi biroz kamaygan xolos, bundan banklardan pul mablag‘larini oldi-sottisi yil davomida yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rish mumkin. Daromad keltiruvchi aktivlarning faqat lizingdan tashqari barchasi kamayish tendentsiyasini qayd qilgan. Jumladan, davlat obligatsiyalari bilan savdo hajmi yil davomida o‘zgarishsiz qolgan, demak, yil davomida davlatning byudjet mablag‘lari profitsit bilan chiqgan hamda

bank keyinchalik ham foyda olish maqsadida bu aktivlarni sotmagan. Faktoring operatsiyalarini tahlilni ko‘radigan bo‘lsak, bank yil boshida 18 mln so‘m miqdorida debitorlik qarzlarini sotib olgan, yil davomida bu miqdon o‘sman, fikrimizcha bank xodimlari sotib olingan debitorlik qarzini yil davomida uzishga qiyngan, shuning uchun yil oxiriga kelib bu aktivdan zo‘rg‘a qutilgan va yil oxiriga xech qanday vositachilik mablag‘larisiz yopgan. Kredit operatsiyalari bo‘yicha ham shu xolat ya’ni yil davomida kredit hajmi 28.9 mlrd so‘mdan 28.6 mlrd so‘mga kamaygan, kredit operatsiyalarning kamayishi bankning to‘lovga qodirligi hamda likvidlik masalalariga ehtiyojkorlik bilan yondoshganligidan bilish mumkin. Lizing operatsiyalari esa aksincha yil davomida o‘sish sur’atlarini tashkil qilgan. Yil boshida 2 mlrd so‘m miqdorda lizing operatsiyalari amalga oshirilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 2.8 mlrd so‘mni tashkil qildi, ya’ni o‘sish sur’atlari deyarli 1.5 marta yoki 839 mln so‘m bo‘lgan. Demak, korxona yil davomida daromad keltiruvchi aktivlardan lizing operatsiyalarini risksizroq va ko‘proq daromad olish manbasi sifatida ko‘rgan.

Daromad keltirmaydigan hamda likvidlikni ta’minlaydigan aktivlar miqdori ham o‘sigan yil boshida asosiy vositalar 5 mlrd so‘m bo‘lib, yil oxiriga kelib bu 5.2 mlrd so‘mni tashkil qilgan, o‘sish sur’atlari 105 % yoki 221 mln so‘m, bu holni bank yil davomida o‘zining texnologik holatini yaxshilashga qaratilgan siyosati sifatida qarash mumkin. Umuman olganda bank aktivlari yil boshida 44.4 mlrd so‘m bo‘lib, yil oxiriga borib bu 45.1 mlrd so‘mni tashkil qilgani holda 101.5 %ga o‘sigan. Bunga salmoqli ta’sir qilgan lizing operatsiyalari (839 mln so‘m), boshqa aktivlar (370 mln so‘m), asosiy vositalar (221 mln so‘m) va Markaziy bankdan olish kerak bo‘lgan pul mablag‘lari o‘sishini (113 mln so‘m) keltirish mumkin. Kassadagi naqd pullar (-168 mln so‘m) hamda kredit operatsiyalari (-655 mln so‘m)ga kamayishi jami aktivlar miqdorining o‘sishiga salbiy ta’sir o‘tkazgan. Eng asosiysi, bank mutloq likvid mablag‘lar hamda eng ko‘p daromad keltiruvchi aktivlarning keskin kamayishi bankni daromadligini pasaytirgan, ammo likvidligini saqlab qolishiga harakat qilgan, demak, yil davomida bank qandaydir yo‘qotish yoki zararlarni qoplash bilan shug‘ullangan, ikkinchi holda esa bank noto‘g‘ri strategiya tanlovi asosida harakat qilgan.

Bank aktivlari miqdorining tarkibi va dinamikasini o‘rgangan holda, ularga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlar belgilanmog‘i lozim.

Buning uchun aktivlar daromadliligi nuqtai nazaridan ham tahlil etilmog‘i lozim.

**VI-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishdan maqsad.
2. Bank faoliyati tahlilining predmeti.
3. Bank faoliyati tahlilining asoslari.
4. Bank majburiyatlari tarkibi.
5. Bankning aktiv operatsiyalari.
6. Bankning passiv operatsiyalari.
7. Daromad keltirmaydigan aktivlar.
8. Daromad keltiruvchi aktivlar.
9. Aktivlar daromadliligi.
10. Bankning aktivlari holatini tahlili.

## **YII-BOB. TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARI TURLARI VA TAHLILI**

**Reja:**

- 7.1. Bank kapitali va uning tarkibi**
- 7.2. Bank aktivlarini daromadlilik jihatlari tahlili**
- 7.3. Bank aktivlarini risklilik darajasi bo‘yicha tahlili**

### **7.1. Bank kapitali va uning tarkibi**

Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari kapitalining samaradorligini va uning yetarliliginu ta’minlamasdan turib, banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, bank kapitalining mavjudligi bankni tashkil topishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun eng asosiy zaruriyatdan biridir.

Aytish joizki, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro‘y bergen tanglik holatidan boshlangan, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan jahon moliyaviy inqirozi natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik va to‘lov qobiliyati zaiflashib borayotgan bir paytda, banklarning to‘lov qobiliyatini mustahkamlashda bank kapitali va uning yetarlilik darajasi birlamchi zaruriy omil bo‘lib hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta’minlashda tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uning muvofiqligini ta’minlashga erishish muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro bank amaliyotida bank kapitali va uning yetarliliginu ta’minlash masalasiga to‘xtalishdan oldin bank kapitalining iqtisodiy mohiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz.

Bank kapitali murakkab kategoriya sifatida “bank ishi”da muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u bank faoliyatining boshlang‘ich moliyaviy asosi va keyinchalik uning rivojlanishi, barqarorligi hamda xavfsizligini ta’minlovchi manba bo‘lib hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda, tijorat banki kapitali – bu bank faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbasi bo‘lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o‘ziga xos himoya vositasidir.

Bank kapitalining iqtisodiy mazmuni yanada to‘liqroq u bajaradigan funktsiyalarda namoyon bo‘ladi.

Bank kapitalining quyidagi ikkita funktsiyasini ajratib ko'rsatish mumkin:

Himoya funktsiyasi. Bank omonatchilari manfaatlarini himoya qilish bank kapitalining asosiy funktsiyasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismi omonatchilar hisobiga shakllantiriladi.

Himoya funktsiyasi zarar ko'rish xavfi tug'ilganda aktiv rezervlar shakllantirish yo'li orqali bankning to'lov qobiliyatini saqlab qolish, agarda bank tugatilganda omonatchilarga kompensatsiya to'lash imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, bankning keyingi faoliyatiga keng yo'l ochib beradi.

Kapital o'ziga xos himoya yostig'i rolini o'ynab, yirik ko'zda tutilmagan xarajatlar sharoitida bank operatsiyalarini davom ettirish imkoniyatini beradi. Bank kapitalining mavjudligi uning ishonchliligi va likvidliligining birinchi shartidir.

Bank kapitali tartibga soluvchi funktsiyani ham bajaradi. Bank kapitalini tartibga soluvchi funktsiyasi bankning ssuda va investitsion operatsiyalarini chegaralashni nazarda tutadi.

Bank kapitali yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishi uchun quyidagi uchta xususiyatga ega bo'lishi lozim:

U uzoq muddatli bo'lishi zarur (doimiy).

Tijorat banklarining kapitali uzoq muddatli bo'lishi zarur deganda, asosiy e'tibor kapital egasining ushbu mablag'ni istalgan paytda talab qilish imkoniyatining chegaralanganligi nazarda tutilmoqda. Agar bank aktsiyadori istalgan paytda bank kapitalini shakllantirish uchun yo'naltirilgan mablag'ni to'liq yoki qisman qaytarib olsa, bank iqtisodiy jihatdan tang ahvolga tushib qolishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 5 noyabrda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida "Bank muassislarini bank aktsiyadorlari tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar", deya qayd etilgan.

Demak, tijorat banklari ustav kapitaliga qo'yilgan mablag'larni bir yil davomida erkin ishlatisht huquqiga ega.

Bank kapitali majburiy to'lov larga tobe bo'lmasligi kerak.

Tijorat banklari kapitalining majburiy to'lovlardan ozodligi bankning barqaror faoliyat yuritishiga keng imkoniyat yaratadi. Aksincha, bank kapitali soliq, penya va boshqa to'lovlar, shuningdek, bankning majburiyatları bo'yicha tobe bo'lsa, uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kapital doimo iqtisodiy jihatdan xavf ostida bo'ladi. Mazkur holat banklarga o'z nomidan moliya bozorlarida operatsiyalarini

amalga oshirishda, omonatchilar va investorlarni bankka jalb qilishda hamda aholining ishonchini ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank kapitali omonatchilar va kreditorlarning huquqiy manfaatidan mustaqil bo'lishi lozim.

Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida omonatchilar va kreditorlardan juda katta miqdorda mablag'larni jalb etadi. Bank kapitali jalb qilingan mablag'larni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan holatlar bo'yicha omonatchilar va kreditorlarning manfaatiga bevosita bog'liq bo'lmasligi zarur. Ya'ni omonatchilar va kreditorlarning bank kapitaliga nisbatan hech qanday qonuniy yoki bilvosita da'volari mavjud bo'lmasligi zarur.

Tijorat banklari kapitali tarkibini oqilona shakllantirilishi bank kapitalining mustahkamligiga va uning yetarlilikiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Xalqaro Bazel qo'mitasining standartlariga asosan bankning jami kapitali asosiy va qo'shimcha kapitalga ajratiladi. Ushbu standartlar birinchi marta 1988 yilda ishlab chiqilib, amaliyotga 1993 yildan boshlab joriy etilgan.

Bazel standartlariga ko'ra asosiy kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- Ustav kapitalining to'langan qismi (oddiy aktsiyalar qiymati);
- Muddatsiz nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar;
- Emission daromad;
- Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zahira summalar;
- Sof foyda;
- O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi.

Shunisi e'tiborga molikki, xorijiy bank amaliyotida banklarda audit tekshiruvi o'tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

Xalqaro Bazel standartlari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiritiladi:

Kreditlardan ko'rildigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zahiraning riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi;

Qayta baholash zahirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda arning qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zaxira miqdori tushuniladi;

Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatları.

Konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonalarini tashkil etish maqsadiga yo‘naltirilgan qo‘yilmalar.

Bazel andozalari bo‘yicha konsolidatsiyalashgan sho‘ba korxonaları deganda bank qoshida tashkil etilgan, mustaqil balansga ega bo‘lmagan kredit muassasalari (lizing, faktoring, trast, forfeyting kompaniyalari) ko‘zda tutiladi.

Respublikamiz tijorat banklarining kapital tarkibi Markaziy bankning 1998 yil 2 noyabrda tasdiqlangan 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining yetarlilikiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi Nizomida quyidagicha keltirilgan:

**I - darajali kapital quyidagilardan iborat:**

- to‘liq to‘langan va muomalaga chiqarilgan oddiy aktsiyalar;
- nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aktsiyalar. Bu aktsiyalar:
  - muayyan sotib olish sanasi va shartlariga ega emas;
  - egasining hoxishiga ko‘ra sotib olinishi mumkin emas;
  - bank aktsiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi qaroriga muvofiq ularga doir dividendlar to‘lanmasligi mumkin;
  - ular bo‘yicha o‘tgan davrdagi olinmagan (nokumulyativ) dividendlar to‘lanmaydi;
  - qo‘shimcha kapital (kapitalning ortiqcha qismi) — oddiy va imtiyozli aktsiyalar bozor narxining ularning nominal qiymatidan oshib ketishi;
  - taqsimlanmagan foyda;
  - kapital zaxiralar;
  - avvalgi yillar taqsimlanmagan foydasi;
  - joriy yil zararlari.

Ozchilik aksiya egalarining birlashgan korxonalar aktsiyadorlik hisobvaraqlaridagi ulushi. Bu ulush sho‘ba korxonaları hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida umumlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi.

Bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zahirasi.

**II - darajali kapital tarkibi esa quyidagilardan iborat:**

- joriy yildagi sof foyda;
- riskni hisobga olgan holda aktivlar summasining 1,25 foizi va hisob-kitoblardan so‘ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan mikdordagi umumiyligi zahira;

- hisob-kitoblardan so‘ng I darajali 100 foizli kapitaldan oshmagan miqdorda aralash turdag'i majburiyatlar I darajali kapitalga kiritilmagan aralash turdag'i majburiyatlar, jumladan, imtiyozli aktsiyalar agarda ular quyidagi shartlarga javob bersalar, II darajali kapitalga kiritilishi mumkin;

- to‘liq to‘langan bo‘lishi kerak;

- garov bilan ta’milanmagan;

- bank tugatilganda ularga doir talablar bank depozitorlari talablari qondirilganidan so‘ng qondirilishi;

- aksiya egasining tashabbusi bilan va oldindan olingan Markaziy bank ruxsatisiz to‘lanishi mumkin emas;

- bankning har qanday zararlarini qoplashi va bankni to‘lovga qobiliyatsiz deb e’lon qilish huquqini bermasligi;

- agar bank oxirgi 3 chorak mobaynida foyda olmagan bo‘lsa, emitent hohishiga ko‘ra yoki oddiy va imtiyozli aktsiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishda ushbu majburiyatlarga doir dividendlarni to‘lash muddati kechiktirilishi mumkinligi;

- Subordinar qarz, bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo‘lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so‘ng I darajali kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

II darajali kapitalga kiruvchi subordinar qarz to‘lash muddati etib kelgunga qadar oxirgi 5 yil davomida yiliga 20 foizga kamayib borishi shart. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- garov ta’motiga ega bo‘lmaslik;

- bank tugatilayotganda ushbu majburiyatlar bo‘yicha talablar depozitorlar talablari qondirilganidan so‘ng amalga oshirilishi;

- boshlang‘ich to‘lov muddati 5 yildan ortiq bo‘lishi lozim.

Bank kapitalining bosh maqsadi – riskni kamaytirish, «himoya devori» sifatida zararlarni qoplab, bank to‘lovga qobiligini saqlash imkonini berishdir. Shu bilan birga kapital bankni likvidlik muommasidan himoya qiladi va moliyaviy resurslar bozoriga kirish imkonini ta’minlaydi. Zero, yirik kapital bankka barqaror obro‘, omonatchilar ishonchini beradi. Bank kapitali mijozlarning bankka ishonchini mustahkamlaydi va kreditorlarni

Xulosa qilib aytganda, bank kapitali - bu bank tijorat faoliyatining asosi bo‘lib, uning mustaqilligini ta’minlaydi va moliyaviy barqarorligini kafolatlaydi hamda bank risklarining salbiy oqibatlarini engillashtiradi.

Bank kapitali bank balansining passivida joylashgan bo‘lib, bank bankrot holatiga tushganda da’volarni qoplashning muhim qoplash

(zahira) fondi hamda bank operatsiyalarini rivojlanishi uchun moliyalashtirish manbasi bo‘lib hisoblanadi.

Bank barqarorligini ta’minlash, xavf-xatarlarli qo‘yilmalarni sug‘urtalash hamda aktiv va passiv operatsiyalar orasidagi chegaralarni aniqlashda bank kapitali muhim asos hisoblanadi.

Bank kapitali likvidlikning kafolatlangan manbasi bo‘lib, u maksimal jalg qilish mumkin bo‘lgan resurslarni aniqlaydi va kredit operatsiyalarini bajarishda maksimum qo‘yish mumkin bo‘lgan xatarni belgilaydi.

Banklarining o‘z mablag‘lari bank balansining uchinchi bo‘limida aks ettiriladi. Odatda ularni bank kapitali deb ham atashadi.

Bank kapitali tarkibi quyidagilardan iboratdir:

- Ustav kapitali;
- Qo‘shilgan kapital;
- Zahira kapitali;
- Joriy yilning sof foydasi;
- Taqsimlanmagan foyda;

Yuqoridagilarning har biri uning manbalari hisobga olingan holda bir necha elementlardan tashkil topadi (ilova-3 O‘zbekiston Respublikasi Banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari rejasingning uchinchi bo‘limga qarang).

Bankning ustav kapitali asosan uning oddiy va imtiyozli aktsiyalarini sotishdan kelib tushgan mablag‘lardan tashkil topadi. Qo‘shilgan kapital bank aktsiyalarining real va nominal qiymatlari o‘rtasidagi farqlardan tashkil topadi.

Zahira kapitali bank daromadi hisobidan turli riskli aktivlarni qoplash uchun tashkil etilgan jamg‘armalar, kichik korxonalarni imtiyozli kreditlash jamg‘armasi, asosiy vositalar bahosi boshlang‘ich qiymatidan o‘sgan qismi kabilardan tashkil topadi.

Taqsimlanmagan foyda o‘tgan yilgi olingan foydaning taqsimlanmagan qismi yoki ko‘rilgan zararlar hamda joriy yilning foyda yoki zarari hisobidan tashkil topadi.

#### **4-jadval**

#### **Bank ustav kapitalining minimal miqdoriga quyilgan talablar**

| Yillar             | Banklari<br>uchun          | Chet el kapitali<br>ishtirokida<br>ochilayotgan<br>banklar uchun | Xususiy banklar uchun            |
|--------------------|----------------------------|--|----------------------------------|
| 1998y.<br>1 yanvar | 1,5 mln. AQSh<br>dol. ekv. | 1,5 mln. AQSh<br>dol. ekv.                                       | 0,3 mln AQSh dol. ekv.<br>so‘mda |

|                      | So‘mda                                | So‘mda                               |                                   |
|----------------------|---------------------------------------|--------------------------------------|-----------------------------------|
| 1999y.<br>1 yanvar   | 2,0 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda  | 2,0 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda | 0,3 mln AQSh dol. ekv.<br>so‘mda  |
| 2000 y.<br>1 yanvar  | 2,5 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda  | 2,5 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda | 0,3 mln AQSh dol. ekv.<br>so‘mda  |
| 2002 y.<br>1 yanvar  | 2,5 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda  | 2,5 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda | 1,25 mln AQSh dol.<br>ekv. so‘mda |
| 2005 y.<br>1 yanvar  | 5,0 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda  | 5,0 mln. AQSh<br>dol. ekv. so‘mda    | 2,5 mln AQSh dol. ekv.<br>so‘mda  |
| 2008 y.<br>1 yanvar  | 5,0 mln. AQSh<br>dol. ekv.<br>So‘mda  | 5,0 mln. AQSh<br>dol. ekv. so‘mda    | 2,5 mln AQSh dol. ekv.<br>so‘mda  |
| 2009 y.<br>1 yanvar  | 10,0 mln.<br>AQSh dol.<br>ekv. So‘mda | 10,0 mln. AQSh<br>dol. ekv. so‘mda   | 5,0 mln AQSh dol. ekv.<br>so‘mda  |
| 2010 y.<br>1 yanvar  | 10 ,0 mln.Evro<br>ekv. so‘mda         | 10,0 mln.Evro<br>ekv. so‘mda         | 5,0 mln.Evro ekv.<br>so‘mda       |
| 2011 y.<br>1 yanvar  | 10 ,0 mln.Evro<br>ekv. so‘mda         | 10,0 mln.Evro<br>ekv. so‘mda         | 5,0 mln.Evro ekv.<br>so‘mda       |
| 2017 y.<br>1 oktyabr | 100 milliard so‘m                     |                                      |                                   |

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiliginin baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish maqsadida:

2017 yilning 1 oktyabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori yangi tashkil etiladigan:

- tijorat banklariga - 100,0 mlrd.so‘m;
- mikrokredit tashkilotlariga - 2,0 mlrd. so‘m;
- lombardlarga - 500 mln.so‘m etib belgilanishi nazarda tutildi.

Tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar 2019 yilning 1 yanvarigacha ustav kapitallarining minimal miqdorlarini mazkur bandga muvofiq belgilangan minimal talablar darajasiga etkazilishini ta'minlash belgilandi.

Banklari kapitali ularning o'ziga "himoya yostiqchasi" vazifasini bajarilish bilan birga, bugungi kunda ular tomonidan uzoq muddatli investitsiyalar amalga oshirish va uzoq muddatli kreditlar ajratishning manbai bo'lib qoladi. Bank tizimining barqarorligini ta'minlash, bank kreditlari va omonatchilari manfaatlarini himoyalash, banklarning likvidliligi va to'lov qobiliyatlarini mustahkamlash nuqtai nazaridan, dastavval bank faoliyatini boshlash uchun Markaziy bank tomonidan bank kapitalining minimal miqdoriga talablar o'rnatilgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Respublikamiz Banklarning kapitali miqdorini oshirib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Birgina 2009 yil davomida Hukumat dasturi doirasida 6 ta yirik banklarning ustav kapitaliga jami 460,5 mlrd so'mlik mablag'lar yo'naltirildi.

Shu jumladan:

- O'zsanoatqurilishbankka - 64,5 mlrd so'm;
- Mikrokreditbankka – 72,0 mlrd so'm;
- Xalq bankiga – 50,0 mlrd so'm;
- Agrobankka - 50,0 mlrd so'm;
- Asaka bankka – 147,1 mlrd so'm;
- Qishloq qurilish bankka – 76,0 mlrd.so'm.

Banklar kapitali tahlilida asosiy e'tibor kapitalning tarkibi va dinamikasi, uning barqarorligi, yetarliligi va samaradorligi masalalariga qaratilmog'i zarur.

## **7.2. Bank aktivlarini daromadlilik jihatlari tahlili.**

Bank faoliyatining asosiy pirovard maqsadi daromadni maksimal darajada olishdan iboratdir. Shu nuqtai-nazardan olganda, bank aktivlarining daromadliligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank aktivlari faoliyat natijasida daromad keltirishiga qarab; daromad keltiradigan aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi. Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning ssuda portfelini tashkil etadi. Daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga ko'proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashda katta

ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potentsialini mustahkamlash uning mustahkamligiga bog'liqdir. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalari hajmi va bank likvidliligiga bog'liq.

Bankning daromad keltiradigan aktivlarga:

- barcha turdag'i turli xil kreditlar berishga sarflangan mablag'lar;
- DQMO va boshqa qimmatbaho qog'ozlarga sarflangan mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlar, lizing va faktoring operatsiyalri va boshqalar kiradi.

Bank aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti, bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari kredit ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki bankda daromad keltiruvchi aktivlar katorida kreditlardan tashqari, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasiga jalb qilingan mablag'lari ham mavjud. Albatta ushbu aktivlarning ham tarkibini o'rganib chiqish muhimdir. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiyo ko'rsatgich bu daromad keltiruvchi aktivlarning umumiyo aktivlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bankning daromad keltiruvchi asosiy aktivlari bu mijozlarga berilgan kreditlardir. Bankning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi bu davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga jalb qilingan aktivlardir. Banklarning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Bankining aktiv operatsiyalarida daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda aktivlarning qolgan qismini daromad keltirish uchun joylash muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir. Foizli daromad manbai kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas balki bir nechta tarmoqqa joylashtirish kerak. Banklarda daromadlar tarkibini ko'paytirish uchun bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko'paytirish kerak.

Bankning daromad keltirmaydigan aktivlariga qo'yidagilar kiradi;

- kassadagi naqd pullar va boshqa pul mablag'lari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar;
- kapital va boshqa joriy xarajatlar;
- Markaziy bankdagi vakillik va zaxira fondi hisobraqamlar qoldig'i.

**5- jadval.**

**“A” bankning daromad keltiruvchi aktivlari tarkibi va dinamikasi**

| №   | Daromad keltiruvchi aktivlar   | 01.01.2016y.       |           | 01.01.2017y.       |           | Farqi     |          |
|-----|--|--------------------|-----------|--------------------|-----------|-----------|----------|
|     |  | Qoldig‘i mln. so‘m | ulus hi % | Qoldig‘i mln. so‘m | ulus hi % | mln. so‘m | ulushi % |
| 1 . | Davlat obligatsiyalari   | 55                 | 0,2       | 55                 | 0,2       | 0         | 0        |
| 2 . | Qimmatbaho qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar                        | 342                | 1,1       | 320                | 1,0       | -22       | -6,4     |
| 3 . | Sotib olingan debitorlik qarzlari-faktoring                            | 18                 | 0,06      |                    |           | -18       | -100,0   |
| 4 . | Kreditlar- jami:   | 28895              |           | 28240              |           | -655      | -2,3     |
|     | shu jumladan:<br>daromad hisoblanishi to‘xtatilgan muommoli kreditlar; | 102                |           | 110                |           | 8         | 7,8      |
|     | Daromad keltiruvchi kreditlar  | 28793              | 92,2      | 28130              | 89,7      | -663      | -2,3     |
| 5 . | Lizing   | 2021               | 6,5       | 2860               | 9,1       | 839       | 41,5     |
|     | Jami:Daromad keltiruvchi aktivlar.                                     | 31229              | 100       | 31365              | 100       | 136       | 0,4      |

Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog‘ini yuqori bo‘lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalilaniganini ifodalaydi. Bankka daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni tahlil qilish, ularning funktsiyalari iqtisodiy sharoitga bog‘liq holda ular tarkibini o‘zgartirib turish kerakligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon bermoqda. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida faoliyatsiz aktivlarning ko‘pgina qismi faoliyat qilayotgan aktivlarning elementlariga aylanadi, ko‘pincha bu valyuta va harakatsiz aktivlarga tegishlidir. Bank o‘zlarining balanslari strukturasini doimiy ravishda uning daromadliligi nuqtai nazaridan tahlil qilib borishlari kerak.

“A” bankning 01.01.2016 yil holatiga daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi;

daromad keltiruvchi aktivlar

$$\frac{x \text{ } 100\%}{\text{Jami aktivlar}} = \frac{31229 \text{ } x \text{ } 100\%}{44420} = 70,3\%.$$

31365

$$\frac{01.01.2017 \text{ yil holatiga}}{\text{45100}} = \frac{31365}{45100} \text{ } x \text{ } 100\% = 69,5\%.$$

Daromad keltiruvchi aktivlarning bank aktivlaridagi ulushi yil davomida 0,8 foizgi kamaygan. Bankning daromad keltiruvchi aktivlaridan past daromad keltiruvchi lekin nisbatan past riskga ega bo‘lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari yil davomida o‘zgarmagan. Yil boshida 55 mln so‘m so‘m qoldig‘i bo‘lib, yil ohiriga kelib bu qiymat o‘zgarmagan. Biroq aktivlarning ulushidagi qiymati 0.05 %ga kamaygan.

Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar hajmi esa yil boshidagi 342 mln. so‘mdan yil ohiriga borib 22 mln. so‘mga kamayib 320 mln. so‘mni tashkil qilgan, bu ikki holat bilan izohlasa bo‘ladi, birinchidan bank yil davomida yo‘lantirilgan investitsiyalarni miqdorini qimmati qog‘ozlarni sotib olishni kamaytirish hisobiga kamaytirgan yoki ikkinchidan, qimmatli qog‘ozlarga yo‘lantirish kerak bo‘lgan mablag‘larni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga yoki likvidligni ta’minlash maqsadida vaqtincha saqlab turgan bo‘lshi hisobiga kamaygan bo‘lishi mumkin.

Sotib olingan kreditorlik qarzlari ham yil davomida 18 mln. so‘mdan umuman yo‘qotilgan. Demak, yil davomida bank tomonidan o‘tgan yil qoldig‘i asosida qolgan mablag‘larni undirish bilan shug‘ullangan, ehtimol bank undirish vaqtida kechgan qiyinchiliklarni undan kelgusida kelishi mumkin bo‘lgan daromadga almashtirmagan, demak bank yil davomida kreditorlik qarzlarini sotib olmagan.

Bank tomonidan yil boshida berilgan kreditlar qoldig‘i 28,9 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, o‘sha holatga nisbatan 102 mln so‘m (berilgan kreditlarning 0,4 %) ni muammoli kreditlar bo‘lgan, yil oxiriga kelib berilgan kreditlar miqdori 8 mlrd so‘mga kamaygani holda 20,8 mlrd so‘mni tashkil qilgan, ammo bankning muammoli kreditlari miqdori 510 mln so‘m (yil oxiridagi berilgan kreditlarning 2,4 %) bo‘lgan yoki 5 marta

oshgan. Yil boshida daromad keltirayotgan kreditlar jami daromad keltirayotgan aktivlarning 91,6 % ini tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib bu ko‘satkich 43,9 %ga kamaygani holda 49,5 ni tashkil qildi, demak, bankning yil boshida daromad keltirayotgan kreditlari yil davomida o‘tkazilgan kredit monitoringi natijasida kreditlarning sifat ko‘rsatkichlari pasaytirilgan, bu yil boshida daromad keltirayotgan kreditlarning keyinchalik daromad keltirmasligi, foiz to‘lovleri to‘lanmayotgandan muammoli kreditlar ko‘paygan bo‘lishi mumkin.

Bu salbiy holatdir, bank yil davomida muammoli kreditlari ko‘payotganligi sababli kredit berishni kamaytirgan bo‘lishi mumkin.

#### **6- jadval.**

#### **“A” bankning aktiv operatsiyalaridan olgan daromadlari tahlili**

| №            | <b>Daromad keltiruvchi aktivlar</b>          | <b>2016 yil</b>              |                     | <b>2017 yil</b>            |                              | <b>Farqi</b>        |                            |                              |
|--------------|--|------------------------------|---------------------|----------------------------|------------------------------|---------------------|----------------------------|------------------------------|
|              |  | o‘rtacha qoldig‘i (mln.so‘m) | daromad darjasi (%) | daromad miqdori (mln.so‘m) | o‘rtacha qoldig‘i (mln.so‘m) | daromad darjasi (%) | daromad miqdori (mln.so‘m) | o‘rtacha qoldig‘i (mln.so‘m) |
| 1.           | Davlat obligatsiyalari                       | 55                           | 10                  | 5,5                        | 55                           | 10                  | 5,5                        | 0                            |
| 2.           | Qimmatli qog‘ozlarga qilingan obligatsiyalar | 345                          | 6                   | 20,7                       | 331                          | 8                   | 26,5                       | -14                          |
| 3.           | Sotib olingan debitorlik qarzları-Faktoring  | 18                           | 20                  | 3,6                        | 9                            | 20                  | 1,8                        | -9                           |
| 4.           | Daromad keltiruvchi kreditlar                | 26860                        | 20                  | 5372                       | 28461                        | 18                  | 5123,0                     | 1601                         |
| 5.           | Lizing                                       | 1830                         | 16                  | 292,8                      | 2440                         | 16                  | 390,4                      | 610                          |
| <b>JAMI:</b> |  | <b>29108</b>                 | X                   | <b>5694,6</b>              | <b>31296</b>                 | X                   | <b>5547,16</b>             | <b>2188</b>                  |
|              |  |                              |                     |                            |                              |                     |                            | <b>-147,44</b>               |

Bankning 2010-yil davomida olingan aktivlardan daromadlari eng salmoqlisi lizing operatsiyalaridan olingan daromad bo‘lgan. Yil boshida lizing operatsiyalari 2 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, yil davomida 10 marta (yoki 18,9 mlrd so‘mga) ko‘payib 20,1 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Ko‘rinib turibdiki lizing operatsiyalaridan olingan daromad barqaror

bo‘lganligi sababli bank lizing operatsiyalarini eng asosiy daromad keltiruvchi aktivlar sifatiga qaragan.

Bank yil boshida daromad keltiruvchi aktivlarining 91,6 % ini kredit operatsiyalari tashkil qilgan. Ammo yil davomida bank daromad keltiruvchi aktivlarini dfersifikatsiya qilgani holda kredit operatsiyalarining ulushini 91,6 % dan 47,7 %ga kamaygan bo‘lsa, buning hisobiga lizing operatsiyalari yil boshida 6,43 %dan 48,99 % ga oshgan.O‘rganilayotgan davrda bankning Davlat obligatsiyalariga kiritgan mablag‘laridan o‘rtacha 5,5 mln so‘m miqdorda daromad olgan, yil oxiriga ham bu qiymat o‘zgarmay qolgan. Yil boshida qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan mablag‘lardan 21,12 mln so‘m miqdorida daromad olgan bo‘lsa, bank yil oxiriga borib, qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan mablag‘larning yil boshidagi qoldig‘i yil oxiridagi qoldig‘iga nisbatan kamaygan bo‘lsa hamki, daromadlilik darajasi 2 foizga oshganligi samarasida 25,6 mln so‘m daromad oldi. Sotib olingan debitorlik qarzlari bo‘yicha esa daromad yil oxiriga borib olinmagan, bunda faktoring operatsiyalarini yil davomida qilinmaganligi sabab. Daromad keltiruvchi kreditlarning yil boshiga daromadlilik darajasi 20 % bo‘lib 5758,6 mln so‘m daromad olib kelgan, biroq yil oxiriga borib daromadlilik darajasining 2%ga kamaygani hamda berilgan kreditlar miqdorining keskin tushishi natijasida ham kreditdan olingan daromadlilik 663 mln so‘mga kamayib 457,6 mln so‘mni tashkil qilgan. Lizing operatsiyalari esa aksincha yil boshida qilingan lizing operatsiyalari natijasida 323,4 mln so‘m daromadlilik bo‘lsa, yil oxiriga borib bu qiymat 457,6 mln so‘mni tashkil qilgan, bu holatda lizingni yil boshidagi daromadlilik darajasi 16 % yil oxiriga borib ham o‘zgarmagan, lekin lizingning miqdori 839 mln so‘mni tashkil qilgan.

Bankning yil davomida daromad keltiruvchi aktivlarining daromadlilik darajasini tahlili jarayonida yil boshida eng ko‘p daromad keltirgan bu faktoring hamda kredit operatsiyalari bo‘lgan. Yil oxiriga borib esa kredit operatsiyalarining daromadlilik darajasi kamaygan, bu berilgan kreditlar tarkibida shubhali kreditlarning salmog‘i ko‘payib ketganidan bo‘lishi mumkin. Lizing operatsiyalarining daromadlilik darajasi o‘zgarmagan bo‘lsa ham lekin, yil oxiriga qoldig‘ining ko‘pligi sababli daromad keltirgan mablag‘lar qiymati ortgan.

Hisobot yilda bankning aktiv operatsiyalaridan olgan daromadlarining miqdori, asosan lizing operatsiyalarining rivojlanishi hisobiga to‘g‘ri keladi. Bank kelgusi davrda asosiy e’tiborni kredit operatsiyalari sifatini oshirishga va investitsion operatsiyalarni rivojlantirishga qaratishi lozim.

### **7.3. Bank aktivlarini risklilik darajasi bo'yicha tahlili.**

Aktiv operatsiyalar uchun risk darajasi muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki ko'pgina banklar katta foyda izidan quvib, likvidlilikni esdan chiqaradi. Bu yo'nalishda ularga o'z mijozlarining moliyaviy holatini chuqur o'rghanish va to'lovga qobiliyatlilik darajasini tahlil qilishni tavsiya qilish mumkin. Bank risklari aktivlarning qiymatini oshishi yoki pasayishiga sabab bo'ladi. Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan aktivlarni riskka tortish tizimi Xalqaro standartlar sifatida qabul qilingan. Aktivlarning shkalasi bo'yicha riskka tortishda ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Risksiz, ya'ni risk darajasi nolga teng bo'lgan aktivlar. Bunday aktivlarga kassadagi pul mablag'lari, Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob varag'idagi mablag'lar, hukumatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari, Markaziy bankka kayta hisobga olinadigan trattalar kiradi.

2. Risk darajasi 10 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlarga hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari, hukumat tomonidan kafolatlangan obligatsiyalar kiradi.

Ushbu qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lov summasi kafolatlangan. Lekin uzoq muddat davr mobaynida qimmatli qog'ozlar bozorida kurs oshishi mumkin. Bunday sharoitda hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarining daromadlilik darajasi pasayadi.

3. Risk darajasi 20 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlar toifasiga bankning boshqa banklardagi "Nostro" vakillik hisobvarig'ining qoldig'i, inkassatsiya jarayoniga qo'yilgan pul mablag'lari kiradi.

4. Risk darajasi 50 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunga ipoteka bilan ta'minlangan ssudalar, boshqa bankning qimmatli qog'ozlari kiradi. Bo'larga 50 % risk darajasini berilishiga sabab, banklar boshqa tijorat strukturalariga nisbatan yuqori likvidlik va to'lovga qobilikkiga ega bo'lgan muassasalar hisoblanadi. Shu sababli ularga korxona va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlariga qaraganda past risk beriladi.

5. Risk darajasi 100 % ga teng bo'lgan aktivlar:

Bunday aktivlar toifasiga korxona va tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari, mijozlarga berilgan ssudalar, bankning asosiy vositalari kabi aktivlar kiradi.

Aktivlarning risklilik darajasi inobatga olingan miqdoridan bank bank kapitalining yetarlilik darajasini aniqlashda foydalilanildi.

Mijozlarga berilgan ssudalarga 2 xil risk uchraydi: a) kreditni qaytmaslik riski; b) foiz riski.

Bank aktivlarining barchasi riskga moildir. Ushbu risklarni aniqlash va mavjud bank to‘g‘risidagi qonunchiligidan hamda har bir bankning o‘zining olib borayotgan siyosatidan kelib chiqib ushbu risklarni me’yorida saqlashni ta’minlash kerak. Bank aktivlarining tarkibini o‘rganib olinadigan natijaga qarab turli xil risklarni tahlil qilish mumkin. Foiz riskini aktivlarning tuzilishiga qarab, daromadliligiga qarab aniqlash mumkin. Ammo bank ishida asosiy risk bu aniq operatsiyalar bo‘yicha mablag‘larni yo‘qotishdir. Shuning uchun ham ushbu risklarni kamaytirish uchun aktivlarning tuzilishini chuqr o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

Bank aktivlari birinchi navbatda qisqa muddatli kelajakni nazarda tutadi va har kungi bank balansini boshqarish ishi bilan bog‘liqdir. U bank faoliyatida daromadni oshirish va risklarni chegaralashga yo‘naltirilgan. Shuning uchun aktivlarni boshqarishning moliyaviy jihatdan asosiy maqsadi:

- uning daromadini oshirish;
- faoliyatidagi risklarni pasaytirish.

Shuningdek, u uzoq muddatli strategik rejorashtirishda ham muhim rol uynaydi. Bank aktivlarini tahlil qilish uchun muammoli kreditlarni tasniflash asosida berilgan ssudalar va boshqa aktivlarni baholash zarur. Aktivlarni andozaviy, shubhali va zarar keltiradigan turlariga tasniflash tizimi barcha aktivlar reytingini miqdor jihatdan aniqlash, shuningdek, kreditlardan zarar ko‘rish hollariga mo‘ljallangan zahiralar yetarliligini baholash imkonini beradi. Asosan uzoq muddatli ssudalar, naqd pullar va vakillik hisobvaraklari, ssuda va boshqa aktivlar holatiga e’tibor qaratiladi. Bankning aktiv operatsiyalari tahlili daromadlilik, risk darajasi, likvidlilik nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak. Bank taraqqiyoti manbalaridan ma’lumki, bank aktivlari daromadliligi va likvidliligi bir-biriga qarama-qarshidir.

Likvidlilik va uning daromadliligi o‘rtasidagi aloqadorlik tahlili likvidlilik ahamiyatining ustunligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu mezonning ustunligini hisobga olish natijasi ko‘rsatilgan qarama-qarshilikni muvofiqlash-tirishga va bank faoliyatining asosiy maqsadi bo‘lgan foyda olishga erishishga olib keladi.

Bankning faoliyatida aktivlarning tutgan rolini yana ham mukammalroq o‘rganish uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni hisoblash muhimdir:

- Buerda: tashkilotlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va banklarga berilgan kreditlar bo'yicha umumiy kredit koldig'ini hisoblash;
- berilgan kreditlarni ularning muddatlari, tarmoqlarga berilishi va ularning umumiy qarzdagi salmog'i bo'yicha hisoblash;
- ssudalarning o'rtacha foiz stavkalarini hisoblash;
- umumiy ssudalarning ichida muddati o'tgan qarzlarning salmog'i bo'yicha hisoblash.
- bank tamonidan berilgan eng katta kreditlarning hajmini hisoblash;
- berilgan turli darajadagi kreditlarning Markaziy bank yo'riqnomalariga javob berishini hisoblash;
- aktivlardan foydalanish samaradorligi;
- DKAO'S/JAO'S** Bu koeffitsent aktivlarning qancha bo'lagi foyda keltirishini ko'rsatadi.

DKAO'S -daromad keltiruvchi aktivlarning o'rtacha summasi

JAO'S -jami aktivlarning o'rtacha summasi

Ushbu ko'rsatkichlar bankning kredit siyosatning mohiyatini ko'rsatib, bankning aktivlarining maqsadga muvofiq tuzilishini ko'rsatadi, ularning risklilik darajasini va bankning likvidligiga, daromadliligiga, rentabelligiga ta'sirini ko'rsatadi.

Aktivlarni risklilik darajasi inobatga olgan holda amalga oshirilgan tahlil, aktivlar tarkibini boshqarish imkoniyatini beradi, bu esa o'z navbatida bank likvidliligi va to'lovga qobiliyatini ta'minlash asos hisoblanadi.

## **VII-bob bo'yicha o'z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Bank kapitalining iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
2. Bank kapitalining tashkil topish manbalari.
3. Bankning ustav kapitalini tushuntiring.
4. bankning qo'shimcha kapitaliga izoh bering.
5. Aktivlarning risklilik darajasini izohlang.
6. Aktivlarni risklilik darajasini minimallashtirish.

## **VIII-BOB. BANK AUDITINI TASHKIL QILISH ASOSLARI**

**Reja:**

- 8.1. Bank auditining predmeti va metodi.**
- 8.2. Bank auditning maqsadi va vazifalari.**
- 8.3. Respublikada bank auditini shakllanish bosqichlari va rivojlanish ustiqbollari.**

### **8.1. Bank auditining predmeti va metodi.**

Tijorat banklari faoliyati yuqori darajadagi iqtisodiy risklar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Banklar faoliyati asosan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra banklar faoliyatida doimo likvidlilik riski, kredit riski va tizimli risk yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Tijorat banklarining bosh maqsadi - yuqori darajada foyda olishni ta’minlash, bu esa bankni yuqori daromadli, ayni vaqtda, yuqori riskli operatsiya-larni (kreditlar berish, tijorat qimmatli qog‘ozlarini sotish-sotib olish operatsiyalarini va h.k.) amalga oshirishni taqozo etadi. Bularning barchasi pirovard natijada banklar faoliyatida foydalilik va likvidlilik kategoriyalari o‘rtasidagi murakkab, ziddiyatli bog‘liqlikni yuzaga keltiradi.

Tijorat banklarining bankrot bo‘lishi aholining, korxona va tashkilotlarning pul mablag‘larini yo‘qotilishiga olib keladi. Ayniqsa, banklar tizimli bankrot bo‘lishi korxonalarning omma-viy tarzda bankrot bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Oqibatda, birinchidan, aholining, korxona va tashkilotlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchiga putur etadi. Ikkinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatni yomonlashuvi yuzaga keladi. Uchinchidan, hukumatning fiskal manfaatlariga ziyon etadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar tijorat banklarining milliy iqtisodiyotda yuksak va ma’suliyatli mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan ular faoliyatini tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Barcha davlatlarda tijorat banklari faoliyatini makrodara-jada joriy tartibga solish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy bank banklar faoliyatini tartibga solish orqali moliya-bank tizimining yuqori darajadagi likvidliligini, banklarning to‘lovga qobiliyigini ta’minlaydi va bir vaqtning o‘zida uzluksiz faoliyat ko‘rsatadigan to‘lov tizimini yaratish orqali banklarning mijozlarini himoya qiladi.

Tijorat banklari faoliyatiga real baho berish, aksiyadorlar va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to‘g‘risida aniq,

ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshiruvi xulosa va natijalari muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, audit atamasi lotincha "audit" - eshitmoq so'zidan olingen bo'lib, turli mulk shaklidagi korxona va tashkilotlarning buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarining haqqa-niyligini tekshirish jarayonini anglatadi. Audit mustaqil nazo-rat qiluvchi tadbirkorlik sub'ekti sifatida xo'jalik sub'ekti tomonidan berilayotgan moliyaviy axborotlarning haqiqiyligini tasdiqlaydi. Undan kutilgan maqsad xo'jalik sub'ekti faoliyati-ning barcha qirralari bo'yicha faktlarni yig'ish va baholash, hisobotlarini tekshirish, ularning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganini tekshirishdan iborat.

Iqtisodiyotning real sektoridagi korxona va tash-kilotlarda buxgalteriya hisobi yuritilishi va hisobotini tashkil etish metodologiyasi bilan Moliya vazirligi shug'ullanadi. 2000 yil 1 sentyabrdan kuchga kirgan "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga muvofiq "Banklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilanadi» deb mus-tahkamlandi hamda banklar va boshqa kredit tashkilotlarining har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerakligi aniq belgilandi. Shu bilan birga mazkur hujjatda bank auditi bilan shug'ullanadigan auditorlik kompaniyalari va auditorlarga lizensiyalarni Markaziy bank berishi belgilangan.

Bank auditining ob'ekti O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati hisoblanadi.

Bank auditining predmeti O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda va ular faoliyatini baholash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bank auditini o'tkazish usuliga ko'ra 2 xil ya'ni majburiy audit va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi tarzda amalga oshiriladi.

Majburiy audit - Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunning 10 moddasida ko'rsatilgan hollarda o'tkaziladi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi: xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Bank auditini o‘tkazish xususiyatiga ko‘ra tashqi va ichki audit turlariga bo‘linadi:

Ichki audit – bu xo‘jalik ichida uning faoliyati samaradorligini tekshirish va aniqlashda mustaqil baho berishdir. Ichki audit uchun kredit tashkilotining o‘zi yoki uning bir bo‘limi – kredit tashkilotining ichidagi nazorat bo‘limi javob beradi. Uning faoliyati va tekshirish yo‘nalishlari qonun bilan tartibga solinmasdan kredit tashkiloti rahbariyati tomonidan belgilanadi. Ichki auditning maqsadi – bankt xizmatchilariga o‘zlarining majburiyatlarini a’lo darajada bajarishga yordam berishdir. Ichki audit bankka tekshirilayotgan ob’ektlar haqida aniq tahlil, baholash, tavsiya maslahat va ma’lumotlarni beradi. Bank faoliyatida omonatchilar manfaatlarini ximoya qilish va aniq natijalarga erishish maqsadida ichki nazorat tizimi joriy etiladi. Ichki nazorat tizimi bankning ish rejasi, usuli va jarayonlari, foydaning ko‘payishi hamda bank rahbariyati topshiriqlarining aniq bajarilishini ta’minlashni uz ichiga oladi. Ichki audit bank tarkibining tashkilotchilik bulinmasi sifatida tan olingen bulib, bank rahbariyatiga buysunadi. Ichki auditning vazifasi turlicha bulishi mumkin: buxgalteriya hisobini to‘g‘ri olib borishni tekshirish; bank daromadlari va xarajatlari hisobining to‘g‘ri olib borilishini nazorat qilish (foydani to‘g‘ri hisoblash, xarajatlarni uz vaqtida hisoblarda aks ettirish va boshqalar); boshqa muomalalarning qonuniy bajarilishini nazorat qilish va boshqalar. Ichki auditni tashkil etish va o‘tkazish uchun uslubiy topshiriqnomalar yoki yuriqnomalar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Ushbu yuriqnomalar kerakli ish ob’ektlarida nimalarni nazorat qilishni aniqlab beradi. Ichki audit yillik reja asosida olib boriladi. Tekshiruvni tashkil etish va o‘tkazishda ichki audit boshligi tula javobgarlikni uz buyniga oladi. Ichki audit boshqaruv nazorat tizimining bir qismi sifatida qaraladi . Ichki auditorlar rahbariyat oldida hisobot beradi va auditorlar qumitasi bilan to‘g‘ri aloqada bo‘ladi.

O‘zbekiston respublikasi qonunchiligiga ko‘ra banklar tashqi auditorlik tekshiruvidan o‘tish uchun auditorlik kompaniyasini mustaqil tanlaydilar. Yillik hisobotni tasdiqlash maqsadida, har yillik majburiy auditni utkazayotgan auditorlik firma, kredit tashkilotining aksionerlari tomonidan umumiyligi yig‘ilishda tasdiqlanishi lozim. Tasdiqlangan auditorlik firmasi (auditor) hakida malumotlarni, kredit tashkilotlari MBning joylardagi muassasalariga habardor qilish kerak;

Tashqi audit - xo‘jalik yurituvchi sub’ektning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining haqiqiyligini ob’ektiv baholash maqsadida shartnoma asosida auditorlik kompaniyalari tomonidan o‘tkaziladi. Uning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotning to‘g‘riligini, uning xalqaro

standartlarga mosligini tekshirish va u bo'yicha xulosa berishdan iborat. Bundan tashqari tashqi audit xo'jalik yurituvchi sub'ektning xarajatlarini minimallashtirish va foydani maksimallashtirish maqsadida ularning faoliyatini yaxshilash, hisob ishlarini tashkil qilish va qayta tashkil qilish, hisob ishlarini yuritish, soliqqa tortish bo'yicha takliflar beradi. Tashqi audit ichki audit bilan uzaro aloqada olib boriladi. Birinchi o'rinda ichki nazorat faoliyati va tashkilotchiligi baholanadi, bunda ichki auditning ob'ektivlik darajasi, mustaqilligi, bajarilgan ishlar xajmiga e'tibor qaratiladi. Tashqi auditorlar tekshirilayotgan bankning umumiy faoliyatini o'rganadilar. Ob'ektiv baholash uchun eng birinchi o'rinda aktiv va passiv muomalalarning holati ko'rib chiqilishi,

O'zbekistonda bank auditiga katta e'tibor qaratilayotganining o'z sabablari bor. Chunki davlat nazorati organlari-ning tijorat banklarining operatsiyalarni o'tkazish va ularning hisobini rasmiy jihatdan olib borishiga qo'yiladigan barcha ta-lablarga rioya etilishi mamlakat kredit tizimining sifati va ishonchliligin ta'minlaydi. Bu talablar, birinchi navbatda, banklarga jalb etilgan omonatchilar va mulkdorlar kapitalining yo'qotishlar riskini bartaraf etish yoki uni eng past darajaga tushirish sharti bilan bank operatsiyalarining daromadlilagini maqbul darajada ta'minlashga qaratilgan.

Tijorat banklarida o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o'rtasida erkin va sog'lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maq-sadida 1996 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Bank audit tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Aytish mumkinki, mazkur farmon ijrosi respublikada bank auditini shakllantirish va mustahkamlashning amaliy bosqichini boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-3946, respublikamizda bank auditini yanada takomillashuviga va rivojlanishiga xizmat qiladi.

## **8.2. Bank auditning maqsadi va vazifalari**

Bank tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi moliyaviy re-surslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llashni taqozo etadi. Shu bois Markaziy bank tijorat

banklari va ular-ning filiallari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini vaqtি-vaqtি bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e’tibor qaratmoqda. Dunyo bankchilik tajribasining ko‘rsatishicha, tijorat banklari barqarorligini saqlashda tashqi va ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning ichki va tashqi auditni kuchaytirishga nisbatan qo‘yayotgan qat’iy talablari nazorat organlari va moliya-kredit muassasalarining o‘z zimmalariga yuklanayotgan vazifalarni sifatli va o‘z vaqtida bajarishiga sharoit yaratmoqda.

Bank auditning asosiy maqsadi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to‘g‘riliги va qonun hujjatlariga va Markaziy bank me’yoriy hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotni tekshirishdir.

Ichki va tashqi auditdan kutilgan asosiy maqsad ilgariroq ta’kidlaganidek, ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lib, nazorat qilib bo-rishdan iborat. Biroq ular o‘rtasida muayyan farqlar ham borki, bu auditorlar faoliyati xarakteriga bog‘liq. Tashqi audit hisobot tizimini baholash bankning aktiv va passivlarini baholash va tek-shirish, mavjud ichki nazorat tizimini testdan o‘tkazishdan iborat. Tashqi audit tekshirilayotgan bankning taqdim etgan hisoboti va balanslari haqiqatga to‘g‘ri keladimi yoki yo‘qmi, uning moliya-viy ahvoli va muayyan davrdagi faoliyati natijalarini baholash-dan iborat. Chetdan taklif etilgan, mustaqil auditorlik firmlari tomonidan tayyorlangan xulosalar yuqori tashkilotlarga, aksiyadorlar, kreditorlar va hokazolarga mo‘ljallanadi va undan ichki auditorlar ham foydalanadi.

Ichki audit tashqi auditga nisbatan belgilanishi va tashkil etilishiga qarab, boshqacha xarakterga, mazmunga ega bo‘ladi. Ichki audit bank doirasida mustaqil bo‘linma sifatida bank faoliya-tining har kungi faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazib boradi. Umum tomonidan qabul qilingan qoidalarga ko‘ra, ichki audit bankning o‘z majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi, ya’ni birinchi navbatda muammolarning endigina vujudga kelayotgan davrida aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ichki audit boshqaruv quroli, bank operatsiyalarini ichki kuchlar yordamida juda yaqindan kuzatish imkoniyati bo‘lib, boshqaruv maqsadiga erishish kafolatidir. Buning uchun ichki audit xizmati boshqaruvni bajarilgan analiz natijalari haqidagi axborot bilan ta’minlab, bo‘linmalar faoliyatini, har xil yo‘riqlarni tahlil etib, ularga yuzaga chiqayotgan muammolarni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar berib boradi. Ichki audit xizmati xodimlari tashqi auditorlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Ichki audit natijalaridan bank rahbarlari tomonidan amal-dagi qonunlar doirasida mavjud resurslarni hisobga olgan holda joriy ishlarni boshqarishda foydalaniladi. Shu tariqa ichki audit tashkilotning o‘z maqsadiga erishishi uchun xizmat qiladi. Bank faoliyatining ichki audit vazifalari yuqorida sanalganlar-dan farq qilmaydi, ammo bank faoliyatining xususiyatlari, bank mahsulotlari, buxgalteriya hisobi, ishni tashkil etish jarayoni, risk omillarining ko‘pligi bilan o‘zgacha xususiyatga egadir.

Ichki audit jarayonida topshiriqlarning bajarilishi turli-tuman bo‘lib, uning maqsadi va tashkilot faoliyati xarakteriga bog‘liqdir. Qo‘yilgan vazifalarni har xil mezonlarga suyangan hol-da turli yo‘llar, har xil teranlik va detallar bilan echish mumkin. Bunda standartlar katta o‘rin tutadi.

Moliyaviy hisobotlarni audit qilishdan maqsad operatsiyalar buxgalteriya hisobi talablariga rioya etilgan holda bajarilgan yoki bajarilmagani xususida auditor fikrini olishdan iborat. O‘zbekiston, umuman ko‘pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mam-lakatlar tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari haqqoniy-ligini tasdiqlovchi hujjat bu moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlaridir.

Audit xizmatlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qo-nunlari, Markaziy bankning me’yoriy hujjatlari, bankning ichki me’yoriy hujjatlari hamda o‘z nizomlari asosida olib boradi.

Audit xizmati, bugungi kunda, aytish mumkinki, tijorat ban-ki va uning barcha filiallari va boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatini auditdan o‘tkazish orqali Bank kengashiga bank fao-liyati istiqbollari va maqsadlariga erishishda haqiqiy ko‘makchi bo‘lmoqda. Audit xizmati mustaqil tarkibiy tuzilma bo‘lgani bi-lan o‘z faoliyatini bankning boshqa mustaqil boshqarmalari bilan hamkorlikda olib boradi. Audit xizmati bevosita Bank kengashi va uning auditorlik qo‘mitasiga bo‘ysunadi. Audit xizmatining tarkibiy tuzilishi va shtat birligini ham Bank Kengashi tasdiqlaydi.

### **8.3. Respublikada bank auditini shakllanish bosqichlari va rivojlanish ustiqbollari.**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon iqtisodiy integratsiyasiga asta-sekin qo‘sila borishi barcha sohada bo‘lgani kabi auditorlik faoliyatida ham tub o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. SHu boisdan, auditni xalqaro talablarga muvofiq o‘zgartirish keyingi vaqtarda O‘zbekiston uchun tobora dolzarb ishga aylanmoqda. Bozor munosabatlarini jadallashtirishda respublikamizning jahon bozoriga

yanada chuqurroq kirib borishi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishni, iqtisodiy munosabatlarni yanada kengroq amalga oshirish uchun auditorlik faoliyatini xalqaro standatlarga moslashtirishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustakil deb e’lon kilinishi, uning iktisodiy-ijtimoiy yunalishida tub o‘zgarishlar olib keldi. Mustaqillik yillarda auditning shakllanishi va rivojlanishi uchun bir qator islohotlar amalga oshirildi. Avvalambor audit va auditorlik munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza shakllantirildi. Auditning huquqiy asosi ham uni isloh qilish bosqichlariga mos ravishda rivojlanib bordi. Yani audit huquqiy asosining rivojlanishi auditorlik faoliyatini isloh qilishning bosqichlari bilan muvofiq tarzda amalga oshirilib borildi. Moliyaviy tizimda islohotlarni chuqurlashtirish siyosatini izchil amalga oshirish va respublika bozor infrastrukturasini takomillashtirish natijasida respublikada auditorlik faoliyatining kompleks me’yoriy-huquqiy asosi yaratildi, uning faol rivojlanishi uchun amaliy iqtisodiy rag‘batlar va soliq imtiyozlari hamda preferensiyalar yaratilgan, litsenziyalarni berish tizimi jiddiy ravishda soddalashtirildi va erkinlashtirildi.

O‘zbekistonda auditorlik faoliyatini isloh qilishni shartli ravishda 3 bosqichga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin.

- 1 - bosqich 1992-1999 yillarni;
- 2 - bosqich 2000-2006 yillarni;
- 3 - bosqich 2007 yildan – hozirgacha bo‘lgan vaqt ni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida bosqichlarning har birida maxsus dasturlar orqali alohida ishlar olib borilgan. Birinchi bosqichni xususiyati shundan iboratki, unda qonunchilik bazani yaratishga alohida etibor qaratilgan.

1- bosqichdagi dastlabki qadam 1992- yil 9 dekabrda “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bo‘ldi. Ammo bu qonun umumiy auditga xos bo‘lib unda bank auditiga taaluqli qism mavjud emas edi . SHuning uchun 2000- yil 26 mayda “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul kilindi. Qonun 29 moddadan tarkib topgan bo‘dib, unda auditorlik faoliyatini tashkil kilish, uni amalga oshirish tartibi, auditor va audit tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshrish uchun qo‘yilgan malakaviy va litsenziya talablaridan iborat.

Tijorat banklarida o‘tkazilayotgan auditorlik tekshirishlari sifati va ta’sirchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o‘rtasida erkin va sog‘lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996 yil 24 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank audit tizimini rivojlantirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingan edi. Mazkur farmon doirasida Respublikamiz bank auditini mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida o‘tgan davr mobaynida Markaziy Bank tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimiga kiruvchi tijorat banklari auditini o‘tkazish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti tarkibida “Auditni muvofiqlashtirish bo‘limi” tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur Farmonga muvofiq tijorat banklarida audit tekshiruvlarini o‘tkazish, auditorlik firmalari va auditorlarga banklarda audit o‘tkazishga ruxsat berishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida Markaziy Bank tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining bank auditini o‘tkazishga qo‘yadigan talablari to‘g‘risida”gi, “Bank auditini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatni berish, bekor qilish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi bank auditini o‘tkazish uchun sertifikat berish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o‘tkazish komissiyasi to‘g‘risida”gi bir qator nizomlar ishlab chiqildi. Ushbu davrda amalga oshirilgan eng katta ishlardan biri –bu 1997-yilning mart oyidan boshlab xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan yangi bank hisobvaraqlar rejasining amalda joriy qilinishi bo‘ldi.

Bank auditi huquqiy asosining yanada mustahkamlanish yulidagi qadam keyingisi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 1998 yil 4 iyulda 403-sonli “O‘zbekiston Respublikasi banklarida audit tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risida” gi nizomning qabul qilishi bo‘ldi. Ushbu nizomga hozirgacha turli o‘zgartirish kiritildi. Jumladan 1999yil 18 sentyabrda, shuningdek 2000 yil 24 iyulda uning yangi tahriri qabul qilindi. Nizom - bank auditini o‘tkazish tartibi va uni amalga oshirish uchun tegishli litsenziya (1-ilova) va malaka seritifikatini (2-ilova) olishga va uni amal qilishiga doir qo‘yiladigan talablardan tashkil topgan. Nizomga muvofiq bank auditi bilan shug‘ullanish uchun attestatsiya va litsenziyalash Markaziy bank tomonidan, bank auditi bo‘yicha auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun attestatsiya o‘tkazish va litsenziya berish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Auditni isloh qilishning 2- bosqichi 2000-2006 yillarni o‘z ichiga oladi va u 2000- yil 26 mayda “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul kilinishi bilan boshlanadi. Ushbu qonun bank auditini ham qamrab olgan. Bundan tashqari bu davrda o‘n birta auditorlik faoliyatining milliy standartlari ro‘yxagga olindi. Shuningdek mamlakatimizda

“Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori va bir qator auditga oid me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Keyingi auditni isloh qilishning 3- bosqichi 2007 yildan boshlanib hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan davr desak adashmaymiz. Fikrimiz dalili sifatida esa “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-sonli Qarori qabul qilinganligini keltirish mumkin. Ushbu qarorda auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik tashkilotlarini tashkil qilishga oid bir qator talablar belgilangan. Auditorlik tashkilotlari litsensiya talablari va shartlariga rioya qilishini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har uch yilda kamida bir marotaba tekshirib turishi borasida talab joriy qilindi. Auditorlik tashkilotiga esa litsenziyani olgandan keyin litsenziya talablari va shartlariga nomuvonfiqlikni ma’lum muddat davomida bartaraf etish imkoniyati berilgan.

### **VIII-bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Bank auditining predmetini tushuntiring.
2. Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonungan izoh bering.
3. Bank auditining maqsadida nimalar nazarda tutiladi.
4. Bank auditining vazifalariga baho bering.
5. Bank auditini shakllanish bosqichlarini tushuntiring.

## **IX-BOB. TIJORAT BANKLARI OPERATSIYALARINI AUDITORLIK TEKSHURUVIDAN O'TKAZISH TARTIBI**

**Reja:**

- 9.1. Tijorat banklarini hisob-kitob operatsiyalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish tartibi.**
- 9.2. Bankning moliyaviy natijalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish.**

### **9.1. Tijorat banklarini hisob-kitob operatsiyalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish tartibi**

Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqtি-vaqtি bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e'tibor qaratmoqda. Jaxon tajribasi ko'rsatishicha, tijorat banklari barqarorligini saqlashda tashqi va ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning ichki auditni kuchaytirishga nisbatan qo'yayo'tgan qat'iy talablari nazorat organlari va moliya-kredit muassasalarining o'z zimmalariga yuklanayo'tgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarishiga sharoit yaratmoqda.

Ichki audit xizmatini yo'lga qo'yishdan kutilgan maqsad ichki nazorat tizimi, jumladan, moliyaviy hisobotlarni tuzish ustidan nazorat o'rnatishdir. Ichki audit tomonidan bank faoliyati, boshqaruv jarayo'ni sifatini oshirish, bank faoliyatini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan ob'ektiv baho va maslahat berish bankning moliyaviy bozordagi o'rnini mustahkamlashga olib keladi. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish bank kengashining zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ichki nazoratning samaradorligi bilan bog'liq masalalarni vaqtি-vaqtি bilan ko'rib boradi, bankdagi ichki nazorat ahvolini bank menejerlari, ichki auditorlar bilan muhokama etadi. Ichki auditorlar nazorat muassasalarining bankda aniqlangan kamchiliklarni barataraf etishdagi takliflarining bank rahbarlari tomonidan bajarilishini ta'minlaydi, mavjud tavakkalchilik va limitlarning bank strategiyasiga mos kelishini kuzatib boradi. Bank rahbariyati xodimlarning o'z burchlarini og'ishmay bajarishini ta'minlaydigan vakolat va mas'uliyatini aniq belgilab berishi kerak. Chunki bank risklarini nazorat qilish va monitoring qilish uchun birinchi navbatda bank rahbarlari javobgardir.

Ichki audit o'z faoliyatining maqsadlariga erishish uchun asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Bank kengashini audit tekshiruvlariga asoslangan bankning haqiqiy moliyaviy holati va bankning ichki nazorat tizimi samaradorligi to‘g‘risidagi aniq va mustaqil (holis) ma’lumotlar bilan ta’minlab boradi;
- ichki audit tizimining samaradorligi va audit tekshiruvini o‘tkazishga doir qabul qilingan tartib va tadbirlarning amalda qanday qo‘llanilayo‘tgani va ta’sirchanligini baholaydi va tahlil qiladi;
- bank faoliyatida ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun qo‘llanilgan ma’muriy va amaliy tadbirlarning samaradorligini tahlil qiladi;
- tavakkalchiliklarni boshqarishga va ularni baholash uslublariga doir tartiblarning qo‘llanilishi hamda ularning samaradorligini tahlil qiladi;
- moliyaviy ma’lumotlar tizimini, jumladan elektron ma’lumotlar tizimi va elektron bank xizmatlarini tahlil qiladi;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va haqqoniyligini tahlil qiladi;
  - bank faoliyatining amaldagi qonun va Markaziy bankning me’yo‘riy hujjatlari talablariga muvofiqligini baholaydi;
  - bank kengashi tomonidan qabul qilingan ichki siyo‘satlar va bankning ichki me’yo‘riy hujjatlariga rioya qilinishini tekshiradi;
  - doimiy hisobotlarning to‘liqliligi, ishonchliligi va o‘z vaqtida taqdim qilinishini tekshiradi;
  - buxgalteriya kitobi va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riliği va haqqoniyligini o‘rganadi;
  - kapital tarkibi va etarliligi, aktivlar sifati va ssuda portfelini tasniflash asosida zahiralar tashkil qilinishini, balans va balansdan tashqari moddalar tarkibidagi o‘zgarishlar harakati va jihatlarini, bosh bank tomonidan tasdiqlangan moliya rejasi ijrosining bajarilishini, daromadlar tarkibidagi balansning asosiy jihatlarini, boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini tahlil qiladi;
  - bank kengashi talabiga asosan maxsus tekshirishlar o‘tkazadi yo‘ki maxsus tekshirishlar o‘tkazishga yo‘rdam beradi;
  - bank xodimlariga ularning o‘z vazifalarini samarali bajarishda ko‘maklashish;
  - oylik, choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni joriy auditdan o‘tkazish;
  - buxgalteriya, amaliyo‘t va ma’muriy nazorat tizimining monandligini baholashga yo‘rdam beradi.

Bundan tashqari, ichki audit xizmati:

- bank ichki siyo‘sati va boshqa ichki me’yo‘riy hujjatlarini ishlab chiqishda qatnashadi;

- o‘zaro tajriba almashish va malaka oshirish maqsadida boshqa tijorat banklari va tashkilotlarning ichki audit xizmatlari bilan hamkorlik qiladi;

- ma’lumotlarni almashish orqali ichki audit xodimlari tashqi auditorlarga yo‘rdam beradi va ularning ishida ko‘maklashadi;

- o‘tkazilgan audit tekshiruvlari materiallarini umumlashtiradi va auditorlik qo‘mitasiga tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etadi;

- audit o‘tkazish jarayo‘nida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha bank kengashi va boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlarning o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishi ustidan doimiy nazorat olib boradi.

Audit xizmatiga bank kengashi tomonidan tayinlangan bosh auditor rahbarlik qiladi. U audit o‘tkazishni rejalashtiradi, siyo‘sat va jarayo‘nlarni belgilaydi, xodimlar malakasini oshirish va o‘qitish choralarini ko‘radi, sifatga javob beradi.

Bosh auditorning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- audit xizmati faoliyatiga umumiyligi rahbarlik qiladi;

- audit xizmatining tarkibiy bo‘limlari to‘zilishini, ularning lavozim vazifalarini, audit xizmatining nizomini, audit tekshirishlari tartiblarini, audit xizmatining yillik harajatlar smetasini ishlab chiqadi va ushbu hujjatlarning ichki audit standartlariga muvofiqligini ta’minlaydi;

- audit xizmatiga malakali xodimlarni jalb qiladi va ular faoliyatini bevosita boshqaradi;

- audit xizmati xodimlarining malakalarini oshirish choralarini ko‘rib boradi;

- bank kengashi va auditorlik qo‘mitasiga audit xizmati faoliyatini bo‘yicha doimiy hisobotlar berib boradi;

- bosh auditor lavozim yo‘riqnomasida qayd etilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

- Audit xizmati xodimlarining huquq va vakolatlarining aniq belgilanishi o‘z faoliyatini sifatli va samarali bajarilishini ta’minlaydi.

Tekshiruv davomida ular:

- tekshirish o‘tkazish maqsadida bosh bank va bank filiallarining barcha bino va xonalariga, shu jumladan kassa tarmog‘i, pul almashtirish shoxobchalari, jamg‘arma kassalariga to‘siqsiz kirish;

- bank faoliyatiga tegishli bo‘lgan va audit tekshiruvi predmeti hisoblangan barcha zarur hujjatlarni bank va bank filiallari rahbarlari hamda xodimlaridan talab qilish;

- tekshirish davomida bank va uning filiallari rahbarlari, xodimlaridan yuzaga kelgan savollar bo'yicha tushuntirishlar olish, zarur hollarda ulardan yo'zma tushuntirishlar olish;

- hujjatlardan nusxalar olish; zarur hollarda, belgilangan tartibda (kelgusida saqlanishi gumon bo'lган) hujjatlarning asl nusxalarini olib qo'yish;

- alohida bank operatsiyalari va hujjatlari tekshirilayo'tganda rasmiy so'rovnama orqali bank mijozlaridan zarur ma'lumotlar, tasdiqnomalar va hujjatlarni talab qilib olish huquq va vakolatlariga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, tekshirish jarayo'nida aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha filialarga nisbatan tegishli choralar ko'riliши to'g'risida bank kengashiga takliflar kiritib borishi lozim.

Audit xizmati xodimlari bank faoliyatining barcha qirralarini tekshirish huquqi o'z navbatida, ularga muayyan majburiyatlar ham yuklaydi, hisobotlarning to'g'ri va haqqoniy to'zilishida katta mas'uliyatga ega bo'ladilar.

Bu jihatdan ular:

- bank muassasasida tekshirish o'tkazish haqidagi farmoyish va xizmat guvohnomasiga ega bo'lishi;

- bank va uning filiallarida o'tkazilgan tekshirish jarayo'nida ma'lum bo'lган bank va tijorat sirlarining maxfiyligini ta'minlashi;

- audit tekshiruvlarini mutlaq mustaqil ravishda olib borishi;

- audit tekshiruvlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazishi;

- tekshirish natijalari bo'yicha o'z vaqtida holis audit hisobotlarini tayyo'rplash va taqdim etishi;

- audit tekshiruvi o'tkazishga doir Markaziy bank me'yo'riy hujjatlari va bankning ichki me'yo'riy hujjatlariга rioya qilishi lozim.

- Shu bilan birga ichki audit xizmati xodimlari:

- tekshirish natijalarini bo'zib ko'rsatgani, bank va uning filiallari moliyaviy holatiga holis baho bermagani;

- tekshirish jarayo'nida ma'lum bo'lган bank va tijorat sirlarining maxfiyligini ta'minlamagani;

- tekshirish davomida olingen hujjatlarning butligi va qaytarilishini ta'minlamagani uchun ichki audit xizmati xodimlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bankning tegishli ichki me'yo'riy hujjatlariга binoan javobgar bo'lishi lozim.

Alohida bank operatsiyalari va hujjatlari tekshirilayo'tganda rasmiy so'rovnama orqali bank mijozlaridan zarur ma'lumotlar, tasdiqnomalar va hujjatlar ham talab qilib olinishi mumkin. Filiallar faoliyati auditdan

o'tkazilayotganda ayrim holatlarda hujjatlardan nusxalar olinishi, zarur hollarda esa belgilangan tartibda hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng, hujjatlarning asl nusxalari olinishi mumkin. Auditorlar tekshiruv o'tkazish jarayonida ayrim holatlar bo'yicha yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan filial xodimlaridan tushuntirish xatlari talab qilishi mumkin.

Audit tekshiruvining so'nggi bosqichida tekshiruv materiallari umumylashtirilib, dalolatnoma rasmiylashtiriladi va ushbu hujjat auditda qatnashgan barcha audit xizmati xodimlari hamda filial rahbariyati tomonidan imzolanadi. Filial rahbarlari ushbu materiallarni imzolashdan bosh tortgan hollarda esa yo'zma ravishda tushuntirish berishlari shart.

Amaliyot kassalari bo'yicha tuzilgan materiallar maxfiyligi tufayligi alohida dalolatnoma rasmiylashtiriladi hamda ushbu hujjat filial kassasida ishtiroy etgan auditorlar va kassa uchun mas'ul filial xodimlari tomonidan imzolanadi. Ushbu hujjatning birinchi nusxasi filialning maxsus bo'limi orqali Bosh bankka jo'natiladi hamda uning to'laligicha va o'z vaqtida jo'natilishi uchun filial rahbarlari javobgar isoblanadi.

Audit tekshiruvlari tugashi bilan audit xizmati tomonidan qisqa muddat ichida auditorlik hisobotlari tayyo'rланади. Ushbu hisobotlar bevosita Auditorlik qo'mitasiga taqdim etiladi. Boshqarmalarga tegishli bo'lgan audit xizmatining materiallarida aks ettirilgan kamchiliklar yuzasidan ularni bartaraf etish bo'yicha qanday tadbirlar ishlab chiqilishi, kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan qanday choralar ko'riliishi kerakligi haqida ikki kun muddat ichida tegishli boshqarmalar o'z fikr-mulohazalarini yo'zma ravishda audit xizmatiga taqdim etishlari lozim.

Kredit operatsiyalari audit Markaziy bankning me'yo'riy hujjatlariga va bevosita tijorat bankining kredit siyo'satiga asoslangan holda o'tkaziladi.

Kredit portfeli tahliliga asoslangan holda audit muayyan berilgan kreditga bankning tavakkalchilagini aniqlaydi. Ushbu bosqich alohida e'tibor berishni talab etadi. Chunki auditorlar tavakkalchilik darajasiga qarab aniq kreditga nisbatan hisoblangan zahirani ko'paytirish yo'ki kamaytirishga haqlidir, bu esa bank aktivining sifatida o'z ifodasini opadi.Kredit portfelining holatini tahlil qilishda auditor kredit berish bilan bog'liq bir nechta ko'rsatkichlarni, ya'ni berilgan kreditning o'ziga xos xususiyati, uning ta'minlanishi, foizlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida daromad hisobvaraqlariga olinishi, qaytarilish muddatlari va hokazolarni o'rganishi lozim bo'ladi.

## **9. 2. Bankning moliyaviy natijalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish tartibi.**

Tijorat banklari yillik hisobotlari auditorlik xulosasisiz Markaziy bank tomonidan qabul qilinmaydi va matbuotda chop qilishga ruxsat berilmaydi.

Ma'lumki auditorlik hisoboti – tijorat banki rahbari, mulkdori, ishtirokchilari (aksiyadorlari) umumiyligi yig'ilishiga taqdim etiladigan, auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi huquq buzilishlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos hisoblanadigan boshqa axborotdan iborat bo'lgan hujjatdir. Auditorlik xulosasi esa - moliyaviy hisobotning haqqoniyligi (to'g'riliqi) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yo'zma shaklda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat hisoblanadi.

Auditorlik hisobotida quyidagilar bo'ladi:

- a) nomi;
- b) adresatning nomi;
- v) kirish qismi;
- g) tahliliy qism;
- d) yakuniy qism.

Auditorlik hisobotining har bir sahfasiga moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) imzo chekishi shart.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkiloti rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining umumiyligi tavsifi keltiriladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismida quyidagilar bo'lishi shart:

- bank ichki nazorat holatini tekshirish natijalari (batafsil bayo'ni);
- buxgalteriya hisobi holati va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari;
- moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish paytida qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish natijalari;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash hamda to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish natijalari;

- aktivlarning butligini tekshirish natijalari;

Tijorat banki ichki nazoratining holatini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi axborot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat tizimining bank faoliyatining miqyo‘słari va xususiyatiga muvofiqligi umumiylahosibos;

- auditorlik tekshiruvi mobaynida aniqlangan ichki nazorat tizimining bank faoliyatining miqyo‘słari va xususiyatiga jiddiy nomuvofiqliklari bayo‘ni.

Banklarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti holatini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi axborot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga riox qilinishini baholash;

- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyo‘rlashning belgilangan tartibini jiddiy buzishlar bayo‘ni.

Bank tomonidan moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish paytida qonunlarga riox etishini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi axborot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- tijorat banki amalga oshirgan moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining qonunchilikka muvofiqligini baholash;

- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan, bank amalga oshirgan moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarining qonunchilikka jiddiy nomuvofiqliklari bayo‘ni.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblashi va to‘lashning to‘g‘riligini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi axborot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari to‘g‘riligining bahosi;

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lashning belgilangan tartibini buzish faktlari, soliq solinadigan bazani belgilash paytidagi chetga chiqishlar bayo‘ni.

Aktivlar butligini tekshirish natijalari aktivlarni inventarlashga asoslanishi va o‘z ichiga ularning haqiqatda mavjudligi va butligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishi kerak.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismi auditorlik tashkilotining aniqlangan chetga chiqishlar va huquq buzilishlarini bartaraf etishga doir

tavsiyalarini, shuningdek xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatni samaradorligini oshirishga doir takliflari va maslahatlarini o‘zi ichiga olishi kerak.

Auditorlik tashkiloti auditorlik hisobotini tuzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi. Auditorlik hisobotida keltirilgan axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor etilmasligi kerak. Ammo qonunchilik hujjatlariga asosan tijorat banklari va auditorlik tashkilotlari o‘rtasidagi shartnomalarda auditorlik hisobotini Markaziy bankga taqdim qilishni cheklovchi moddalar bo‘lmasligi lozim. Axborotni oshkor etganlik uchun ushbu axborotdan foydalana oladigan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot qonun hujjatlariga, shuningdek, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashga asoslanishi ko‘rsatilishi kerak. Shuningdek auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun etarlicha asoslar berishi xususida auditorlik tashkilotining tasdig‘i berilishi kerak.

Auditorlik xulosasining yakuniy qismida auditorlik tashkilotining tekshirilgan moliyaviy-hisobot xo‘jalik yurituvchi sub’ekt moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining haqiqiy holati to‘g‘risida haqqoniy tasavvur berish-bermasligi va moliyaviy hisobot qonun hujjatlariga muvofiqligi yo‘ki muvofiq emasligi xususidagi fikri ravshan bayo‘n etilishi kerak.

## **IX -bob bo‘yicha o‘z bilimini tekshirishga doir nazorat savollari**

1. Banklarni hisob-kitob operatsiyalarini audit tekshiruvidan o‘tkazish.
2. Auditorlik hisobotini tarkibiy qismlariga izoh bering.
3. Banklarning yillik hisobotlarini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish.
4. Auditorlik xulosasining asosiy qismlari.
5. Tashqi audit va uning ahamiyati.
6. Ichki auditning mohiyati.

## **GOLOSARIY**

**Aksept** – to‘lovchining to‘lov hujjatini to‘lash uchun bergen roziligi.

**Avizo** – banklararo hisob-kitoblarda hujjatning yuborilganligi to‘g‘risidagi ogohnoma.

**Akkreditiv** – ishonch, ishonchli ma’nosini bildiradi, naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan biri.

**Amortizatsiya (eskirish)** – bu aktivning foydali xizmat qilish muddati davomida uning amortizatsiya qilinadigan qiymatini muntazam ravishda taqsimlash va bank xarajatlari uchun o‘tkazib borish ko‘rinishidagi eskirishning qiymat ifodasi

**Asosiy vositalar** – bu moddiy aktivlar bo‘lib, bank faoliyatida bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayonida, ijaraga berish uchun yoki ma’muriy maqsadlarda foydalaniladi va bir yildan ortiq vaqt mobaynida foydalanishga mo‘ljallangan.

**Auditorlik faoliyati** deganda - auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

**Auditor** — auditor malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir.

**Auditorlik tashkiloti** - tanlov asosida tanlab olingan auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo‘lgan yuridik shaxs;

**Auditoring malaka sertifikati** - auditoring malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko‘rsatish huquqini beruvchi hujjat.

